

ERTA QAYTGAN TURNALAR (QISSA)

Chingiz Aytmatov

Chingiz Aytmatov



O'g'lim Asqarga



Oqsoy, Ko'ksoy, Sariqsoy — kezmagan yer qolmadi,
Lekin hech bir o'lkadan o'xshashing topilmadi...

Qirg'iz xalq qo'shig'i



Iovga eltdi chopar shumxabar:

«O'g'lonlar ko'ksiga sanchilmish xanjar...»

«Iov» kitobidan



Qayta-qayta dalasini shudgor qilar qo'shchilar,

Qayta-qayta sepadilar yerlariga urug', don,

Qayta-qayta yomg'ir bilan siylar ularni osmon...



Umid bilan yer haydaydi odamlar,

Umid bilan urug' sochar odamlar,

Umid bilan dengiz ketar odamlar...

(Qadimgi Hindiston adabiyoti yodgorliklaridan)



BIRINCHI BOB

Sovqotib, dag'al shol ro'molga o'ranib olgan muallima Inkamol opa geografiya darsida Seylon haqida, okeanning Hindistonga yaqin qirg'oqlarida joylashgan o'sha afsonaviy orol haqida hikoya qilar edi. Seylon maktab xaritasida bepoyon yerga nisbatan bir nuqtaday ko'rinar edi. Yaxshilab tinglasang, nimalar yo'q u yerda, maymunlaru fillar ham, bananlar ham (qandaydir mevalar), dunyoda eng yaxshi choy ham va turli-tuman yovvoyi mevalar, notanish o'simliklar ham bor. Hammasidan ham uyoq doim shunday issiq bo'ladi-ki, yil bo'yi bermalol yuraverasan: etik ham, qalpoq ham, paytava-yu po'stin ham kerak emas. O'tinni-ku, umuman, keragi yo'q. Shunday bo'lgach, ko'ray terib kelish uchun dalaga borishning, burning yerga tegay-tegay deb shox-shabba, o'tin orqalab kelishning keragi ham yo'q. Mana

yashash deb shuni aytadi-da. Maza qilib yuraver, hohlasang oftobda isin, xohlamasang soyada yot. Seylonda kecha-yu kunduz havo issiq, shunday rohatki, yozning nihoyasi ko‘rinmaydi. Qancha xohlasang shuncha cho‘milaver, xohla ertalabdan kechgacha. Zeriksang tuyaqushlarni quvla, tuyaqushlarmi, albatta bor u yerda. Uyokda bo‘lmay qayerda bo‘lsin yana bu kattakon ovsar qushlar. Seylonda aqlli qushlar ham bor, masalan, to‘ti. Agar xohlasang uni tutib olasan-da, sayrashga, kulishga, hatto raqs tushishga ham o‘rgatasan. To‘ti shunday qushki, hamma narsa qo‘lidan keladi. Aytishlaricha, shunday to‘tilar ham bor ekanki, hatto o‘qishni ham bilmish. Ovuldagilardan kimdir o‘qishni biladigan to‘tini Jambul bozorida ko‘rgan ekan. Tumshug‘iga gazeta tutsang sharillatib o‘qib tashlayverarmish...

E-he, nimasini aytasan, ajoyibotlarning hammasi Seylonda. Hech narsani xayolingga keltirmay bemalol yashayverasan. Muhimi, plantatsiya egasining ko‘ziga ko‘rinmasang bo‘lgani. Qo‘lida qamchisi bilan yuradi. Xuddi qullariday seylonliklarning yelkalariga qamchi bilan tushirib qoladi. Zolim! Quloq-chakkasiga qarsillatib tushirsang-da, ko‘zlaridan olov chiqib ketsa. Qamchisini tortib olib, o‘zini ishlashga majbur qilsang. Eksploatatorlar-u kapitalistlar erkalgini yig‘ishtirib qo‘ysin, boshqa gap yo‘q: o‘zing uchun o‘zing ishla, o‘z chorig‘ingni o‘zing sudra, vassalom! Axir o‘shalardan fashistlar kelib chiqadi-da... Urush ham o‘shalarning ishi... Ovullaridan qancha kishi halok bo‘ldi-yu, onasi har kuni yig‘laydi, hech narsa demaydi-yu, yig‘laydi, otasini o‘ldirib qo‘yishlaridan qo‘rqadi. Qo‘shni xotinga esa, bir falokat bo‘lsa, qayerga boraman to‘rt bolam bilan, deydi...

Sovuq sinf xonasida junjikkan, bolalar yo‘talining to‘xtashini toqat bilan kutib turgan Inkamol opa Seylon, dengizlar va issiq mamlakatlar haqidagi hikoyasini yana davom ettirdi. Eshitayotganlariga goh ishonib, goh ishonmay (juda ajoyib ta‘riflanar edida o‘sha o‘lkalar) Sultonmurot Seylonda yashamayotganiga ich-ichidan afsus qila boshladi. «Ana yashash-u, ana senga hayot!» — o‘ylar edi u ko‘z qiri bilan deraza tomonga qarab-qarab qo‘yarkan. U buni qoyillatardi. Go‘yo muallimaning so‘zini tinglayotganday bo‘lardi-yu, o‘zi esa derazadan ko‘z uzmasdi. Ammo tashqarida o‘zgarish yo‘q edi. Tashqarida yog‘ingarchilik. Bo‘ralab qor yog‘ardi. Qor uchqunlari derazaga urilib shitirlardi. Oynalar muz bilan qoplangan. Deraza oynalari xira. Derazalarning zamaskalari har joy-har joyidan ko‘chib, siyohga belangan deraza tokchasiga tushib yotardi. «Leylonda zamaskaning keragi yo‘q, — o‘ylardi u. — Kimga ham kerak? Deraza u yoqda tursin, uylarning nima keragi bor. Chayla qurib olib, tepasini yaproqlar bilan yopib olgin-da, yashayver...»

Derazadan hamisha shamol urib turar, hatto romlarning tirqishlaridan hushtak chalib o‘tayotgani eshitilardi. Derazaning o‘ng yonboshi ayniqsa sovuq edi. Chidashga to‘g‘ri keladi. Deraza yoniga uni Inkamol opaning o‘zi o‘tqazib qo‘ygan. «Sen Sultonmurot, — degan edi u, — sinfda eng baquvvatsan. Sovuqqa chiday olasan». Avvallari sovuq tushgunga qadar, bu joyda Mirzagul degan qiz o‘tirardi, uni Sultonmurotning joyiga ko‘chirdilar. U yer unchalik sovuq emas. Shunday bo‘lsa ham uni shu yerda, mana shu partada qoldirganlari yaxshi edi. Baribir sovuqni Sultonmurot to‘tib turardi. O‘tirishardi-da yonma-yon. Endi bo‘lsa tanaffus payti yoniga borsang qizarib ketadi. Boshqalar bilan gaplashib turaveradi-yu, Sultonmurot kelishi bilanoq qizarib qochib qoladi. Orqasidan quvib yurishi noqulay. Kulgiga qoladi. Bu

qizlar har xil uydirmalar to‘qishga juda usta. Darrov yozuvlar paydo bo‘ladi: «Sultonmurot — Mirzagul — oshiq-ma’shuq». Bir partada o‘tirishganida-ku, hech narsa bo‘lmasdi...

Tashqarida gupillab qor yog‘ardi. Havo ochiq kunlari sinf xonasidan turib qarasang shundoq ko‘z oldingda tog‘lar turadi. Maktabning o‘zi ham tepalikda, ovuldan ancha balandlikda joylashgan. Ovul pastda, maktab tepada. Shuning uchun bu yerdan, maktabdan turib atrofni kuzatish oson. Uzkodagi qorli tog‘lar xuddi rasmdagiday ko‘rinadi. Hozir esa qorong‘ida ularning g‘amnok turishi zo‘rg‘a ko‘zga chalinadi.

Qo‘l ham, oyoq ham uvushib qoladi. Hatto belinggacha sovqotadi. Eh, sinf shunday sovuqki. Avvallari, urushdan oldin maktab quritilgan qo‘y qiyi bilan isitilardi. Xuddi ko‘mirning o‘zi edi: zo‘r yonardi. Endi bo‘lsa poxol olib kelishadi. Poxol pechkada gur etib yonadi-yu, hech qanday issiq bermaydi. Bir-ikki kun o‘tgach, poxol ham tugaydi. Poxoldan faqat kul qoladi.

Afsuski, Talas tog‘lari tabiati issiq o‘lkalarnikiday emas. Tabiati boshqacha bo‘lganida yashash ham boshqacharoq bo‘larmidi. O‘z fillari bo‘lardi. Xuddi buqalarni minib yurganday fillarni minib yurishardi. Nima bo‘pti, qo‘rqib o‘tirmasdi. Birinchi bo‘lib o‘zi qoq kallasiga, ikkala quloqlari orasiga minib olardi-da, xuddi darslikdagi rasmdagiday ovul bo‘ylab aylanib yurardi. Odamlar har tomondan: «Qaranglar, yuguringlar, Bekboyning o‘g‘li Sultonmurot fil minib yurib-di!» — deyishardi. Ana o‘shanda Mirzagul ko‘rardi-yu, havasi kelib afsuslanardi balki... O‘ziga zeb berganini qara-yu! Yaqiniga yo‘lab bo‘lmaydi. Achchig‘i chiqsa maymun bilan gazeta o‘qiydigan to‘ti topadi. Ularni fil ustiga, orqasiga o‘tirg‘izib qo‘yadi. Joy yetadi, filning ustiga butun sinf bolalari bilan o‘tirsam ham bo‘ladi. Rost! Buni u birov aytmasa ham biladi.

Tirik filni u o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, buni hamma biladi, tirik maymunni va boshqa xil yirtqichlarni ham ko‘rgan. Bu haqda ovulda hamma biladi, o‘zi necha marta aytib bergan. Ha, o‘shanda omadi kelib, ularni ko‘rgan edi...

Urushgacha, naq urushdan bir yil oldin bo‘lib o‘tgan edi uning hayotidagi bu unutilmas voqea. O‘shanda ham yoz edi. Pichan o‘rishayotgan edi. Otasi Bekboy o‘sha yili Jambuldan shu yerdagi MTSning neft omboriga yonilg‘i tashirdi. Har bir kolxoz yonilg‘i tashib kelishga transport ajratishi kerak edi. Otasi hazillashib o‘zini o‘zi maqtab qo‘yardi: men, der edi, oddiy aravakash emasman, bahosi yo‘q aravakashman, men uchun, otlarim va aravam uchun kolxoz hukumatdan haq oladi. Men, deydi, kolxoz hamyoniga daromad keltiraman. Shuning uchun buxgalter ko‘rgan joyida otdan tushib salom beradi...

Otasining aravasi faqat kerosin tashishga jihozlangan edi. Kuzovsiz, shundoq to‘rt g‘ildirak ustida temir qisqichlarga o‘rnatilgan ikkita temir bochka-yu old tarafda, eng oldinda, aravakash o‘tiradigan joy. Aravaning bor-yo‘g‘i shu. Aravakashning joyiga ikki kishi o‘tirsam bo‘ladi, ammo uch kishiga torlik qiladi. Lekin otlar shunday zo‘rki, ulardan yaxshisini topolmaysan. Otasining otlari ajoyib, baquvvat edi.

Burul axta Chopdor bilan to‘riq axta Chontor. Ularga urilgan jabduq ham pishiq, o‘zi ham

lop-loyiq. Bo'yinturuqlari boyvachchalarnikiday noyob, ko'pdan qilingan abzallari arava moyi bilan moylangan. Ming tortsang ham uzolmaysan. Bunday uzoq yo'lda shunday bo'lishi ham kerak-da. Otasi pishiq, tartibli ish qilishga o'rgangan. Doim otlarni bir maromda yo'rttirardi. Chopdor bilan Chontor ba'zan yollarini silkitib, bir maromda chopib, xuddi ikkita baliq baravar suzayotganday soyalanib kelardiki, ularni tomosha kilish gashtli edi. Odamlar g'ildirak tovushlarini uzokdan eshitiboq: «Bekboy yana Jambulga ketyapti», — deyishardi. Borish-kelish uchun ikki kun ketardi. Bekboy ortiga qaytar ekan, yuzlab kilometr yo'l bosganga sira o'xshamas, odamlar hayron qolishardi. «Bekboyning aravasi xuddi rel'slarda yuradigan poyezdning o'zginasi-ya!» Ular bekorga hayratlanmasdilar. Toliqqan yoki so'lig'i o'ynagan ulovni arava g'ildiraklarining ovozidan ham payqasa bo'ladi. Yoningdan o'tguncha joningni sug'urib oladi. Bekboyning otlari esa doim yengil yo'rg'alaydi. Balki shuning uchun ham eng qiyin safarlarni uning zimmasiga yuklashgandir.

Shunday qilib, o'tgan yili endi o'qish tugab, ta'til boshlanganida otasi shunday deb qoldi: — Shaharga birga olib boraymi? Sultonmurot azbaroyi quvonganidan nafasi bo'g'ziga tiqilay dedi. Bo'lmasa-chi. Otasi uning shaharni ko'rishni ko'pdan beri orzu qilib yurganini qayerdan biddiykin? Axir hali shaharda biror marta ham bo'lmagan. Qoyil ish bo'ldi-da! — Yana bu haqda maqtana ko'rma, — jo'rttaga qo'rqitib qo'ydi otasi. — Bo'lmasa ukalaring shunday janjal ko'tarishadiki, keyin biror joyga borib bo'psan.

To'g'ri gap. Ajimurot, undan uch yosh kichkina-yu, hech nimada, hech qachon akasiga yon bergisi kelmaydi. Eshakday qaysar. Goho otasi uydaligida Ajimurotning dastidan uning oddiga ham borolmaysan. Otasining yelkasidan tushmaydi. Go'yo yolg'iz uning o'zi-yu, boshqalar hisobda yo'q. Ikkita singillari, ular hali kichkina edilar o'sha paytlar, hatto o'shalar ham yig'i-sig'i bilan arang ota mehriga muyassar bo'lishardi. Namuncha bu kichigi otasiga yopishmasa, deb qo'shnilar ham hayron edilar. Oruvxon momodan, badjahl, cho'pday, qaltiroq tovushli ayoldan hamma qo'rqardi. Shu kampir bir emas, necha marta qoqshol qo'llari bilan Ajimurotning qulog'ini burab ogohlantirgan edi: — Sen shumtakaning otangga yopishib olganing yaxshilik alomati emas! Yer yuzida bir falokat ro'y beradiganga o'xshaydi! Bu qanday gapki, o'g'il bola tip-tirik otasiga to'ymay yursa! Bu qanaqa bola, o'zi! Hoy, odamlar, mana meni aytdi dersiz, bu bola bizlarning boshimizga bir baloni yog'diradi!

Onasi g'udranib, tuflab qo'yib, Ajimurotning tanglayini ko'tarib qo'yardi-yu, ammo Oruvxon kampirga botinib bir so'z deyolmasdi. Kampirdan hamma hayiqardi. Oruvxon momo bejiz aytmagani ekan. Shunday bo'ddi ham. Ajimurotga qiyin bo'ldi. U endi kap-katta, uchinchi sinfda o'qiydi, birovga bildirmaydi, ayniqsa, onasi oldida o'zini tutadi-yu, ammo o'zi hamon yo'l poylaydi, otasining bugunmi-ertami frontdan qaytishiga ilhaq bo'ladi. Yotish oldidan pichirlab, xuddi kattalarday, kechki duosini o'qiydi: «E xudo, e xudo, ishqilib, ertaga otam qaytib kelsin». Har kuni shu ahvol. Qiziq, o'zicha, uxlab tursa hamma narsa o'zgaradi-yu, mo'jiza yuz beradi, deb o'ylaydimi.

Agar otasi urushdan eson-omon qaytib kelsa, mayli, uniki, faqat Ajimurotniki bo'la qolsin. Mayli, u Ajimurotni qo'llaridan, yelkasidan tushirmasin. Faqat kelsa bo'ldi. Ishqilib, nima

bo'lsa ham u bilan eson-omon yuz ko'rishsin. Unga, Sultonmurotga ana shu baxtning o'zi yetarli. Otasi qaytsa bo'lgani.

Otasi Chuy kanalidan qaytib kelganida uylarida sodir bo'lgan o'sha voqeaning yana takrorlanishini u shunday xoxlardiki. U qurilishga burnog'i yili yozda ketgan edi, o'shanda ham aravakash bo'lib besh oyga ketgan edi. Yoz bo'yi va kuzi bilan o'sha yerda tuproq tashigandi. Staxanovchi bo'lgan edi.

Uyga u namozshomda kirib keldi. To'satdan hovlida g'ildirak tovushlari eshitildi, otlar pishqirib qoldi. Bolalarning hammasi hovliga otilishdi. Otasi! Qorayib xuddi lo'liga o'xshab qolgan, ozib-to'zib, soch-soqoli o'sib ketgandi. Usti boshi ham, onasi keyin ta'riflaganicha, daydilarinikiga o'xshardi. Faqat etiklari yap-yangi xromdan ekan. Ajimurot birinchi bo'lib yugurib borib otasining bo'yniga osiladi, yopishib olib mahkam quchoqlab oladi-yu, sira qo'yib yubormaydi, shu ko'yi nuqul yig'lab bir so'zni takrorlaydi:
— Otajon, otajonim, otajon...

Otasi uni bag'riga bosarkan, o'zining ham ko'zlariga yosh qalqiydi. Qo'shnilar chiqishadi. Ikkoviga qarab ular ham yig'lashadi. Onasi bo'lsa birdan dovdirab qolganidan aylanib-o'rgilib yurar, Ajimurotni otasining bag'ridan tortib olmoqchi bo'lardi:
— Otangni qo'yib yubor endi! Yetar, sen bir o'zing emassan-ku. Boshqalar ham ko'rishsin. Qanday aqlsizsan-a, xudoyim-ey, qara, odamlar ko'rishmoqchi...

Uning bo'lsa parvoyi falak...

Sultonmurotning ichidan nimadir uzilib tomog'iga to'pday qadalib qolganday tuyuddi. Og'zi sho'r bo'lib ketdi. Tag'in hech qachon va hech nimaga yig'lamayman, deydi. U shu zahotiyog o'zini qo'lga oldi. Tetiklandi.

Dars hamon davom etardi. Inkamol opa endi Yava, Borneo, Avstraliya haqida hikoya qilardi. Yana ajoyib o'lkalar, mangu yoz. Timsohlar, maymunlar, pal'malar hamda har xil notanish narsalar. Kenguru bo'lsa g'aroyibotlar g'aroyibi! Bolasini qornidagi xaltasiga solib olib, yugurib yuraveradi. O'ylaganini qarang kenguruning, aniqrog'i, tabiatning...

U kenguruni ko'rmagan. Ko'rmaganmi, ko'rmagan. Afsus. Lekin filni, maymunni va boshqa hayvonlarni yaqindan tomosha qilgan. Qo'l cho'zsang yetadigan yerdan..

O'sha kuni, otasi uni o'zi bilan shaharga olib ketishini aytganida u yeru ko'kka sig'may yurdi. Toqatsizlanganidan, quvonganidan tars yorilib ketguday bo'ldi, ammo gap shundaki, u bu hakda birovga aytishga jur'at qilolmasdi. Agar Ajimurot bilib qolsa, katta to'polon chiqardi: nega Sultonmurotga mumkinu, menga mumkin emas, nega otam uni o'zi bilan olib ketadi-yu, meni olib ketmaydi? Shuning uchun ham behad quvonch va ertangi sayohatni kutish tuyg'ulari ukasi oldida qandaydir aybdorlik hislari bilan qo'shilib ketganday edi. Nima bo'lsa-da, bo'lajak voqea haqida ukalari va singillariga aytib yuborishiga ozgina qoldi. Judayam aytgisi kelardi. Ammo otasi va ayniqsa onasi bunday qilmaslikni qayta-qayta uqtirardi. Mayli,

kichkinalar u yoʻldaligida bilishsin. Shunday boʻlgani yaxshi. U ana shu sirni saklash uchun oʻzini bazoʻr tutib qoldi. Oʻlib qolay dedi sir tutaman deb. Ammo oʻsha kuni u shunday serharakat, hammaga shunday sertakalluf, shunday jonkuyar boʻlib qoldiki, hech qachon bunday qilmagandi. Hamma ishni qilar, hammasiga ulgurur edi. Buzoqni ham joyiga eltib arqonlab keldi, tomorqadagi kartoshkani ham chopdi, kir yuvayotgan onasiga ham yordamlashdi, eng kenja singlisi Almatoy loyga yiqilib tushganida uni yuvintirdi va yana boshqa ishlarni ham oʻrinlatdi. Qisqasi, oʻsha kuni u shunday sidqidildan ishladiki, hatto onasi oʻzini tutib turolmay boshini chayqaganicha piqillab kulib yubordi.

— Munchalik oʻzgarib qolding? — dedi tabassumini arang yashirib. — Qani endi doim shunday boʻlsang, qaniydi-a! Koʻz tegmasin, ishqilib! Balki seni shaharga yubormaslik kerakdir? Sen ajoyib yordamchim boʻlib qolibsana-ku.

Lekin buni onasi shunchaki aytgan edi, xolos. Oʻzi esa xamir qorib yoʻlga non yopar va har xil yegulik hozirlardi. Yogʻni eritib, uni ham yoʻlga hozirlab shishaga solib qoʻydi.

Kechqurun butun oila jam boʻlishib samovar atrofida issiq non va qaymoq bilan choy ichishdi. Joyni esa hovliga, ariq boʻyidagi olma daraxtining ostiga solishgan edi. Otasi kichkintoylar qurshovida oʻtirardi — bir yonboshida Ajimurot, boshqa yonida qizaloqlari. Onasi choy quyar, Sultonmurot esa piyolalarni uzatib, samovarga koʻmir tashlab turardi. U bularning hammasini ishtiyoq bilan bajarardi. Oʻzi esa mudom ertaga shaharda boʻlishni oʻylardi. Otasi bir-ikki marta u tarafga koʻz qisib imo ham qilib qoʻydi. Ukasi oldida ozmuncha mugʻambirlik qilyaptimi axir.

— Xoʻsh, Ajike, — choy hoʻplab turib kichik oʻgʻliga yuzlandi, — Qorayolingni hali ham minishga oʻrgatmadingmi?

— Yoʻq, ota, — shikoyat boshladi Ajimurot. — U juda asov chiqib qoldi. Orqamdan xuddi kuchukday ergashib yuradi. Men unga ovqat beraman, sugʻoraman, bir marta hatto maktabimizga ham ergashib bordi. Deraza tagida turib tanaffusga chiqishimni kutganini butun sinfimiz koʻrdi. Ammo hech mindirmaydi ustiga, darrov otib yuboradi, shataloq otadi...

— Uni minishga oʻrgatish uchun senga hech kim yordam qilmayaptimi? — maslahat solganday boʻldi otasi goʻyo oʻzini ish bilan band qilib koʻrsatganday.

— Men uni oʻrgatib beraman, Ajike, — shaylanib turganday javob qildi Sultonmurot. — Albatta, oʻzim oʻrgatib beraman...

— Ur-ey! — degancha oʻrnidan irgʻib turdi ukasi. — Ketdik!

— Qani, joyingga oʻtir-chii! — Shashtini qaytardi onasi. — Tek oʻtir. Odamlarga oʻxshab choy ichib olinglar, keyin ulgurarsizlar.

Gap Ajimurotning ikki yoshli yoqimtoy xoʻtigi ustida borardi. Oʻsha yili bahorda uni bolalarga togʻasi Nurgʻozi inʻom qilgandi. Yozgacha xoʻtik ajabtovur oʻsdi, kuchga toʻldi. Uzunquloqni egarga, ishga oʻrgatish uchun minishga koʻniktirish vaqti kelgan edi. Axir xoʻjalikda eshak doimo, hali tegirmonga, hali oʻtin-choʻpga, hali mayda-chuyda narsalarga deganday kerak boʻlib turadi-da. Shuning uchun ham Nurgʻozi togʻasi unga sovgʻa qilgandi. Ammo birinchi kundanoq Ajimurot eshakni oʻziniki qilib oldi. Oʻjar, toʻpolonchi bola eshakka shunday gʻamxoʻrlik qila boshladiki, biror kishini uning yaqiniga ham yoʻlatmas edi.

Sal narsaga, xo‘tigimga tegmanglar! Men uni o‘zim boqaman, o‘zim sug‘oraman, derdi. Bir marta ana shu xususda aka-uka urishib qolishdi. Onasi kattasini jazoladi, chunki kichigi undan musht yegan edi-da. O‘shandan buyon Sultonmurotning alami ichida edi. Xo‘tikni minishga o‘rgatish payti kelganda u o‘zini chetga oldi: modomiki seniki ekan, o‘zing o‘rgat minishga, meni tinch qo‘y, ishim yo‘q. Xuddi shunday ishlarda ustasi farang bo‘lganiga qaramay, chap berdi. Bolaligidan uning ko‘zi pishib, epchil bo‘lib qolgandi. Asovlarni itoat qildirishni yaxshi ko‘rar edi. Bu ham xuddi kurash — kim-kimni bo‘ysundirishday gap. Qo‘shnilarning barcha toychoqlarini, buqalari-yu xo‘tiklarini hamisha u o‘rgatardi. Yosh hayvonlarni odatda epchil bolalardan biri o‘rgatadi minishga. Kattalarning vazni, og‘irligi, yo‘l qo‘ymaydi bunga. Odamlar Sultonmurotga odatda hurmat bilan shunday iltimoslar qilib kelishardi: «Sultonmurotjon, vaqting bo‘lsa bizning buqani o‘rgatib bersang». Yoki: «Sultake, azizim, bizning hangining bir aqlini kiritib qo‘y. Yelkasiga pashshani qo‘ndirmaydi, tishlab o‘zini har yoqqa otgani-otgan».

Bu ishda u ana shunaqa taniqli bo‘lib qolgan edi, ammo o‘z ukasiga yo‘q derdi, buning ustiga, bir-ikki marta ukasi ardoqli eshagidan yiqilib peshonasi g‘urra bo‘lganida kulib mazax qilib, uning jig‘iga tegdi:

— U orqangdan xuddi itday chopib yuradi! Sen hali kuningai ko‘rasan undan!

Eh, ukasini ranjitib qanday noma‘qulchilik qilgan ekan-a. Faqat otasi ishora qilgandan keyingina tushunib yetdi. U mana shunaqa tentaknamo edi, ukalari oldida yarashmagan qiliqlarni qilib yurardi. Mana endi, shaharga boradigan bo‘lganida, ukasi buni bilmaydi, vijdoni shunday qiynaldiki, hatto shu zahoti uning oldiga borib kechirim so‘rashga, nima desa shuni bajarishga tayyor edi.

Choy ichib bo‘lishgach, otasi bilan tomorqalari ortidagi o‘tloqqa yo‘l olishdi. Avval atrofdagi hamma toshlarni terib olib narigi yoqqa tashladi. Keyin Qorayolni — Ajimurot o‘z eshagini tantanavor qilib shunday atardi — jilovlashga olib kelishdi. Otasi Qorayolni quloqlaridan ushlab turganida Sultonmurot epchillik bilan unga no‘xta urdi.

Keyin ishtonini yaxshilab ko‘tarib oldi. Axir oson ishga bel bog‘lamagan edi-da. Shu yerning o‘zidayoq sirk tomoshalari boshlandi. Ajimurotning qo‘li ostida erkin yurgan Qorayol yomon qiliq chiqarib olishga ulgurgan ekan. Darrov shataloq otib, orqa oyoqlarini ko‘tarib, o‘zini har yoqqa ota boshladi. Uzunquloq chavandozni egardan uloqtirish havosini olgan edi.

Ammo hech narsa qilolmadi. Sultonmurot yiqilar, ammo dam o‘tmay yana o‘rnidan turib olar, qorni bilan Qorayolni ustiga yotib olib, keyin yana bir harakat bilan uning beliga minib olardi. Eshak bo‘lsa yana bo‘ysunmas, yana yiqilish, yana minish davom etaverardi.

Bularning hammasini Sultonmurot chapdastlik va hatto quvonch bilan bajarardi. Hamma gap yiqilishni bilishda! Nima uchun odamlar otdan yoki tuyadan ko‘ra eshakdan yomon yiqilasan, deyishadi? Aksincha emasmi axir. Sir shundaki, yiqilayotib qo‘l bilan tushishga ulgurish kerak. Otning balandligi, tuyaning undan ham balandligi yiqilayotgan kishining mo‘ljal olib ulgurishiga imkon beradi. Eshakdan tajribasiz chavandoz qopdek «gup» etib qulaganini o‘zi

ham bilmay qoladi...

Buni Sultonmurot o'z tajribasidan bilardi. Buning uchun tashvish qilishning hojati yo'q edi. Shovqin solishib, xursandchilik qilishib, qiy-chuv ko'tarishdi. Otasi qornini ushlab, ichagi uzilguday kulardi. Shovqin-suronni eshitib bolalar kelib qolishdi. Ularning ichida kimningdir kuchugi ham bor ekan. U ham to's-to'polonni ko'rib, o'zini ishtirok etishi kerak deb hisoblaganday vovullab, Qorayolning ketidan quva ketdi. Eshak bo'lsa qo'rqqanidan shataloq otdi, Sultonmurot esa hammaning havasini keltirib xuddi osoaviaximovchilarga o'xshab chavandozligini ko'rsata ketdi. U chopib borayotgan Qorayolning ustidan sakrab tushib yana minib olar edi.

Urushdan oldin osoaviaximovchi — otliq askarlar qishloq Soveti oldidagi o'tlokda mana shunday mashq qilishar edi. Ovullaridagi yigitlarning bari esa ishdan keyin mashq qilishardi. Ot ustida chopib borayotib novdalarni kesib tashlashardi. Ot ustidan yo'l-yo'lakay o'zlarini pastga otib yana minib olishardi. Ularni znachoklar bilan takdirlashardi. Bu zanjirli, vint bilan burab qo'yiladigan juda chiroyli znachoklar edi. Bolalarning rosa havasi kelardida. Ular osoaviaximovchilar mashqini tomosha qilgani doimo chopqillab kelishardi. O'sha yigitlar hozir qayerda yurgan ekanlar-a? Otlardami yoki okoplar ichidamikanlar? Otliq armiya hozirgi urushda kerak bo'lmaydi, deyishyapti...

Sultonmurot deraza tashqarisiga qaradi-yu, otlar qishda sovqotishadi, tanklarga esa sovuq ham pisand emas, deya o'yladi. Lekin baribir otdan yaxshisi yo'q!

... Rosa tomosha bo'lgan edida o'shanda. Tez fursatda Qorayol tinchib qoldi. O'zidan nima talab qilishayotganini tushundi: odimlab, yo'rg'alab, davrani aylanib yura boshladi...
— Endi minib ol, — ukasini chaqirdi Sultonmurot, — chu, de, hammasi joyida!

Yuzlari faxrdan yongan Ajimurot, to'voni bilan Qorayolni tepib u yoq-bu yoqqa choptira boshladi — uning qanday abjir akasi borligini hamma ko'rib tursa-yu, maqtanmay bo'ladimi!

Kecha yorug' bo'lib, uzoq vaqt qorong'ilashmay turdi. Ular uyga horib-charchab, ammo mamnun bo'lib qaytishdi. Ajimurot onasiga ko'rsatish uchun Qorayolni minib, hovliga kirib bordi. Shundan keyin u hech nimadan shubhalanmay darrov uxlab qoldi. Sultonmurot esa sira uxlayolmasdi. Ertaga shaharda bo'lishini, u yerda nimalar ko'rishini-yu, o'zini nimalar kutayotganini o'ylardi. Ko'zi uyquga ketayotib, otasining onasi bilan past tovushda suhbatlashayotganini eshitib qoldi.

— O'zinga qolsa unisini ham olib ketardim, ikkalovi bo'lsa yana qiziqroq bo'lardi, — dedi otasi, — faqat joy yo'q-da, bu shayton aravada. Eng oldinda, bochkalarning ustida o'tirasan. Yo'l bo'lsa uzoq, bolakay mudrab g'ildirak ostiga tushib ketishi mumkin.

— Nimalar deyapsan! — qo'rqib ketdi onasi, — xudo ko'rsatmasin, bu haqda o'ylab o'tirma, keragi yo'q. Keyinroq bir kun olib borarsan. Sal katta bo'lsin. Sen avval unisiga ehtiyot bo'l. Katta bo'lib qoldi deysan, qayoqda hali...

Sultonmurotni shirin uyqu eltgan edi, ota-onasining past ovozidagi suhbatini tinglash ham

marokdi, ertaga ertalab, sahar turib otasi bilan yo'lga tushishini o'ylash undan maroqli edi... Ko'zi ilinayotganda esa yuragi orziqib, uchish shunday zavqli ekanligini his qilardi. Qiziq, u uchishni qayerdan o'rgandi? Yurmoq, chopmoq va suzmoq odamlarga xos-ku. U bo'lsa uchib yuribdi. Qushga ham o'xshab emas. Qushlar qanotlarini silkitishadi. U bo'lsa qo'llarini yozdi-yu, barmoqlari uchini qimirlatdi, xolos. Uchganda ham bir tekis, erkin uchdi, qayerdan va qayerga borishi noma'lum, sokin va «kulib» turgan bo'shliqda uchib yurardi... Uning yo ruhi uchardi, yoki tush ko'rardi.

— Tur, Sultonmurot, yo'lga tushamiz, — deya otasi yelkasiga qoqib sekingina qulog'iga shivirlaganida u qo'qqisidan uyg'onib ketdi.

O'rnidan sakrab turarkan, bir lahza otasining qulog'iga tegib turgan dag'al mo'ylovi, o'ziga qarata aytgan so'zlari padari buzrukvoriga nisbatan qat-qat mehr, minnatdorlik tuyg'ularini jo'sh urdirib yuborganligini his etdi. U o'shanday bir kun kelib otasining soqollari yuziga tegishini, xuddi o'shanday «tur, Sultonmurot, yo'lga tushamiz», — degan so'zlarini qo'msashini hali bilmas edi.

Allaqachon o'rnidan turgan onasi o'g'liga yuvilgan ko'ylak berib, otasi o'tgan yili Chuy kanalidan olib kelgan kattaroq ko'k, xuddi boshliqlarnikiday furajkani boshiga kiygizib qo'ydi. Asrab qo'yilgan botinkalarni ham otasi kanaldan olib kelgandi.

— Qani, kiyib ko'r-chi, qismaydimi? — dedi onasi botinkalarni tutib.

— Yo'q, qismayapti, — dedi Sultonmurot oyog'ini sal-pal qisayotganiga qaramay. — Hechqisi yo'q, kengayib ketadi hali.

Ular onasi bilan xayrlashib hovlidan chiqishganlarida, kerosin arava shaqirlab katta toshloq ariqdan o'tganida Sultonmurotning yuragi quvonchdan hapriqib, otlarning tuyog'idan sachrayotgan muzdek suv zarrasidan etlari jimirlab ketdi va tushida emas, o'ngida, rostakamiga shaharga ketayotganini his etdi.

Yozgi subhidam xuddi shaffof sharbatday quyula boshladi. Quyosh hali uzoq-uzoqlarda, oppoq qorli tog'lar ortida edi. Biroq u asta-sekin yaqinlashib, ko'tarilib, nogoh tog'lar ortidan yarqirab chiqishga hozirlanar edi. Hozircha esa tuni bilan salqinlashib qolgan yo'lda sukunat va sof havo hokim. Afsus, ularni ovuldan chiqib ketayotganini bolalardan hech kim ko'rmadida. Faqat chekka-chekkadan itlargina g'ildirak tovushini eshitib, mudroq aralash hurib qo'yishardi...

Yo'l adir bo'yiab borar, uzoqdan binafsharang ko'rinishdagi uncha baland bo'lmagan tizma tog'lar qo'yniga kirib borardi. O'sha yoqda, o'sha uzoq tog'lar ortida Jambul joylashgan. Ular o'sha yoqqa ketishyapti. To'ygan otlar bir tekisda dadil yo'rtib borar, go'yo egar-jabduqning ham, bo'yinturuq ham unga aloqasi yo'qday, odatdagicha kishnashib va ko'zlari ustiga tushib turgan yollarini selkillatgancha yo'rg'alab borishardi. Yo'l yaxshi tanish, bu yo'llardan ular necha martalab o'tishgan; xo'jayinlari o'z o'rnida, jilov qo'lida, yonidagi bolakay ham begona emas, qadrdonlari, og'irligi ham tushayotgani yo'q...

Ular shu maromda anchagina yo'l bosib, dunyodagi barcha aravalar singari shaqir-shuqur,

g'ichir-g'ichir ovoz chiqarib borishardi. Quyosh shu topda yon tomondan, tog'lar orasidagi bo'shliqdan mo'ralay boshladi. Nur, harorat, terga botgan otlar yag'riniga havo to'liqiniday sokin va mayin taraldi: nur qo'ynida Chopdor bedana tuxumiday burul tusga kirdi. Chontor esa tag'in ham tiniqlashib, oq-to'riq rangga bo'yaldi; nur, harorat otaning bug'doyrang yonog'iga ham qo'nib, qisq ko'zlari atrofidagi qalin ajinlarni chuqurlashtirganidan, jilov tutgan qo'llari esa yana ham yirik va chayir ko'rinaridi; nur va harorat otlarning tuyoqlari ostiga yugurgan oqimday, yo'lga to'shalib, tan va ko'zlarga ko'chdi; nur, harorat jumlayi jahonga hayot ato eta boshladi...

Shu safar tongida Sultonmurot qalbida iliq, quvonchli va ezgu hislar hukmron edi.

— Qalay, uyg'ondingmi? — hazillashdi otasi.

— Allaqachon, — dedi o'g'il.

— Unday bo'lsa, ushla buni, — deya jilovni unga tutqazdi.

Sultonmurot minnatdorlik bilan jilmayib qo'ydi, axir u buni sabrsizlik bilan kutayotgan edida. O'zi so'rasa ham bo'lar ediku-ya, ammo yaxshisi otasining o'zi qachon ma'qul ko'rsa shunda bergani yaxshi — unaqa-bunaqa ish emas, bu katta yo'lda yurish degani. Otlar tizginni boshqa qo'lga o'tganini sezib, norozi bo'lgandek quloqlarini chimirib yo'rtib borayotib — xuddi hukmronlik zaiflashgan ayni paytda g'alayon ko'tarishga va urishishga qaror qilishganday bir-birlarini tishlay boshlashdi. Ammo Sultonmurot darhol o'zini ko'rsatib qo'ydi — jilovni siltab tortgancha qichqirdi:

— Chu, jonivorlar!

Agar baxt odamga bir marta nasib qilsa, buni Sultonmurot safarda to'la his qildi. Uning kayfiyati biror daqiqaga ham buzilmadi. Otasi yonida o'tirarkan, u o'zini har narsaga qodir deb hisoblardi. Bu kayfiyat yo'l bo'yi uni tark etmadi. Shaqir-shuqur kerosin arava boshqa birovni hatto aqlidan ozdirib qo'yishi mumkin edi, ammo uning uchun esa bu baxt-shodlik qo'ng'irog'i edi. Arava ostidan ko'tarilayotgan chang ham, g'ildiraklar g'ildirab borayotgan yo'l ham, bir maromda tuyoq tashlab borayotgan otlar ham, qoramoy va ter hidi anqib turgan abzal ham, bosh ustida suzib yurgan oppoq parqu bulutlar ham, atrofda shabnamga cho'milgan sarg'ish, ko'm-ko'k, binafsharang dala chechaklari ham, yo'llardagi kechib o'tiladigan soylaru ariqchalar, duch kelgan otliqlaru aravalar ham goh oldinga, goh orqaga yengil uchib, ba'zida esa shundaygina otlarning tumshug'i tagidan uchib o'tayotgan qaldirg'ochlar ham — hamma-hammasi baxt va go'zallik ramzi edi. Biroq Sultonmurot bular haqida o'ylamasdi, zotan baxt bor joyda u hakda o'ylamaydilar. Sultonmurot dunyoning xuddi shunday tuzilganini, bundan yaxshiroq bo'lishi mumkin emasligini his qildi. Uning otasi ham shunday yaxshiki, bundan yaxshiroq bo'lishi ham mumkin emas edi.

Hatto sariq to'sh, qora bosh dala qushlarining yo'l bo'yidagi tikan va butalar shoxiga qo'nib olib, o'sha bir ohangda sayrash ham bejiz emas edi. Kim uchun sayrayotganini o'zlari bilishadi. Sultonmurot ularni qanchalik yaxshi ko'rishini ham bilishadi. Bu qushlarni sarayg'irlar deb atashadi. Shunday deb atalishiga sabab ular bir umr o'zlarining sayroq ovozi bilan allaqanday saman ayg'irni shoshirar emish: «Chu, chu, sarayg'ir! Chu, chu, sarayg'ir!» G'alati qushlar-da, sarayg'irlar. Biroq ular har tilda har xil sayrar ekan. Bir kuni ovulga

kinomexanik, xushchaqchaq rus yigit kelib qoldi. Sultonmurot unga parvona boʻlib qutilarga solingan lentalarni tashishdi, kechqurun esa buning uchun u birinchi boʻlib dinamo-mashinasini aylantirish baxtiga muyassar boʻldi. Dinamo-mashinada elektr toki hosil qilinadi, tokdan esa lampochkalar yonadi, lampochkadagi nur esa oppoq ekranga tushadi, ekranda esa jonli tasvirlar aks etadi.

Shunda oʻsha kinomexanik uning sayrashini eshitib, soʻrab qoldi:

- Devor ortida sayrayotgan qushning nomi nima?
- Bu saraygʻir, — tushuntirdi unga Sultonmurot.
- U nima deb sayrayapti?
- Chu, chu, saraygʻir!
- Bu nima degani?
- Bilmadim. Ruschasiga: «No-o, no-o, jyolty jerebes!» — degani boʻlsa kerak.
- Birinchidan, aygʻir sariq boʻlmaydi. Ha, mayli, ammo nima uchun tinmay: «Chu, chu, saraygʻir!» — deydi.

Chunki bu qushning xayolida xuddi sariq aygʻirga minib toʻyga ketayotganday tuyular ekan, yurib-yurib hech manziliga yetolmayotganday boʻlarkan-da, u hadeb: «Chu, chu, saraygʻir!» — deb qichqirar ekan.

- Men boʻlsam boshqacha eshitgan edim. Aytishlaricha, saraygʻir bozorda qarta oʻynagan va uch soʻm yutib olishiga sal qolgan. Shuning uchun ham: «Chut, chut tri rublya ne vʻiral!» — deb sayrar ekan. Endi oʻsha uch soʻmni yutib olmagunicha sayrashini qoʻymas ekan.
- Qachon u oʻsha pulni yutib oladi?
- Hech qachon. Xuddi, toʻyga yetib borolmaganiday pulni ham hech qachon yutolmaydi.
- Ana xolos...

Haqiqatan, koʻrinishdan oddiygina qushcha-yu, ammo juda mashhur ekan.

Yoʻl boʻyi saraygʻirlar sayrab turishardi, Sultonmurot ularga jilmayib:

- Ketdik birga, bozorga borib uch soʻmni yutib olamiz! — derdi.

Ular esa tinmay sayrashardi. «Chu, chu, saraygʻir!» Boshqa gal esa: «Chut, chut, tri rublya ne vigral!» — deb jigʻibiyron boʻlib sayrashardi.

Sultonmurot shaharga juda tez yetishga oshiqardi. Quyosh endi shundoq togʻlar ustiga kelib qolgan edi. Sultonmurot otlarni tezlatdi:

- Chu, chu, saraygʻir! — bu soʻzlarni u Chopdorga aytdi. — Chu, chu, toʻraygʻir! — bunisini esa Chontorga qarata aytdi.

Otasi uni sal qaytardi:

- Qichab haydama. Otlar oʻz maromini biladi. Keragida chopadi, keragida oʻzini asraydi ham.
- Ularning qaysi biri yaxshi, ota, Chopdormi yo Chontormi?
- Ikkalasi ham yaxshi otlar. Yoʻrgʻalashi ham, kuchi ham baravar. Xuddi mashinaday

ishlaydi. Faqat parvarish qilib, o'z vaqtida yem-xashak berib tursang bo'ldi — hech qachon dog'da qoldirmaydi. Ishonchli otlar. O'tgan yili Chuy kanalida botqoqlikda ishladik. Aravalar yuki bilan gupchagigacha botib qolar edi. Goho shunday o'tirib qolardiki, ba'zilarini hech qayoqqa siljitib bo'lmaydi. Dod deb yuborging kelardi. Qutqar, deb darrov chopib kelishardi. Iltimos qilishardi. Yo'q, deb bo'larmidi? Chontor bilan Chopdorimni olib kelib aravaga qo'shardim. Biz hayvon deymiz-u ular aqlli, ularni bekorga boshqa aravaga qo'shmasliklarini, yordam qilishlari kerakligini tushunadi. Qamchini ko'p ishlatmayman, faqat ovoz chiqarib qo'yaman — ular bo'lsa, ishqilib abzallari chidasa bo'ldi, tizzalab bo'lsa ham aravani tortib chiqaradi chuqurdan. U yerda, Chuy kanalida, bularni hamma bilardi: omading bor ekan seni, Bekboy, deb havas qilishardi. Balki shundaydir, faqat otlarga yaxshi qarash kerak, ana shunda omad ham kelaveradi.

Chopdor va Chontor ishbilarmonlarday, o'sha bir maromdagi yo'rg'asida borar, go'yo gap ular hakda emasday edi. Otlar qorinbog'lari-yu quloqlarigacha terlab-pishib, hamon avvalgiday yollarini selkillatishganlaricha yo'l pashshalarini qo'nishiga imkon bermay borishardi.

— Ota, qaysi biri katta, Chontormi yo Chopdormi? — otasidan so'raydi Sultonmurot.

— Chontor uch yosh katta. Chontorning keksaygani asta-sekin bilinib qolyapti. Chopdor esa ayni kuchga to'lgan vaqti. Baquvvat, chopqir ot. U bilan ulokda ham ko'plarni dog'da qoldirish mumkin. Oldinlari bunaqa otni yigitning qanoti, deyishardi.

Sultonmurot Chopdor unga ko'proq yoqqani uchun suyunib ketdi. Ajoyib tusli — burul, mayda xolli. O'zi ham badfe'l emas, chiroyli, baquvvat.

— Menga Chopdor ko'proq yoqadi, — dedi u otasiga. — Chontor badjahl. Ko'zini olaytirgani olaytirgan.

— Badjahl emas, aqlliku, — kulimsirab qo'ydi otasi. — U ishsiz qolib zeriktirishlarini yoqtirmaydi. — U bir oz turib yana qo'shib qo'ydi: — Ikkalasi ham yaxshi.

O'g'li ham ma'qulladi.

— Ikkoviyam yaxshi, — takrorladi u otlarni qistarkan.

Bir ozdan so'ng otasi dedi:

— Qani, jinday to'xtatib turchi, — to'xtat aravani.— O'zi esa qulay fursat kutib hushtak chaldi. — Otlarning siygisi qistadi, ammo ayta olishmaydi. Buni sezish kerak.

Haqiqatan ikkala axta ham yo'lda shovqin solib, oppoq ko'pik sachratib siya boshladilar, qalin, mayda, upaday chang bo'lsa ko'pik bo'lib ko'pchib loyga botdi.

Keyin ular yana yo'lga tushishdi. Yo'l borgan sari ilgarilar, tog'lar esa ortda qolardi.

Tez orada shahar chetidagi bog'lar ko'rinib qoldi. Ko'chadarga jon kirdi. Endi jilovni otasi oldi. To'g'ri qildi. Endi Sultonmurotga otlarning ham, jilovning ham qizig'i qolmagandi. Shahar boshlangan edi. Shahar har xil bo'yoq va hidlar anqigan, shovqin-suronga to'liq edi. Go'yo to'polon oqimiga tashlab yuboradi-yu, u oqim bo'lsa uni aylantirib-aylantirib to'liqlar

domiga tortib ketganday edi.

Ana o'shanda, o'sha baxtiyor kunda hech kimga nasib qilmagan omad nasib qildi unga: otchoparda, Jambulning kattakon mol bozorida sayyor hayvonot bog'i ochilgan ekan. Tasodifni qarang: odam umrida birinchi bor shaharda bo'lsa-yu, umrida ko'rmagan har xil hayvonlari bor hayvonotxonaga, buning ustiga, karusel va yana qiyshiq-qing'ir qilib ko'rsatadigan oynalar attraksioniga duch kelsa-ya.

IKKINCHI BOB

Kulgi xonasiga u uch marta kirdi. Miriqib kulib, o'zini to'xtatib olgach, yana qiyshiq va mo'jizakor oynalar oldiga borardi. Ana bashara, ana senga nayrang! Bir umr o'ylab, ming qil, yuz qil, baribir o'ylab topolmaysan!

Tanish choyxonachiga ko'z-quloq bo'lib turishni tayinlab aravasini qoldirgach, otasi uni bozor aylantirgani olib ketdi. Avvaliga otasining shu yerlik o'zbek oshnalari bilan salom-alik qilishdi. «Assalomu alaykum! Mana bu mening katta o'g'lim!» — tanishtirdi Bekboy uni. O'zbeklar o'rnidan turishib va qo'llarini ko'ksiga qo'yib, Sultonmurotga yuzlanishdi. «Dilkash xalq! — dedi otasi unga. — O'zbeklar sening katta-kichikligingga qarashmaydi, doim izzat qilishadi...»

Keyin savdo rastalariga, magazinlarga, eng muhimi, hayvonotxonaga borishdi. Odamlar orasida turtinib-surtinib yurib hamma qafaslarni va xonalarni ko'rib chiqishdi. Fil, ayiqlar, maymunlar — nimalar yo'q edi deysiz...

Hammasidan ko'ra Sultonmurot kulrang, maysalari sarg'ayib qolgan tepalikka o'xshagan bahaybat, goh u oyog'iga, goh bu oyog'iga oshrligini tashlab, xartumini o'ynatib turgan filni yodida saqlab qoldi. Voy-bo'! Odamlar to'planishib filga termilishib turar va har xil gaplarni aytishardi. U sichqondan qo'r qar emish. Jig'iga tegmaslik kerak emish, xudo ko'rsatmasin, zanjirlarini uzib yuborsa, butun shaharni mayda-mayda qilib yuborar emish. Hammasidan ham Sultonmurotga bir o'zbek cholning hikoyasi yoqib tushdi, u filni dunyoda eng aqlli hayvon, dedi. Xartumi bilan o'rmon ishlarida bahaybat yog'ochlarni ko'tarish bilan birga atrofda kattaroq kishilar bo'lmasa, yana o'sha xartumi bilan yosh bolaga ilon yoki boshqa biron-bir xavf tahdid qilguday bo'lsa, uni yerdan dast ko'tarib olarmish.

Bunaqangi hikoya otasiga ham ma'qul bo'ldi. U hayratlanib tilini takillatib qo'yar va har safar o'g'liga derdi: «Eshitdingmi? Dunyoda qanday mo'jizalar bor-a!».

Albatta, kulgi xonasi ham esida qoldi. U yerda o'z ustingdan xohlaganingcha kulaverasan...

Sultonmurot bir necha qator narigi partada o'tirgan Mirzagulga nazar solib oldi. «Seni o'sha kulgi xonasiga olib borsamidi! — deb o'yladi zavq bilan. — Darrov boshqacha bo'lib qolarding, sohibjamol! O'zingni o'sha oynada ko'rarding-u takabburligingdan nishon qolmasdi». Ammo u shu zahotiyog o'z fikrlaridan uyalib ketdi. Nega u hadeb qizga

osilaveradi, nima yomonlik qildi unga? Qiz desa qizday, sohibjamol, sinfdagi hamma qizlardan chiroyli. Nima qipti, bu gunohmi? «Yomon» olgan kunlari ham bor.

Muallima dars paytida bir kuni uning oynasini olib qo'ydi. Hali sevishishga erta dedi. Mirzagul uyalganidan qip-qizarib ketdi, yig'lab yuborishiga sal qoldi. U bo'lsa qizni o'ylab, nimagadir xafa bo'lib ketdi. Nima bo'пти, oyna, ehtimol bexosdan uning qo'liga tushib qolgandir...

Qiz tarafga yana bir qarab, Sultonmurotning unga rahmi kelib ketdi. Mirzagul ko'karib, sovukdan g'ujanak bo'lib o'tirar, ko'zlari namli yaltirardi, balki u yig'layotgandir. Axir uning otasi ham, akasi ham frontda... Sultonmurot bo'lsa uning haqida yomon o'ylarga borib yuribdi. Eh, tentak, chindan ham tentak.

Sinfdagilarning ko'pchiligi shamollaganlaridan yo'talishyapti. Balki u ham yo'talib ko'rar? U titrab, egilib-bukilib atayin yo'tala boshladi. Nima qipti, hamma yo'talyapti-ku, uning qayeri kam ulardan? Inkamol opa unga ma'noli qarab qo'ydi-da, yana tushuntira ketdi.

UCHINCHI BOB

Hayvonot bog'i va kulgi xonasidan chikib ular chayqov bozori tomon yo'l olishdi. U yerdan sovg'alar xarid qilishdi. Ajimurotga yangi, chiroyli, yaltiroq po'kak to'pponcha olishdi. Tomosha qilib to'ymaysan, xuddi rostakam naganning o'zi. Qizchalarga esa allaqanday rangli, yumshoq rezina koptoklar olishdi. Rezinkasiga turtib qo'ysang bo'ldi, koptok goh tepaga, goh pastga sapchiydi. Onasiga ro'mol oldilar va yana qand-qurs deganday...

Butun bozorni aylanib, hamma narsani ko'rdilaru, lekin karuselda uchmadilar, otasi ham, tusha qol, deb aytmedi. Bu kichkina bolalar o'yini, sen bo'lsang yigit bo'lib qolding, bir-ikki yildan keyin uylantirib qo'ysak ham bo'laveradi, deya hazillashdi. Karuselning oldida bir oz turishib, tomosha qilishdi. Neft' bazasiga borish kerak, stansiyaga ulgurish, bochkalarni to'lg'izib yo'lga tushish kerak. Kech esa kirib qoldi, deya uni otasi shoshiltirdi. Haqiqatan ular neft' bazasiga yetib kelishganida quyosh shahar ortiga og'ib qolgan edi. Shu yerdan, shahar cheti bo'ylab yurib, yo'ldagi choyxonadan palov yeb qorinlarini to'yg'azib olishgach, uyga qaytishdi.

Qosh qoraya boshlaganida shahar chetidagi bog'larni ortda qoldirib, yana o'sha o'zlari kunduzi shaharga kirib kelgan yo'lga chiqib olishdi. Yozgi chechaklar hidi anqigan oqshom iliq edi. Yo'l bo'yidagi ariqchada baqalar vaqillashar, otlar esa bir maromda qadam tashlardilar, axir to'la bochkalar bilan chopib bo'larmidi. Sultonmurotni astasekin uyqu elita boshladi. Charchadi. Charchamay bo'ladimi axir — bugun shunday ajoyib kun bo'ldiki, asti qo'yaver. Afsuski, aravada cho'zilishga joy yo'q. Uning bo'lsa juda uxlagisi kelardi. Otasining yelkasiga boshini qo'ydi-yu, qattiq uyquga ketdi. Har zamon-har zamon o'nqir-cho'nqir joylarda ko'zini ochardi-yu, yana yumardi. Har gal uxlashdan oldin, dunyoda otalar borligi qanday yaxshi, deb o'ylardi. Otasining baquvvat yelkasiga boshini qo'yib uxlash bexavotir va osoyishta edi. Arava hamon tarakdab, g'ijirlab borar, otlar tuyog'i dukurlar edi.

Qancha yo‘l bosganlarini Sultonmurot bilmay qoldi, bexosdan arava to‘xtadi. Atrof jimib qoldi. Otasi uni qo‘liga ko‘tarib oldi-yu, qayergadir olib bordi.

— Katta bo‘lib qolibdi-ya, ko‘tarib bo‘lmaydi. Og‘ir bo‘lib qopti, — shivirladi o‘g‘lini bag‘riga bosib. Keyin uni pichanlar ustiga yotqizib, ustini fufayka bilan o‘rarkan, dedi:
— Sen uxlayver, men otlarni chiqarib o‘tga qo‘yvoraman.

Sultonmurot shunday maza qilib uxlayotganidan ko‘zini ochmadi ham. Faqat yana, dunyoda otalarning bo‘lishi qanday yaxshi, deya o‘yladi.

Otasi oyog‘idan botinkasining bog‘ichini yechib olganida u yana uyg‘onib ketdi. Botinkalar kun bo‘yi oyog‘ini rosa qisgan edi. Otasi botinka oyog‘ini qisganini qayerdan bila qoldi ekan?

U qaytadan uyquta ketarkan, go‘yo o‘zini oqim bag‘riga tashlab suzib ketayotganday erkin his qildi. Nazarida shamol to‘lqinlari maysazor bo‘ylab yayrab, o‘ynokdab esayotganday tuyuddi. Go‘yo u o‘sha maysazor uzra yugurar, sho‘ng‘ir va o‘sha mavjlanayotgan maysazorga ko‘kdan unsizgina yulduzlar yog‘ilardi... U yer-bu yerga jimgina yonayotgan yulduzlar to‘kilar, ammo u yetib kelgunicha yulduzlar so‘nib qolardi. U tush ko‘rayotganini his qilardi. Goh-goh uyg‘onib tushovlangan otlar ko‘m-ko‘k o‘tlarni ildizi bilan sug‘urib kavshayotganini va bo‘shatib qo‘yilgan suvlig‘ini shildiratib g‘aram yonidan o‘tayotganini eshitar edi. Otasi yonida yotganini, dalada tunab qolishganini bilar va ko‘zini ochsa chindan ham osmondan to‘kilayotgan yulduzlarni ko‘rishiga ishonar edi.

Ammo ko‘zini ochgisi kelmas, maza qilib uxlayotgan edi. Tun yarmida sovuq tusha boshladi. Otasi sari surila-surila uning biqiniga kirib oldi va shunda otasi uyqu aralash uni quchoqlab mahkam bag‘riga bosdi. Ular yo‘l bo‘yida, yaydoq dalada, ochiq havoda uxlashardi. Bu senga uyda, yumshoq bolishda uxlash emas...

Keyin u tez-tez yulduzli tushini eslab yurdi...

Shundoqqina ikki qadam narida bir bedana tong otguncha tinmay sayrab turdi... Dunyodagi barcha bedanalar baxtli bo‘lsalar kerak.

TO‘RTINCHI BOB

— Sultonmurot, senga nima bo‘ldi? — Sultonmurot Inkamol opani shundoqqina partasi oldiga kelgandagina payqadi.

— O‘zim. Hech nima, — go‘yo o‘zini oqlamoqchiday o‘rnidan turdi.

Sinf hamon sovuq va jimjit edi. Bolalarning odatdagi yo‘tallari aralash hiring-hiring kulgani eshitildi.

— Goh behudadan behudaga yo‘taling tutadi, goh berilgan savolni eshitmay qolasan, — deb qo‘ydi norozilik bilan Inkamol opa sovukdan yelkalari qunishib. — Bor, yaxshisi, poxol olib kelib, pechkaga o‘t yoq.

Sultonmurot shuni kutib turgandek, darhol ishga kirishdi. Axir bunaqa topshiriq dars paytida doim bo'lavermaydi-da. Navbatchilar tanaffus payti poxol olib kelib pechkani yoqib qo'yishadi-yu, ammo dars vaqtida bunaqasi kamdan-kam bo'ladi.

U otilib tashqariga chikdi. Yuziga qor aralash shamol urildi. Eh, Seylon emasda bu yer! Hovli etagidagi poxol saqlanadigan ombor tomon chopib ketayotib, otdan tushayotgan kolxoz raisi Tinaliyevni ko'rib qoldi. U frontdan yarador bo'lib qaytgan. Yosh bo'lishiga qaramay, bir tomonga qiyshayib yuradi. Bir necha qovurg'asi yo'qmish. Parashyutdan tashlaydigan desantchilardan ekan. Urushgacha agronom bo'lgan, deyishadi. Ammo buni Sultonmurot negadir eslolmaydi. Urushdan oldin hamma narsa xuddi bir dunyoga o'xshaydi, shuning uchunmi, urushdan burungi hayotning bo'lganligiga ishonmaysan ham...

Sultonmurot bir quchoq poxol ko'tarib, eshikni oyog'i bilan turtib ochgancha sinfga kirib keldi. Bolalar birdan jonlanib, shivir-shivir boshlashdi.

— Tinchlaning, alahsimanglar! — ulardan talab qildi Inkamol opa. — Sultonmurot, shovqin ko'tarmay ishingni qilaver.

Pechka ichida poxol kuli uchqunlab turardi. O'sha uchqunga bir tutam poxol solib tutatdi. Yana qayta-qayta poxol tutamidan tashlarkan, pechka guvillab yonib ketdi. Poxol tashlab turishga ulgursang bo'lgani. Sinf xonasi jonlanib qoldi.

U orqasiga o'girilib qaragisi, kimgadir aftini bujmaytirib kuldirgisi va, ayniqsa, orqa partada o'tirgan Onatoyga musht o'qtalib po'pisa qilgisi kelardi. Ko'ryapsizmi, u sinfda eng kattasi, o'n besh yarim yoshda, urishqoq, buning ustiga, Mirzagulga tegajaklik ham qiladi. Qani endi, unga tilini ko'rsata olsa edi. Ma senga, ma, deb! Ammo bunday qilish mumkin emas, muallimalari qattiqqo'l. Ha, uni ortiqcha xafa qilishni xohlamaydi. Nimagadir keyingi paytlarda uning yolg'iz o'g'lidan xat yo'q. O'g'li komandir, artilleriyachi. U bilan juda faxrlanadi. Qandaydir xunuk voqea sodir bo'lib, eri urushdan oldin qaygadir g'oyib bo'lgan. Odamlar ham bu hakda hech narsa gapirishmaydi. Shuning uchun ham u ovulga kelib o'qituvchilik qilyaptida. O'g'li Jambuldagi pedagogika bilim yurtida o'qib yurib, o'sha yerdan frontga ketdi. Derazadan otliq pochta'lonni ko'rishi bilan Inkamol opa bolalardan birini to'g'ri darsdan chiqarib xatga choptirardi. U esa yugurib hovliga chiqadi-yu, agar xat bo'lsa o'zida yo'q shod qaytadi. Hatto kelgusi safar muallimaning xatini olib kelish uchun navbat belgilangan.

Xat kelgan kunlari bayram bo'lib ketadi! Inkamol opa turgan joyidayoq xatga tezgina ko'z yugurtirib chiqib, qog'ozdan bosh ko'targanida sinfda go'yo boshqa muallima paydo bo'lib qolganday bo'ladi. Tutam-tutam oq aralashgan sochlarini ro'moli ostiga chiroyli qilib bostirib olgan muallimaning shunday quvonchga to'lganida xotirjam turish, uning ko'zlarida yosh ko'ringanida yuraging achishmasligi mumkin emas.

— Hammalaringga salom, bolalar, kattakon salom! Og'alaring sog'-salomat ekan. Jang qilyapti, — deydi u suyunayotganini butun sinfdan yashirolmasdan qaltiroq ovozini bosib. Barcha unga talpinib, go'yo bu quvonchni baham ko'radiganday chehralariga tabassum

yoyiladi. Biroq bir ozginadan so'ng o'zi shunday deydi: — Endi, bolalar, mashg'ulotimizni davom ettiramiz.

Ana shundagina darsning eng ajoyib, eng yaxshi onlari boshlanadi: uning so'zlari ta'sir kuchini oshiradi, fikrlari fikr tug'diradi, u nima haqda gapirsa, tushuntirsa, isbot qilsa, hammasi o'quvchilarning aklu yuragiga jo bo'laveradi. Uning ilhomi jo'shadi-yu, butun sinf sehrlangandek jim o'tiradi...

Keyingi kunlarda unga nimadir tinchlik bermasdi, bezovta qilardi... Shuning uchun bo'lsa kerak, sinfga ilmiy mudir hamrohligida kolxoz raisi Tinaliyev kirib kelganda Inkamol opa astagina doska tomon chekindi. So'ng bolalarga yuzlanib istar-istamas dedi:

— O'rinlaringdan turinglar, bolalar. Sultonmurot, sen joyingga bor.

Sultonmurot pechka og'zini bekilib, darhol o'z joyiga yo'naldi. Kelganlar salomlashdilar.

— Salom! — deya javob berdi ularga butun sinf. O'rtaga sergaklantiruvchi jimlik cho'kdi. Hatto hech kim yo'talmadi ham.

— Biror voqea yuz berdimi? — deya so'radi Inkamol opa bo'g'ilib.

— Hech qanaqa hodisa yuz bergani yo'q, Inkamol opa, — deya uni darhol tinchlantirdi Tinaliyev. — Men boshqa ish yuzasidan kelgan edim. Bolalarga gapim bor. Dars paytida kirganim uchun kechiring, ijozat bergan edilar, — dedi u keksa ilmiy mudir tomonga ishora qilarkan.

— Ha, muhim gap bor, — deb ta'kidladi ilmiy mudir ham, — o'tiringlar, bolalar.

Sinf duv etib o'tirdi.

Tinaliyev yaqiningina — kuzda frontdan kelganidan beri raislik qilayotgan bo'lsada, uni hamma bilardi, o'zi ham bu yerda o'tirganlarning deyarli barchasini taniydi. Demak, tanishish uchun kelmagan. Bo'lma-sa, nega keladi? Yettinchi sinf o'quvchilari — ovulda ko'zga ko'rinib qolganlardan hisoblanadi. Ularning har qaysisi bilan qishloqning har bir joyida, uyda ham, idorada ham, yo'lda ham gaplashish mumkin. Ammo raisning birinchi marta bolalarga muhim gap aytish uchun ataylab maktabga kelishi edi. Nima demoqchi, qanaqa yangilik bor ekan? Yozning yo'rig'i boshqa, hammalari kolxozda ishlashardi, lekin hozir qanday gap bo'lishi mumkin?

— Gap bunday, — deb so'z boshladi Tinaliyev bolalarning sergak yuzlariga diqqat bilan boqib. U bir tomonga qiyshayib turgani ko'zga tashlanmasligi uchun qaddini tik tutishga harakat qilardi. — Maktabingiz sovuq, ammo sizlarga poxoldan boshqa narsa bilan yordam berishga ojimman. Poxol bo'lsa, hammaga ma'lumki, gur etib yonadi-yu, o'chadi. Ilgarilari maktabni isitishga beriladigan tappini avvaliga tog'dan orqalab tushib, keyin aravalarga ortib kelinardi. O'tgan yili bu ish bilan shug'ullanishga odam ham, vaqt ham bo'lmadi. Hamma frontda, bilasizlar. Men ikki tonna ko'mirni yashirib qo'yganman. Lekin bu ko'mir temirchilarga kerak. Ko'mirni ham, temirni ham chayqovchilardan sotib oldim. Payti kelib ular bilan hisoblasharmiz. Hozir esa sharoit og'ir. Utgan yili ikki yuz gektar yerga kuzgi bug'doy sepolmay qoldik, ulgurolmadik. Hech kim aybdor emas. Urush... Biroq hamma joyda, hamma kolxoz-sovxoizlar bizga o'xshab hosilni vaqtida yig'ishtirilmasa, urug'likni

sepib ulgurolmasa, ishni tugallay olmasa, unda dushmani qanday yengamiz? Ularni yengish uchun non ham, snaryad ham kerak. Shu tufayli oldingizga keldim, bolalar, oralaringizda ba'zi birovlaringizga o'qishni vaqtincha qo'ya turishlaringizga to'g'ri keladi. Hozir dam g'animat, ulovni bahorgi shudgorga tayyorlash kerak, ot-ulovlarimizga esa qarab qo'rqib ketasan — ramaqijon. Egar-jabduqni shay qilish kerak, ular ham ilma-teshik bo'lib ketgan, pluglarni, seyalkalarni remont qilish zarur, bari qor tagida yotibdi... Bu gaplarni aytayotganimning sababi nima dersizlar. Kuzda ekolmay qolgan yerlarimizga lalmi ekaylik deyman. Buni qanday bo'lmasin, frontcha qilib aytganda, so'zsiz bajarish kerak! Bu esa plandan tashqari, o'z kuchimiz bilan qo'shimcha ikki yuz gektar maydonni haydab, bahori g'alla ekish degan so'z. Ikki yuz gektar!! Tushunyapsizlarmi? Ammo qani o'sha kuch, kimga suyanaylik? Biz yana shunday qilishga qaror qildik: o'zimizda borlaridan, bahorgi mavsumga tayyorlanayotganlardan tashqari, qo'shimcha ravishda, ikki tishli plugchilar brigadasi tuzamiz. O'ylab, chamalab ko'rdik. Bu ishga xotin-qizlarni jo'natolmas ekanmiz. Orasi uzoq, Oqsoyda. Odam yo'q. Axiyri, siz o'quvchilardan yordam so'rashga qaror qildik...

Badjahl va tund, armiyadan kiyib kelgan kulrang shinelini yechmay, kulrang quloqchinda doim diydirab yuruvchi, tashvishdan yuzlari jiddiy, hali yosh bo'lishiga qaramay, bir tomonga qiyshayib qolgan, qovurg'alari mayib, qachon qaramang, yelkasiga dala sumkasini osib yuradigan rais Tinaliyev ana shunday dedi...

Rais Tinaliyev geografiya xaritasi osig'liq maktab doskasi yonida turgancha odamlaru butun zamin-u dengizlarni, jumladan, Seylon, Yava, Sumatra, Avstraliya singari yog' ichib, yalang'och yotadigan ajoyib-g'aroyib issiq o'lkalarni ham sig'dira olgan o'sha xarita oldida turib ana shu alfozda so'zlar edi.

Isitishdan ko'ra ivirsig'i ortiq poxol yoqib ilitilayotgan maktabda rais Tinaliyev ana shu alfozda so'zlar edi. U uzoq Oqsoydagi yuzlab gektar qo'shimcha yerlarga front uchun bahori g'alla ekish haqida gapirarkan, uning og'zidan hovur chiqib turardi...

Ha, rais Tinaliyev ana pgunday dedi...

Tashqarida hamon qor bo'ralab, tirqishlardan g'o'rillagancha sovuq yel kirar, simyog'ochga qantarib qo'yilgan, hurpaygan otning shamolda depsinib, boshini panaga olishga intilayotgani Sultonmurotga ko'rinib turar edi. Shamol otning yollarini to'zg'itar, ingichka dumini bir yonga itqitar edi. Ot bechora sovqotgan bo'lsa kerak...

Ha, bu yer Seylon emas...

— Yaxshi kunda men sizlarni o'qishdan qoldirarmidim, — dedi Tinaliyev. — Boshqa iloj yo'q. O'zlaring ham tushunishlaring kerak. Urushdan keyin, balki omon bo'lsam, men o'zim sizlarni maktabga boshlab kelib, o'qishni davom ettirishlaringni iltimos qilaman. Hozir esa ahvol mana shunaqa...

Keyin ilmiy mudir so'zladi. So'ngra yana Tinaliyev gapirdi. Oxiri sinf jonlanib ketib, bolalar qo'l ko'tarib: «Men boraman, ishlashga men ham boraman», — deb chug'urlasha

boshlaganlarida Tinaliyev darhol aniqlik kiritdi:

— Kimda-kim raisga, har qanday o'quvchi ham bo'laveradi, deb o'ylasa, adashadi. Kimki yomon o'qigan bo'lsa, u yomon ishlaydi. Ikkinchidan, yaxshi o'qiydigan o'quvchining keyinchalik yetib olishi oson bo'ladi. Mana sen, Sultonmurot, sinfdagilarning eng kattasiga o'xshaysan...

Bolalar shovqin ko'tarishdi:

— Ichimizda eng kattamiz Onatoy. Yaqinda o'n oltiga kiradi!

— Men hozir yoshini aytayotganim yo'q. Bo'y-basti haqida gapiryapman. Muhimi, bu ham emas. Mana sen, Sultonmurot, — deb yana unga yuzlandi rais. — Sen o'tgan yili polizda yer haydagansan-a, shundaymi?

— Ha, — deya javob qaytardi Sultonmurot o'rnidan turib. — Orol ko'chasida yer haydaganman.

— Ikki tishli, to'rt ot qo'shilgan plugdami?

— Ha, ikki tishli, to'rt ot qo'shilganida, lekin men faqat yordam berganman, xolos. U Sartboyning plugi edi, uni o'sha kunlari armiyaga olishgan, ekin payti esa o'tib ketayotgan edi. Chekish oqsoqol ko'maklashishni iltimos qildi.

— Bilaman. Shuning uchun ham gapni sendan boshladimda, — dedi rais.

Hamma yalt etib Sultonmurotga qaradi. U Mirzagulning ham tikilib turganini ko'rdi. Mirzagul unga boshqalarga qaraganda o'zgacha nigoh tashladi. Gap o'zi haqida borayotgandek, qizarib ketdi. Bundan Sultonmurot o'ng'aysizlanib, yuragi dukillab ura boshladi.

— Men ham polizda yer haydaganman! — deya o'tirgan joyidan baqirdi Onatoy.

— Men ham, — deya qo'shib qo'ydi Erkinbek. Yana ketma-ket ovozlari eshitildi.

Tinaliyev bolalarning jim bo'lishlarini iltimos qildi.

— Kelinglar, bolalar, navbat bilan gapiraylik. Bu yerda muhim ish haqida gap ketyapti. Gapni o'qishdan boshlaylik. Sening o'qishing qalay? — deya u yana Sultonmurotga yuzlandi.

— Unchalik emas, — dedi Sultonmurot.

— Nimasi unchalik emas?

— Unchalik yomon emas.

— Yaxshi ham emas, — deb qo'ydi shu paytgacha jim o'tirgan Inkamol opa. — Men unga sen bundan ko'ra yaxshiroq, yuz marta yaxshiroq o'qishing mumkin, deb doim aytaman. U juda qobiliyatli. Lekin hamma balo shundaki, kallasi bo'lmag'ur xayollar bilan band bo'laveradi.

— Ha-a, — dedi rais o'ychanlik bilan. — Men umid qilgan edimki... Ha, mayli. Sening otang frontda. Uning uchun osh-non yetkazib beradigan payting keldi. Sening o'qishing-chi, Onatoy?

— Meniki ham shunaqa, — dedi Onatoy xo'mrayib o'rnidan turarkan.

— Bundan chiqdi, bir-birlaringizdan qolishmas ekansiz-da, — dedi kulib Tinaliyev, bir oz indamay turgach, pgunday dedi: — Maktabga yana qaytganlaringda o'qishning qadr-qimmatini chuqurroq tushunib olasizlar. Bilaman, o'zimning boshimdan ham o'tgan. Sal narsa bo'lsa, bor-e, ishlayman, derdik. Faqat ishlash uchungina yashaydimi odam? Sen nima deb o'ylaysan, Onatoy?

Onatoy nimalardir deb izoh bermoqchi bo'ldi-yu, ammo keyin rostiga ko'chib qo'ya qoldi:
— Bilmadim.

— Men ham ko'p gapni bilmayman, — dedi Tinaliyev, — biroq urush bo'lmaganda o'qishga borardim, yana o'qigan bo'lardim...

Sinfdagi bolalar oshkora kulib yuborishdi. Kulgilida, kap-katta odam, kolxoz raisi bo'lsa-yu, yana o'qimoqchi emish. Ularning esa o'qish jonlariga tekkan.

— Buning nimasi kulgili? — deb jilmaydi Tinaliyev. — Ha, bolalar, men o'qishni juda xohlardim. Buni sizlar ham keyinroq tushunib olasizlar.

Shunda kimdir paytdan foydalanib uning so'zini bo'ldi:

— Rais amaki, samolyotdan sakraganingiz rostmi? Tinaliyev bosh irg'adi.

Bola tag'in savol tashladi:

— Voy-bo'y! Qo'rqmadingizmi? Men bir marta tamaki omborining tomidan pichan g'aramiga sakraganimda tizzalarim qaltirab ketgan!

— Ha, sakraganman. Faqat parashut bilan, — deb tushuntirdi Tinaliyev. — Bu gumbazga o'xshagan narsa, tepangda xuddi o'tovga o'xshab ochiladi...

— Bilamiz, bilamiz, — deya chuvillashdi bolalar.

— Ana shunday, biz desantchilar edik. Parashut bilan sakrash vazifamiz edi.

— Desant nima degani? — dedi yana kimdir.

— Desantmi? Bu ko'chma, jangovar otryad. Eng muhimi, maxsus topshiriqlarni amalga oshirish uchun yuboriladigan otryad. Bildilaringmi, tushunarlimi?

Sinfga jimlik cho'kdi.

— Desant bir nechta va bir necha ming odamlardan tuzilishi mumkin, — deya davom etdi Tinaliyev, — Muhimi, desant dushmanning orqa tomoniga o'tib oladi-da, mustaqil harakat qiladi. Agar uncha tushunmagan bo'lsalaring, boshqa biron kun gapirib berarman. Hozir esa ishga o'taylik. Onatoy, sen o'tir, nega tik turibsan? Sening otang ham frontda jang qilyapti.

— Meniki ham!

— Mening otam ham!

— Meniki ham! Tinaliyev qo'lini ko'tardi:

— Men hammasini bilaman, bolalar. Ertadan kechgacha faqat kolxoz ishi bilan ovora, deb o'ylamanglar. Hammasidan xabarim bor: kimlar armiyada-yu, kimlar gospitalda ekanligini bilaman. Sizlarni ham yaxshi bilaman. Shuning uchun sizlarning oldingizga keldim. Gap shu. Onatoy, otangga non yetkazib berishga sen ham borasan. Sen ham bir yilchami, ko'proqmi maktabni qo'ya turishingga to'g'ri keladi.

— Men ham! Men ham! Men ham! — deb ba'zi bolalar o'rinlaridan sapchib tura boshladilar. Negaki bunaqa paytda har kim ham botir bo'lib ketadi. Buyokda maktabga qatnashdan qutuladi. Ot haydaysan, xolos. Bundan ortiq yana nima kerak?

— Yo'q, shoshmanglar! — deb ularni tinchitdi rais. — Bunaqasi ketmaydi. Faqat plutda ishlaganlar boradi. Mana sen, Erkinbek. Sen ham yer haydaganmisan? Men bilaman, otang Moskva ostonasida halok bo'lgan. Ko'pgina otalarimiz, akalarimiz halok bo'lganlar. Sendan

ham iltimos, Erkinbek, bizga yordam ber. O‘qish o‘rniga sening ham yer haydashingga to‘g‘ri keladi. Boshqa choramiz yo‘q. Onangga bo‘lsa o‘zim tushuntiraman...

Keyin rais yana ikki kishining — Ergash bilan Qubbatqulning ismini aytdi. Ertaga ertalab hammalari otxonada, brigadirlarning ertalabki ish taqsimotida hozir bo‘lishlarini tayinladi.

Uyda, yarim kechasi yotishga hozirlanayotganlarida Sultonmurot kolxoz raisi maktabga kelganini onasiga gapirib berdi. Onasiga jimgina peshanasini silab, horg‘ingina quloq soldi. U kun bo‘yi kolxozda, fermada, kechqurun uyda bolalari bilan band edi. Tentak Ajimurot bo‘lsa, behuda quvonib o‘tiribdi:

— Voy-bo‘y! o‘qimas ekansan! Ot qo‘shib plugda yer haydar ekansan! Men ham yer haydayman!

— Darsingni tayyorladingmi? — so‘radi onasi.

— Ha, tayyorladim, — dedi Ajimurot.

— Bor, yotib uxla, uningni chiqarma! Tushundingmi?

Katta o‘g‘liga esa hech nima demadi.

Qizlarini o‘rinlariga yotqizib, chiroqni o‘chirish oldidan ma‘yus tortib, o‘ylanib qoldi. Aftidan, Sultonmurotni uxlab yotibdi deb o‘yladi shekilli, boshini qo‘llari orasiga olib yig‘lab yubordi. Nozik yelkalari titrab, unsiz uzoq yig‘ladi. Sultonmurotning yuragi ezilib ketdi, o‘rnidan turib, qandaydir yaxshi gaplar aytib onasini yupatgisi, ovutgisi keldi. Biroq bezovta qilishga jur‘at etmadi, mayli, yuragini bo‘shatib olsun. Axir, onasi hozir otasi haqida ham (u yoqda, urushda qanday ahvolda ekan, deb), bolalari haqida (ular to‘rtta), uyi va har xil boshqa ehtiyojlar haqida o‘ylayapti-da.

Ayol kishi ayolligiga boradi. O‘qtin-o‘qtin yig‘laydi. Rais Tinaliyev sinfdan chiqib ketganidan so‘ng muallima Inkamol opaning ham ko‘ngli juda buzilib ketdi, hatto o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Allaqachon tanaffusga qo‘ng‘iroq chalingan bo‘lsa ham o‘rnidan qo‘zg‘almadi. Sinf ham uni kutib o‘tirar, hech kim tashqariga chiqmas, hamma muallimaning o‘rnidan turib, eshik tomon yurishini kutar edi. Eshik oldiga kelganida Inkamol opa yig‘lab yubordi. O‘zini tutishga harchand urinmasin, bo‘lmadi. Ko‘zida yosh bilan chiqib ketdi. U unutib qoldirgan xaritani o‘qituvchilar xonasiga olib kirgan Mirzagul ham ko‘zlari yoshga to‘lib qaytib keldi. Ha, ayollar ayolligiga boradi. Hammaga achinishadi ular, shuning uchun ko‘p yig‘lashadi. Nima qilibdi, bir yil o‘tar, ikki yil o‘tar, urush tugashi bilan yana o‘qishni davom ettirishar...

Sultonmurot mana shular haqida o‘ylar ekan, tashqarida uchqunlab yog‘ayotgan qor shiviriga quloq tutganicha uxlab qoldi.

Ertasiga ham yana o‘shanday uchqunlab qor yog‘di. Izg‘irin muzlagan yer ustini yalardi. Bulutlar karvoni osmonda vazmin suzardi. Otxonaga yetib borguncha Sultonmurot sovqotib ketdi.

Rais Tinaliyevning rejalari Sultonmurotning kecha o‘ylaganidan mushkulroq chiqib qoldi.

Avvaliga rais va ozg'in, sariq soqol, hammalariga to'rttadan no'xta tutqazgan brigadir Chekish chol bilan eski otxona oldidagi qo'raga borishdi. Qor bosgan qo'rada aravaga qo'shiladigan otlar boshlarini egib, quruq oxurlardagi nishxo'rd xashakni chimdishaardi. Ma'lumki, yozda otlar semiz bo'ladi, qishda esa et tashlaydi. Lekin bularning faqat terisi-yu ustuxoni qolgan, xolos. Ularni ishlatib-ishlatib, qish kelishi bilan og'ilxonaga qamab qo'yishibdi. Boqadigan, parvarish qiladigan odam yo'q. Yem-xashak tanqis. Borini ham bahorgi yer haydashga saqlab qo'yishgandi.

Bolalar sarosimada to'xtab qolishdi.

— Nega qaqqayib qoldilaring? — deb baqirdi Chekish chol. — Bizga Manas tulporlarini qo'sh qo'llab tutqazishadi, deb o'ylaganmidinglar? Bir chekkadan tanlayveringlar, adashmaysizlar. Yana yigirma kundan keyin bu qirchang'ilarning har bittasi buqaday irg'ishlaydigan bo'lib qoladi. Bularning zuvalasi pishiq — faqat yem beru parvarish qil! Boshqasi bilan ishlaring bo'lmasin!

— Olinglar, bolalar, hamma kerakli narsalar bilan ta'minlaymiz, — deb qo'shib qo'ydi rais. — Boshlanglar. Har biringga to'rttadan. Duch kelganini olaveringlar.

Shunda kutilmagan hol yuz berdi. Bu tashlandiq qo'radagi qarovsiz oriq otlar orasida otasining Chopdor va Chontor degan otlari ham yurar edi. Sultonmurot avval Chopdorni, keyin Chontorni tanib qoldi. Ularning kallador, hurpaygan, turtsang yiqilgudekligini ko'rib Sultonmurot ham quvonib, ham qo'rqib ketdi. Otasi bilan shaharga tushganlarini esladi. Qanday otlar edi-ya, bular otasining qo'lida ekanligida! Tetik, bardam, kuchli. Endi bo'lsa... — Ana, qarang, ana, otamning otlari! — deb qichqirdi Sultonmurot raisga va brigadirga qarab. — Mana, Chopdor, mana, Chontor!

— To'g'ri! Haq gap! Ular Bekboyning otlari! — deya tasdiqladi Chekish chol.

— Unday bo'lsa, ola qol shularni! Otangning otlarini ola qol, — deb buyurdi rais.

Sultonmurot otasining otlari yoniga yana ikkita otni — Okdum va Burulni qo'shib oldi. Keyin qolganlar ham o'zlariga ot tanladilar.

1943 yilning qishida ularni maktabdan ajratgan muhim ish ana shunday boshlandi...

Ish o'ylagandan ham ko'proq edi. Har kuni otxonaga borishlari, keksa Parpi va uning oqsoq bosqonchisiga ishlashlariga zarur bo'lgan pluglarni remont qilishga yordam berish uchun temirchilik ustaxonasiga chopishlari kerak edi. Avvallari keraksiz deb tashlab yuborilgan hamma temir-tersaklarni endi yig'ishga va tozalashga to'g'ri keldi. Hatto o'z vazifasini o'tab, o'tmaslashib qolgan plug tishlarini ham qaytadan ishga moslashtirdilar. Temirchilar bolg'a bilan urib ularning damini o'tkirlashtirar, olov va suvda obdan toblar edilar. Plut tishlarining hammasiniyam charxlab bo'lmasdi, biroq agar uddasidan chiqqudek bo'lsa, Parpining boshi ko'kka yetardi. Shunday paytlari u bosqonchisini ustaxona tomiga chiqarib, otxonadagi bolalarni chaqirtirardi.

— Hoy, qo'shchilar! — chaqirardi ularni tomidan turib oqsoq bosqonchi. — Bu yoqqa chopinglar, usta aka chaqiryapti!

Bolalar chopib kelishar va shunda Parpi chol hali issiq, salmoqli, qoramtir-ko‘kish tusdagi, yangitdan o‘tkirlangan plug tishini tokchadan olardi.

— Ma, ol, — uzatardi u o‘tkirlangan yangi tishni olish navbati kelgan odamga, — ol, qo‘lingga ushlab ko‘r. Yaxshilab qara. Bor, plugingga solib boq. Eh! Chiroyliligini-chi! Xuddi uzukka ko‘z qo‘ygandek! Shudgor qilayotganingdami, xuddi Toshkent oynasiday yaraqlab turadi. Bunaqa tishlarda yuzlaringni tomosha qilib yurasizlar! Balki birorta qizga ko‘zgu o‘rnida sovg‘a qilarsizlar-a? Zap sovg‘a bo‘ladi-da! Endi u yoqqa, tokchangga qo‘yib qo‘y. Keyin dalaga olib borarsan. Ana shunday, keyingi safar boshqa biringga yasab beraman. Hammaga yasab beraman. Hech kim tishsiz qolmaydi. Hammaga uch juftdan yasab berarman. Faqat o‘zimga yangi tish qilolmayman. Sizlarga tishlarni yetkazib beramiz. Hali sizlar, bolalar, bizlarni dalada ko‘p eslaysizlar. Axir plugning eng muhim qismi tishida! Boshqa barcha qismlar azbaroyi tish deb qurilgan. Tish kuchli bo‘lsa, shudgor ham kuchli bo‘ladi. Tish o‘tmas bo‘lsa, qo‘shi ham ojiz. Mana shunaqa...

Ajoyib odam edi Parpi chol. Umr bo‘yi temirchilik qilardi. Maqtanishni yaxshi ko‘rardi-yu, ammo o‘z ishiga puxta edi.

Egar-jabduq ustaxonasiga ham tez-tez borib turishga to‘rri kelardi. Chekish brigadir abzallarni hozirlashga yordam qilinglar, deb tayinlar edi. Abzalsiz hech qayoqqa borolmaysizlar. Pluglar ham, otlar ham bor deylik, ammo abzalsiz hammasi uch pul. Bu to‘g‘ri gap. Shunga ko‘ra ularning har biri jon kuydirib, qo‘llaridan kelgancha o‘z otlariga egar-jabduqlarni tezroq tayyorlash uchun sarrochlarga yordamlashardi.

Eng muhim, eng asosiy ish — otlarni boqib parvarish qilishdan iborat edi. Kun bo‘yi, ertalabdan kechgacha otxonada bo‘lib, ishdan kech qaytishardi. Uyga faqat tunda, otlarning so‘nggi ulushini, xashakni berib bo‘lgach, qaytishardi. Juda shoshilish kerak edi!

Vaqt juda ziq edi. Yanvarning oxiri tugab borardi. Ulovni ishga solishga o‘ttiz, nari borsa, o‘ttiz besh kuncha qolgan edi. Otlarni oyoqqa turg‘azishga va shudgor boshlanguncha kuchlarini tiklashga ulgurishadimi-yo‘qmi — buyog‘i endi ularga, plugchilarning o‘zlariga bog‘liq edi. Ot uxlayapti, uning oldidagi oxurda doim, kechasi-yu kunduzi yem turishi shart, jonivor shunday mavjudot...

Tinaliyevning hisobi bo‘yicha fevralning oxiri, yerlardan qor ketishi bilan pluglar Oqsoy uchastkasiga chiqishi kerak edi. Qachonlardir, uzoq vaqtlar muqaddam, odamlar Oqsoyni shudgorlab urug‘ sochishgan. Ammo keyin negadir Oqsoy dalalari tashlab ketilgan. Balki Oqsoy uzoq va kimsasiz bo‘lganidandir, balki u yerlar sug‘oriladigan maydon bo‘lmagani, buning ustiga, tepaliklarda joylashgani uchundir. Brigadir Chekishning ta‘kidlashicha, otasi unga shunday degan ekan: Oqsoyga chiqqan qo‘shchi yo hech vaqosiz qolib xonavayron bo‘ladi, yo xirmonni tashib ololmay odam yollaydi. Birinchi sharti — vaqtida ekib olish. Ikkinchisi— Oqsoydagi hosil yomg‘irga ham bog‘liq. Chekish chol ana shunday der edi.

«Dehqon doim tavakkal qiladi, ammo doim umidvor bo‘ladi», — der edi Tinaliyev. Tinaliyev shunga suyanar va baxtimizga yomg‘ir yog‘ib, Oqsoyning g‘alla xirmoni uyilib qoladi, degan

umid bilan qo'shchilarni g'ayratlantirar edi...

Kunlar o'tdi. Hafta oxiriga borib otlar sezilarli darajada jonlanib, bir oz etga kirib, ishlar yurishib qoldi. Kunlar iliy boshladi. Qish go'yo xayol surib, ketishga chog'lanib qolganday edi. Shuning uchun ham kunduz kunlari otlarni oftobga, tashqaridagi oxurlarga olib chiqishar edi. Oftobda otlar yaxshiroq qavzanib, tezroq et olishardi. Yigirma bosh Oqsoy desanti devor oldidagi uzun oxurlar bo'ylab to'rtta-to'rttadan saf tortishgandi. Raisning ertalabki tekshiruvida bolalar o'z otlarining yonida shay turishardi. Ularga Oqsoy desanti deb Tinaliyev nom qo'ygandi. Shu-shu brigadirlar ham, aravakashlar-u otboqarlar ham ularni aynan desantchi, desantchilar, Oqsoy otlari, Oqsoy pichani, Oqsoy pluglari deb atay boshlashdi. Odamlar otxona yonidan o'tayotib, desantning ishi qanday ketayotganini bilmoq uchun ko'z tashlashardi. Oqsoy desantchilari haqida butun ovul gapirardi. Tinaliyev Bekboyning o'g'li Sultonmurotni desantchilarga komandir qilib tayinlaganini ham hamma bilardi. Bu ishga, albatta, Onatoy qarshi chiqdi. U darhol bahslasha boshladi:

— Nega endi Sultonmurot komandir bo'larkan? Balki biz uni xohlamasmiz!

Bu so'zlar Sultonmurotni yondirib yubordi. Chidab turolmay dedi:

— Men umuman komandir bo'lishni xoxlamayman! Xohlasang o'zing bo'laver!

Bolalardan Erkinbek va Qubbatqul ham bahsga aralashishdi:

— Onatoy, unga hasad qilyapsan! Senga nima? Aytdilarmi, bas, komandir Sultonmurot!

Ergash esa Onatoyning yonini oldi:

— Onatoyning qayeri kam? U baquvvat! Faqat bo'yi Sultonmurotnikidan sal pastroq. Maktabda sinfkomni saylagandik, kelinglar, komandirni ham tanlab saylaymiz... Qachon qarasang — Sultonmurot, Sultonmurot!

Tinaliyev ularni jimgina tinglab turdi, keyin esa jilmayib qo'ydi va boshini chayqab, birdan jiddiylashib jahli chiqdi.

— Qani jim bo'linglar-chi! — buyurdi u. — Bu yoqqa kelinglar. Saflaninglar. Mana bunday, bir qator bo'lib. Desantmisizlar, desantday bo'linglar. Endi esa menga quloq solinglar.

Eslaringda bo'lsin, komandir saylanmaydi. Komandir yuqoridagi boshliq tomonidan tayinlanadi.

— O'sha boshliqning o'zini kim tayinlaydi? — so'zini bo'ldi Ergash.

— Yana ham yuqoriroqdagi boshliq! Oraga jimlik cho'kdi.

— Gap bunday, bolalar, — davom etdi rais. — Urush ketyapti, harbiychasiga yashashimizga to'g'ri keladi. Bilib qo'yinglar, men sizlar uchun boshim bilan javob beraman. Ikkitangizning otangiz halok bo'lgan, uchtangizning otalaringiz frontda. Men sizlar uchun tiriklar va o'liklar oldida ham javobgarman. Ammo men bu javobgarlikni sizlarga ishonganim uchun olyapman. Sizlar pluglaringiz bilan olisga, Oqsoyga borish oldida turibsizlar. Xuddi alohida topshiriq olgan parashutchilar desantiday ancha kunu tunni cho'lda yolg'iz o'tkazasiz. Agar salga bahslashadigan va baqirishadigan bo'lsangiz, qanday yashaysiz va qanday ishlaysiz u yerda?

Rais Tinaliyev otxonada, bolalar safi oldida turib ana shu taxlitda soʻzlar edi. Sobiq parachutchi hamon oʻsha kulrang armiya shineli, oʻsha kulrang harbiy quloqchinida, choʻzinchoq yuzlari tashvishli, hali yosh boʻlishiga qaramay, bir tomonga mayishib qolgan, qovurgʻalari mayib, qachon qarasang, dala sumkasini osib yuradigan rais Tinaliyev bolalar qarshisida tik turar edi.

Bekboyning oʻgʻlini komandir qilib tayinlagan rais Tinaliyev Oqsoy desanti safi oldida turib ana shu alfozda soʻzlar edi.

— Hammasi uchun sen javob berasan, — dedi u, — odamlar uchun ham, pluglar uchun ham, ot-ulovlaru egar-jabduqlar uchun ham. Oqsoydagi shudgorga ham sen javob berasan. Javob bermoq — bu topshiriqni bajarmoq degani. Eplolmasang komandir qilib boshqa odamni tayinlayman. Hozircha esa hech qanaqa va hech kimning eʼtirozini inobatga olmayman.

Rais Tinaliyev oʻsha kuni otxonada kichkinagina Oqsoy desanti safi oddida turib, ana shu taxlitda soʻzlardi.

Qoʻshchilar ixlos va hayrat bilan uning yuziga tikilib, har qanday buyrugʻini bajarishga tayyor turishardi. U bolalarning oldida xuddi Manasga oʻxshab haybatli, paxmoq soch, sovutda, ular boʻlsa uning yonida sodiq botirlariday turishardi. Goʻyo qoʻllarida qalqon va bellarida qilichlari borday edi. Manas oʻz umidi, ishlarini ishonib topshirib qoʻygan oʻsha azamatlarning oʻzlari kimlar edi?

Birinchi pahlavon — Sultonmurot. Mayli, eng kattasi boʻlmasa ham u oʻn beshga kirgan edi. Ammo aqli va botirligi uchun komandir qilib u — Bekboyning oʻgʻli Sultonmurot tayinlangan edi. Uning otasi esa otalarning ichida eng ziyodi, bu payt uzoq safarda — katta urushda edi. U oʻzining jangovar oti — Chopdorni Sultonmurotga qoldirdi. Sultonmurotning kichik ukasi Ajimurot ham bor. Ukasini u goho jigʻiga tekkaniga qaramay yaxshi koʻrar edi. Sultonmurot yana goʻzal Mirzagul bekachni ham pinhona sevardi. Mirzagul bekachning tabassumidan goʻzalroq tabassum yoʻq. Turkiston teragiday sarvqomat, yuzlari oppoq qorday, koʻzlari esa zulmat togʻ bagʻridagi gulxanday...

Ikkinchisi — mashhur pahlavon Onatoy botir edi. U otryadda eng kattasi, qariyb oʻn olti yoshga toʻlib qolgandi. Boʻyi oz-moz pastroq boʻlsa ham, u hech kimdan hech nimada qolishmasdi. Ammo kuch bellashganda hammadan oʻtardi. Uning oti, botirning oʻz nomiga oʻxshash Oqtoʻriq kamon oʻqiday sapchirdi! Onatoyning otasi ham ulkan urushda, uzoq safarda edi. Onatoy ham oʻsha oy yuzli Mirzagul bekachni pinhona sevar edi. Sohibjamolning boʻsasiga intiq edi...

Uchinchi pahlavon — yoqimtoy yigitcha Erkinbek botir edi. Oilaning toʻngʻichi. Ajoyib va sadoqatli doʻst. Goho u maʼyus uh tortib, pinhona yigʻlab ham olardi. Uning otasi oʻsha uzoq safarda Moskvani himoya qila turib, qahramonlarcha halok boʻlgan edi. Erkinbekning jangovar oti botirga mos Oqpaypoq — yaʼni, oq paypoqli tulpor, deb atalardi.

Toʻrtinchi pahlavon — Ergash botir edi. U ham doʻst, ham oʻrtoq. Oʻn besh yoshlarda. Oʻz

fikrlarini aytishni yaxshi ko‘rar, bahslarga aralashaverardi. Ammo ishda esa unga ishonsa bo‘lardi. Uning otasi ham jang-u jadalda — uzoq safarda. Ergashning oti o‘ziga uyqash Oltintuyoq deb atalardi.

Bu botirlarning ichida beshinchisi — Qubbatqul botir edi! U ham o‘n besh yoshlarda, u ham oila to‘ng‘ichi. Qubbatqulning otasi o‘sha uzoq safarda, o‘sha jang-u jadalda, Belorussiya o‘rmonlarida qahramonlarcha halok bo‘lgan. Qubbatqul toliqishni bilmaydigan mehnatkash. Qar qanday botir kabi o‘z oti Ipakyol tulporini juda sevadi.

Tinaliyevning qarshisida mana shunday botirlar turishardi. Ularning ortida ingichka bo‘yinlari va boshlari orqasida, ot bog‘lanadigan joydagi uzun oxur yonida ikki tishli pluglarga qo‘shilgan, Oqsoy tomon jo‘nashi kerak bo‘lgan yigirmata ot turardi...

Qor ketishi bilan ular Oqsoyga, Oqsoyga shudgor qilishga ketishadi!

Oqsoyga, yer selgishi bilan Oqsoyga qo‘sh haydashga borishadi!

Ammo atrofda qor ketganicha yo‘q, hali u yerni qoplab yotardi. Biroq kunlar yaqinlashib, hamma narsa o‘sha kunga shay turardi...

BESHINCHI BOB

Nihoyat, o‘sha kunlar yaqinlashmoqda edi... Oqsoy uchun ajratilgan otlarni hamma har xil — kimdir desantchi, kimdir Oqsoy otlari deb atar, ammo muhimi shundaki, ikki haftalardan keyin ular otxonadagi boshqa otlar ichida ko‘zga tashlanib turadigan bo‘lib qolishdi. To‘yg‘azilgan, sutorilgan, yuvib-tarab qo‘yilgan Oqsoy otlari kuchga to‘lib borayotgan muskullari, tetik ko‘rinishlari va ziyrak chimirilgan quloqlari bilan ko‘zni quvontirib, desant oxuri bo‘ylab bir qator tizilishib turishardi. Ularning har biri yana o‘ziga xos qiliqlarini qilib, oldingi alfozga qaytgan edilar. Unutib qo‘yilgan odatlari yana paydo bo‘lgandi. Otlar o‘zlarining yangi xo‘jayinlariga ko‘nikib qolishgan edi. Tanish ovoz va qadam tovushlarini eshitishlari bilan o‘tirilib qarab, erkalanganicha, sekin, go‘yo pichirlashayotganday kishnab qo‘yishar, yumshoq lablarini qimtib suykalanishardi. Bolalar ham otlarning ostiga sho‘ng‘ib, xo‘jayinlardek qichqirishga o‘rganib qolishdi: «Qani, oyog‘ingni tort! To‘xta deyman, kallavaram, hozir! Qarang-a, turtkilab erkalik ham qiladi makkor! Ovora bo‘lasan, mening qo‘limga qaragan birgina sen emassan».

Dastlabki kunlarda otlar suvloqqa suv ichgani bazo‘r borishardi, keyinchalik, ayniqsa, daryodan qaytishda o‘ynoqlaydigan bo‘lib qolishdi. Ularning har biri o‘zining jangovar otini — Sultonmurot Chop-dorni, Onatoy Oqto‘riqni, Erkinbek Oqpaypoqni, Ergash Oltintuyoqni va Qubbatqul Ipakyolni minib olishardi-da, ularning hammasini birgalikda daryoga haydashardi.

Qishda suvloq qulay bo‘lishi, unga tushar joy tiyg‘anoq bo‘lmasligi kerak. Bir nechta ot suv ichishga tushishi ayniqsa zarur. Shuning uchun oldindan qirg‘oqlarda otning tuyog‘ini tutib

turadigan joy hozirlash, xavotirli yerlarga poxol to'shab qo'yish lozim. Qattiq sovuqlarda esa muzni teshishga to'g'ri kelardi. Sultonmurot bu yerda ham kim qaysi kun suvloqni hozirlashi haqida qat'iy navbatchilik o'rnatdi.

Otlar bolalar nazorati ostida muzday oqar suvdan shoshilmay, turtkilashmay ichishardi. Suv bu yerda muz ostidan chiqib sayoz toshloq bo'ylab oqar va yana muz ostiga sizib ketardi. Muz ostida ham qulqillab, jildirab, ovoz chiqarib oqardi.

Otlar go'yo quloq tutgandek suv ichishdan to'xtar, yilt etgan quyosh nurlarida o'zlarini toblab olgach, yana suvni simirishardi. Suv ichib bo'lishgach, shoshilmay yo'lga chiqishar, otxonaga qaytishda o'ynoqlashib, pishqirib, kishnab, dumlarini silkitib dam oldinga, dam orqaga sapchishar, oyoqlarini ko'tarib tik turishardi. Bolalar atrofda ot chopib, gijinglatib shovqin solishardi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay odamlar desant otlarini zavqlanib tomosha qiladigan bo'lib qolishdi. Go'yo ular o'sha eski qirchang'i otlar emas, qaytadan tug'ilganday edi. Keksalar nazar-e'tibordan qoldirmay bu xususda shunday xulosa chiqarishardi: agar u mehnatkash, mehribon odamning qo'lida bo'lsa, do'nyoda otdan vafodori bo'lmaydi. Sen unga zig'ircha yaxshilik qilsang, yuz hissa qilib qaytaradi. So'ngra keksalar qadimda alomat bedovlar bo'lganligi haqidagi rivoyatlarni so'zlay ketishadi.

Faqat rais Tinaliyevdan maqto'v olish qiyin. U talabchan, tikandek qattiq nigohi bilan otlarni, hammadan avval desantchilarning o'zlarini bir-bir ko'zdan kechirib chiqadi. Hamma narsani ipidan ignasigacha tekshirar, pluglar qalay, abzallar tayyormi der, hatto kimning shimining tizzasi yirtiq bo'lsa — nega yirtiq, onasining qo'li tegmasa, o'zi qo'lga igna olib tikib olishi shunchalik qiyinmi, deya ijkilab so'rardi. Otning jabduqlari-chi, qachon axir tayyor bo'ladi jabduqlar, deb qistovga olib qolardi. Oqsoyga otxonani ko'chirib ketolmaysan, tunlari cho'lga sovuq tushadi. U vaqt ziqligini, Oqsoyda hozir bugungi ishni ertaga qo'yib bo'lmasligini tinmay ta'kidlardi. Goho baqirib so'kishga qadar borib yetar, aravakashlar plugli otga, ayniqsa, Oqsoyga ketadigan otlarga saqlanayotgan bedani o'z vaqtida yetkazib berolmaganlari uchun Chekish brigadirga qattiq dashnom berardi.

Bo'layotgan voqealardan u qadar sevinmayotgan kishilar ham bor: bular — onalar. Hali unisi, hali bunisi kelib, bu qanday ko'rgilik, umrimiz bino bo'lib quloq eshitmagan desantni o'ylab topishibdi, erlarimizning urushdaligi yetmasmidi, endi o'g'illarimiz ham askar bo'lishi qolganmidi, na uyga yordami tegadi ularning, na diydoriga to'yib gaplashib o'tirish bor. Kunu tun otxonadan beri kelishmaydi... Xullas, gapirsa gap ko'p.

Sultonmurotga hammadan ko'ra og'ir, axir komandir-da. Hammasi uchun u javob berishi kerak. Hammasidan ham onalar oldida javob berish og'irroq. Onasi qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urdi, horg'in: «Faqat otang urushdan tirik qaytsa bo'lgani, nima qilsa o'zi qiladi. To'yib ketdim. Men ko'z yumgach, esing joyiga tushadi-yu, ammo unda kech bo'ladi...» — derdi. Onasiga juda qiyinligini Sultonmurot biladi, lekin qo'lidan nimayam kelardi, uning o'rnida har qanday odam ham hech narsa qilolmasdi. Desantchilarning har birining qo'lida

to‘rttadan ot va otdan tashqari qanchadan qancha yumushlari bor. Yem ber, sug‘or, tagini tozala, yem-xashak tayyorla, yana yem ber, go‘ngini tozalab tashqariga olib chiq va qayta shu ishlarni takrorlayverish... Otlarning yag‘rinlarini yuvish, yaralarini davolashning o‘zi shunday mashaqqatki... Uchastka vetfel’dsherining har xil surtiladigan quyuq-suyuq dorilarni qoldirib ketganini aytmasa, umuman, o‘zlarining davolashlariga to‘g‘ri keladi. Har kuni dorilarni surtib turish kerak, bo‘lmasa davolab bo‘larmidi. Boqishga-ku, amallaysan-a, ammo yaraning ustiga bo‘yinchasi osib qo‘yolmaysan-ku. Shu-da. Birorta sog‘ot yo‘q, hammasining yag‘rinlarini yara-chaqa bosib ketgan, oyoqlari shikastlangan edi. Uni davolayotganingni hayvon tushunmaydi, qani tinch tursa-chi!

Otlarning tanasi et olib, oyoqqa turib olganlaridan keyin sovitish kerak bo‘lardi. Har bir otni har kuni bir yarim soatga yo‘rttirish kerak, aks holda, brigadir Chekish aytganiday, «plugga qo‘shganda terlaydi-yu, surobi to‘g‘ri bo‘ladi-qoladi».

Ittifoqo, ko‘ngilsiz hodisa yuz berdi...

Bir kuni beshovlon o‘z «jangovar» tulporlarini sovitib kelishga otlanishdi. Sultonmurot Chopdorida, Onatoy Oqto‘rig‘ida, Erkinbek Oqpaypog‘ida, Ergash Oltintuyog‘ida, Qubbatqul Ipakyolida edilar. Avvaliga odat bo‘yicha otlarni yo‘rttirib borishdi. Otxona atrofidan, keyin ko‘chadan yurib qishloq chetiga chiqishdi va qor qoplangan dala bo‘ylab yo‘rtib ketishdi. Quyosh charaqlab, qorlar jimirlar, jilvakor osmon bahor nurlariga yo‘g‘rilgandi. Tog‘lar oppoq, shunday sokin va yorug‘ediky, agar o‘sha oq cho‘qqida pashsha uchsa eshitiladiganday va ko‘rinadiganday tuyulardi. Qish davrini surib bo‘lgan, quyosh asta-sekin qizdira boshlardi. Otlar shitob bilan chopib borishardi. Ular ham uvushgan oyokdarining chigilini yozishga va yeldek uchishga juda zoriqqan edilar. Bolalar jilovni bo‘shatishib tezroq, tobora tezroq ot surgilari kelardi. Shundoq choptirishni istardilarki... Oldinda Sultonmurot bormoqda edi. Onatoy orqadan uni shoshirardi: — Bo‘l tezroq, buncha imillamasang!

Biroq Sultonmurot komandir sifatida tezlikni oshirishga unchalik ro‘yxush bermadi. Sovitish — bu poygada chopish emas senga. Bu — otlarni mashq qildirish, keyin plutga qo‘shgan paytda tortishga qiynalmasligi uchun qilinadigan tadbir. Desant bo‘lgan bolalar shunday borishardi. Daladan burilib endi ortga qaytmoqchi edilar, tepalik ortidan qiy-chuv eshitildi. Bolalar maktabdan qaytmoqda edilar. Desantchilarni ko‘rishlari bilan baqirib-chaqirib, qo‘llarini silkita boshlashdi. Ularga javoban desantchilar ham qichqirishar, qo‘l silkishardi. Sinfdoshlari, yettinchidagilar hamda boshqa sinf o‘quvchilari darsdan qaytmoqda edilar. To‘da suron ko‘tarib kelishardi. To‘da ichida Sultonmurot Mirzagulni darrov tanidi. Uni qanday topolganini o‘ziyam bilmaydi-yu, bir parcha shol ro‘mol ostidagi yilt etib ko‘ringan yuzi, nozik jussasi, raftori va ovozi bu Mirzagul ekanligini his qildi. Qiz ham uni tanidi shekilli — boshqalarga qo‘shilishib nimalarnidir qichqirib, sumkasini o‘ynatib, tepalikdan tushib kela boshladi. Hatto «Sultonmurot!» — deb chaqirganday ham bo‘ldi. Qo‘llarini yozib unga tomon yugurib intilayotgani xotirini yarq etib, jonlantirib yubordi hamda shu kunlarda qizni o‘ylab yurganini va sog‘inganini shu lahzada sezdi. Shunda qandaydir bir to‘lqin uni o‘z og‘ushiga olib, allaqayoqlarga girdikapalak qilib uchirib ketayotganday his

qildi...

Nimadir bo'ldi-yu, shu zahoti ular beixtiyor to'dalashib o'sha tomonga, sinfdoshlari tushib kelayotgan tepalik sari yo'rtib ketishdi. Bir zumda dalani ortda qoldirishib, nishablikdan g'oyib bo'lishdi. Ular tepalik yonbag'ri bo'ylab saf tortishib, otlarini gijinglatib, hayratlangan bolalarning yonidan o'tib, otxona tomon o'tib ketishlari ham mumkin edi-ku.

Sultonmurotning rejasi ham shunday edi. Shu payt Onatoy oldinga otilib chikdi. Uning Oqto'rig'i uchqur ot edi.

— Qayoqqa, to'xta! Choptirma! — ogohlantirdi uni Sultonmurot, ammo Onatoy hatto pinagini ham buzmad.

«U Mirzagul oldida o'zini ko'rsatmoqchi!» — degan fikr yarq etib Sultonmurotning miyasiga urildi. Uning jahli chiqib, chidayolmay, jo'shib ketdi va Chopdorning jilovini bo'shatib, hoy-hoylab, otning yoliga yopishib olgancha Onatoyni quva ketdi. Onatoy bo'lsa yana otga ustma-ust qamchi bosdi. Ular poyga chopganday, kim o'zarga, kim birinchi bo'lib qizga yetib borishga, kim o'zining abjirligi va ustunligini ko'rsatishga oshiqqanday quvishib ketishdi. Eh, shunday ajoyib poyga chopdilar-a! Otasi bekorga Chopdorda ajoyib tulpor xislatlari bor demagan ekan, u haqiqiy bedovligini ko'rsatmoqda edi. Onatoyga quyunday yetib olgan Sultonmurot tantana qilardi! Ularning bellashuvini kuzatib to'xtab qolgan sinfdoshlari to'dasiga asta nazar solarkan, ular orasida qizga ko'zi tushdi, aslidayam uni ko'rmoqchi edida. Axir shu qizni deb bu bellashuvda qatnashmadimi. G'alaba qozondi ham! Onatoyni quvib o'tgach, qizga yaqinroq borish uchun tepalikka yo'naldi. Chopdorning boshini, yaxshiyamki, sal tepalikka burgani, omadi bor ekan, bo'lmasa bu hangoma nima bilan tugashini kim bilardi. Chunki so'nggi daqiqalarda Onatoy yetib, uni quvib o'tayotganida raqibiga bir narsa bo'lganday bo'ldi. Birdan hamma qichqirib yubordi. Sultonmurot jilovni tortib, orqasiga o'girilsa, Onatoy yo'q. U shiddat bilan chopib borayotgan otini bazo'r to'xtatib orqaga qayrildi-yu, Onatoyning Oqto'rig'i qorda iz qoldirgancha surib tepalikdan yumalaganini, Onatoyning o'zi esa bir chetga otilib ketganini ko'rdi. Bolalar gavdasini arang qordan ko'tarib turayotgan Onatoy tomon yugurib ketishdi.

Sultonmurotning kayfi uchib ketdi. Yetib kelib Onatoyning qonga belangan qo'llarini ko'rgach, yana vahima bosdi. Bir lahza ko'zlari Mirzagulning nigohlari bilan to'qnashdi. Qo'rqib oqarib ketgan bo'lishiga qaramay u juda go'zal edi... Onatoy o'zini o'nglab olib, pastda, qor uyumida tipirchilab yotgan oti tomon yugurdi. Ot tizginga o'ralib qolgan edi. Bu orada orqada qolgan desantchilar ham yetib kelishdi. Hammalari otni oyoqqa turishga ko'maklashib yuborishdi. Shundagina Sultonmurotning qulog'iga tovushlar chalinib, hamma narsa joyida shekilli, deya o'ziga keldi. Botirlarning Mirzagul bekach oldida o'zlarini ko'rsatishga urinishlari ana shunday ko'ngilsizlik bilan tugadi. Qizning ko'zlariga qarashga ularning yuraklari dov bermasdi. Otxonaga qaytar vaqt bo'lgani uchun churq etmay, apil-tapil yo'lga otlandilar. Faqat ovulga yetay deb qolganlarida Ergash Onatoyning Oqto'rig'i oqsayotganini sezib qoldi.

— To'xta! — qichqirdi u. — Nima, otingni oqsayotganini bilmayapsanmi?

— Oqsayotganini? — g'o'ldiradi Onatoy.

— Ha-da! Oqsaganda qanday!

— Qani, oldinga o‘t-chi, — buyurdi Sultonmurot. — Ko‘raylikchi, oldinga o‘t.

Haqiqatan, Oqto‘riq oldingi o‘ng oyog‘ini zo‘rg‘a bosardi. Paypaslashib qarashsa, otning to‘pig‘i shisha boshlaganini ko‘rishdi. Juda yomon ish bo‘ldi-da. Endi nima qilishni bilishmasdi. Otlarni plugga rosa tayyorlashib-tayyorlashib, oxirida hammasi chippakka chiqdi. Qor bilan qoplangan tepalikda kim ot chopadi, axir har qadamda otlar sirpanib pastga yumalashlari mumkin edi-ku. Shunday bo‘ldi ham. Xayriyatki, o‘zlari omon qolishdi.

— Hammasiga sen aybdorsan! — dedi jahl bilan Onatoy qizarib-bo‘zarib. — Quvishni birinchi sen boshlab berding.

— Orqangdan: «To‘xta, qayoqqa?» — deb baqirmadimmi?

— Bo‘lmasa nega quvlab o‘tmoqchi bo‘lding?

— O‘zing otni nega choptirib ketding? Baqirishib, talashib, sal bo‘lmasa mushtlashib ketay deyishdi. Lekin eslarini yig‘ib oldilar. Bu ot sovitishdan so‘ng otxonaga oqsoq otni jimgina, horg‘in yetaklab kirib kelishdi. Otlarni, oqsoqlanayotgan Oqto‘riqni ham shovqin-suronsiz oxurlariga bog‘ladilaru, endi nima qilishlarini bilmay turib qoldilar. Tahlika ostida hech biridan bir fikr chiqmay churq etmay turishardi. Bu qilmishlari uchun javob berish kerakligini yaxshi bilishardi. Bolalar Onatoyga yuzlanib: sekin, nima bo‘lganini otboqarlarga aytib ko‘r. Oqto‘riq oqsoqlanib qoldi, nima qilaylik, deb so‘ragin, deyishdi. U ko‘nmadi:

— Nega endi men borar ekanman? Men aybdor emasman. Bizning komandirimiz bor. O‘zi borib aytaversin.

Yana bahslashdilar, yana mushtlashib ketishlariga sal qoldi. Hammadan ham Onatoyning o‘zini aybdor hisoblamayotganligi Sultonmurotga alam qilib ketdi.

— Xotin ekansan! — dedi tutaqib. — Sen faqat og‘izdagina botirsan! Sal narsaga chetda pisib turmoqchimisan! Qo‘rqadi deb o‘ylayapsanmi? Bo‘lar ish bo‘ldimi — o‘zim borib aytaman hammasini.

— Boraver! Shuning uchun ham komandirsan-da, — bo‘sh kelmadi Onatoy.

Sultonmurot o‘zini qo‘lga olib, hammasini qanday bo‘lsa shundayligicha otboqarga aytib berishga jazm qildi. Otboqar hovliqib yugurib borib qoqingan otni ko‘zdan kechira boshladi. To‘s-to‘polon ko‘tarildi. Naq shudgor qilish oldidan otdan ayrilish hazilmi axir. Shu zahoti Chekish brigadir kelib dag‘dag‘a qila ketdi. Buni kim bo‘lsa ham yetkazishga ulguribdi-da. Otboqar bu vaqtda Oqto‘riqning oyog‘ini ko‘zdan kechirib, shikastlanganmi yoki suyagi singanmi, aniqlayotgan edi. Shu payt orqadan ot tuyog‘ining do‘pir-do‘piri eshitildi. Boshlarini o‘girib qarashsa, ot ustida Chekish brigadir turibdi. U indamay otdan tushdi. Yaqin kelib haybat bilan tutaqib so‘radi:

— Nima bo‘ldi?

— Payi cho‘zilganmi yoki suyagi darz ketganmikin, shuni bilmay turibmiz, oqsoqol.

— Bilishmasmish! — baqirdi Chekish jahldan bo‘zarib. — Hammangni hoziroq tribunalga haydayman! Joy-joyingda otib tashlayman!

Chekish qamchisini o‘ynatib qo‘shchilar tomon otildi. Bolalar har tomonga tumtaraqay qochib qolishdi. Chekish ularni quva ketdi. Hech kimni tutolmay, battar bo‘g‘ilib, bo‘zarib qamchisini siltab do‘q qila boshladi:

— Plugga qo‘shiladigan otlarni biz kimlarga ishonib o‘tiribmiz? Bular dushman ekan-ku! Fashistlar! Bitta qo‘ymay otish kerak! Qancha mehnat, qancha yemni yelga sovurdi bular! Endi shudgor nima bo‘ladi?

U otxonani boshga ko‘tarib qichqirar, so‘kinarkan, Sultonmurotga to‘qnash kelib qoldi. Bolalar qochib ketishganda ham Sultonmurot joyidan jilmagandi. Qo‘rquvdan rangi quv o‘chib, javob berishdan bosh tortolmay brigadirga termildi.

— Ha, hali bu senmisan! Qilar ishni qilib qo‘yib, yana menga qarab turibsanmi! — Chekish chol o‘zini tutolmay desantchilar komandirining yelkasiga qamchi tortib yubordi. Biroq yana qamchisini ko‘tardi-yu, negadir urmay pishqira ketdi:

— Qoch, itvachcha! Qoch, deyman! Yo‘qol ko‘zimdan! Yo‘qsa, boplab savalayman!

Sultonmurot orqaga chekinib, beixtiyor qo‘llari bilan yuzini to‘sib, javdiragan ko‘zlarini brigadirdan uzmay turardi. U cho‘g‘day qamchi yelkasini o‘yib o‘tishini kutardi. Bunga chidash, bardosh berish, qochmaslik uchun bor kuchini to‘plab turar edi...

— Ha, mayli! — dedi kutilmaganda Chekish yigitchaning o‘jarligidan hayratlanib. — Qolganini otang urushdan qaytgach olasan. Bu qilmishlaring uchun seni otangning oldida ham savalayman!

Sultonmurotdan sado chiqmadi. Chekish esa hech jahlidan, hovridan tushmay qamchisini o‘ynatib, depsinardi:

— Qoch desang qaqqayib turadi! Axir o‘zing o‘yla, hech zamonda seni tuta olarmidim! Sizlarni quvib nima qildim! Yo‘liga qochmaysanmi, menga ham yengil bo‘lardi! Uray desam egning yupun, egningni desam, o‘zing ham qoqsuyaksan, qamchi bilan solib bo‘lmasa. Uradigan holing bo‘lsa ham mayli edi! Bo‘lar ish bo‘ldi. Ko‘nglingga olma. Otang qaytgach, birgalashib men cholning adabini berarsizlar. Qani endi ko‘rsat-chi, nima qilib qo‘ydilaring...

O‘sha kuni mana shunday hodisa ro‘y bergan edi. Sultonmurot qilmishiga yarasha oladiganini oldi. Brigadir ham qamchi bilan savalamay nima qilsin. Qancha mehnat, harakat zoye ketdi. Nimaga ham yarardi cho‘loq ot? Go‘shgtami? Biroq zahmatkash jonivorni so‘yishga kimning qo‘li borardi? Chekish va boshqa biladigan odamlarning aytishicha, otning qattiq shikastlanmaganligigina birdan-bir tasalli edi... Onatoyning Oqto‘rig‘ini bir cholning huzuriga olib bordilar. U yilqilarni davolardi. Beda, pichan oborishib, u yerda navbatchilik qila boshlashdi. Omadlari kelib, besh kunlardan keyin Oqto‘riq ilgarigi holiga qayta boshladi va uni otxonaga olib keldilar.

Umuman bu hafta og‘ir o‘tdi, uyda esa onasining tobi qochib qoldi. Avvaliga o‘zini yomon his qila boshladi-yu, keyin issig‘i ko‘tarilib ko‘rpa-to‘shak qilib yotib qoldi. Sultonmurot onasi, ukalariga qarab uyda qolishiga to‘g‘ri keldi. U ana shundagina uylari bo‘m-bo‘sh, huvillab qolganini payqadi. Otasi armiyaga ketganidagi o‘ntacha qo‘ylaridan birortayam qolmadi: ikkitasini o‘zlariga so‘yishdi, qolganlarini harbiy zayomga sotishib, boshqa soliqlarga to‘lab yuborishdi. Yaxshiyamki, hali yelini to‘lishib qolgan, yaqin-orada tug‘ishi kerak bo‘lgan sigirlari, yana bir tomonda Ajimurotning eshagi Qorayol bor. Bor-yo‘q mol-hollari mana shu. O‘shalarni boqishga ham hech vaqo yo‘q. Saroy tomidagi g‘aramda quruq

makka jo‘xori poyasi saqlanardi. Hisoblab ko‘rdi, agar qish cho‘zilmasa sigirning tug‘ishiga bazo‘r yetarkan, ammo qish cho‘zilsa, nimalar bo‘lishini kim biladi. Eshak o‘ziga o‘zi yemak topmog‘i kerak edi. U hovli atrofidagi yantoq va burganlarni yeb yurardi. O‘tin-cho‘pga kelganda ahvol juda chatoq, tappi tutayozgan, shox-shabba yana bir necha kunga yetarli qolgan. Keyin nima bo‘ladi? Itlari Oqtosh ham sayoq bo‘lib ketibdi. Sultonmurot ma‘yuslanib qoldi. O‘z-o‘zidan xijolat tortardi. Kunu tun otxonada Oqsoy desantini tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lib, xo‘jaliklari qarovsiz qolganini ham payqamabdi. Otasi borligida hecham shunday bo‘larmidi? Otasi pichan yig‘sa butun qish va bahorga yetardi. O‘tinni ham g‘amlab tashlardi. Nimasini aytasiz — otasi borligida hayotlari butunlay boshqacha, xotirjam, saranjom-sarishta, orasta edi. Faqat uylaridagina emas, hamma yerda, balkim butun dunyoda boshqacha edi. Hozir hovlilaridan fayz ketgan. Xuddi kuz payti yap-roqlarsiz qolgan daraxtlar kabi hovlida nimadir yetishmay turardi. O‘tov o‘z o‘rnida, ko‘chalar, uylar o‘sha-o‘shayu, baribir otasi borligidagi fayz yo‘q. Hatto hovli orqasidagi ko‘chadan o‘tib turadigan arava g‘ildiraklarining taqir-tuqur ovozi ham, ilgarigidek, otasi shu yo‘llarda, xuddi shu aravalarni haydagan vaqtidagi singari maroqli emas edi.

Jambulga borgan odamlarning aytishicha, shaharda shunday qimmatchilik, ocharchilik va to‘s-to‘polon emishki, tezroq uyga qaytging kelarmish. Demak, shahar ham o‘sha otasi bilan borganlariday emas, butunlay o‘zgargan.

Nega shunday ekan-a? Demak, otasi yo‘kligi uchun shunday bo‘libdi-da... U hozir qayerda, holi ne kechdi ekan? Oxirgi xat bir yarim oylar chamasi oldin kelgandi. Qayerdadir yo‘lda biron yerda ushlanib qolyapti, deb tasalli berardi u onasiga. Onasi uh tortardi. Frontdan jo‘natilgan xat, ehtimol, ushlanib qolishi ham mumkin. Balkim xat yozishga hech kimning vaqti ham yo‘kdir hozir? Hamma gap ana shunda, biroq Chuy kanalidan xat kelmasligi boshqayu, frontdan xat kelmasligi boshqa. Mana, onasi ham, hammalari ham shu haqda o‘ylaydilar.

Avvalgi kun tong mahalida it hurib, keyin jimib qoldi. Erkanib g‘ingshidiyu, bir ozdan so‘ng deraza taqilladi. Onasi seskanib, kasal bo‘lishiga qaramay to‘shakdan turib ketdi.

Sultonmurot ham deraza tomon otildi. Tashqarida kimdir turardi. Birinchi bo‘lib uni onasi tanidi.

— Tog‘ang Nurg‘ozi keldi, — dedi u o‘g‘liga, — bor, kutib ol. — O‘zi bo‘lsa ko‘ngli aynab, tishi tishiga tegmay ko‘rpaga kirdi.

Onasining akasi, Nurg‘ozi tog‘asi tog‘da yashar va umr bo‘yi qo‘shni sovxozda cho‘ponlik qilardi. Bir kuni yoshi o‘tib qolgan bo‘lsa-da, uni ham armiyaga chaqirishdi. Ammo Jambuldan uni va yana bir necha cho‘ponni uyiga qaytarishdi. Otarlarda hech kim qolmagan edi. Podani kimsasiz tashlab ketib bo‘lmaydi-ku. Yaxshiyam Nurg‘ozi tog‘alari bor ekan, onda-sonda bo‘lsada, ulardan xabar olib turardi. Mana bu safar ham kechasi qo‘ylarni qo‘raga qamab, singlisini kasal deb eshitib, tog‘dan tushib kelibdi. U oz fursatga kelib, nima gapligini bilgach, tezroq uyga qaytmoqchi edi.

Shamolda qorayib, lo‘liga o‘xshab qolgan, tulkiteri tumoq, kigiz qo‘njli etiklari tizzasidan

yuqorisigacha, bahaybat, chayir tog'asi ayoz bilan birga qo'y hidini anqitib kirib keldi. Shu zahotiyoyq uyda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Egnidan po'stinini yechib singlisini yoniga cho'kkaladi-da, uning issiq qo'lini o'zining zalvorli kaftiga olib, indamay tomir urishini eshitdi.

Uzoq vaqt diqqat bilan uning nozik to'pig'ini ushlab, o'zining qattiq, yo'g'on barmoqlari bilan tomirini tekshirdi. Nimanidir sezib, nimanidir aniqladi. Bir oz xayolga cho'mib, yo'talib qo'ydi, so'ngra soqolini siypalab, xushnud jilmaygancha Sultonmurotga dedi:

— Hechqisi yo'q. Yaxshigina shamollab, rosa sovuq o'tibdi. Bilganday go'sht, dumba yog'i olib keluvdim. Qalampir va piyoz solib issiq, yog'li sho'rva ichib, obdan terla, — maslahat berdi singlisiga u. — Sen-chi, Sultonmurot, egardagi xurjunni olib kel, nima bo'lsa hammasini uyga olib kir. Xurjunni esa bo'shatib ber... Uzoq o'tirib qololmayman, qo'ylar egasiz qolgan.

Onasi tog'asi bilan u yoq-bu yokdan gaplashib olgunlaricha Sultonmurot olov yoqib, choy qaynatishga ulgurdi. Ungacha kichkintoylar ham uyg'onib qolishdi. Darrov to'shakdan turib qip-yalang'och diydirlashganlaricha hammalari tog'alariga tashlanishdi. U go'daklarni yonida turgan po'stiniga o'rab olar, ular esa tizzasiga, yelkalariga irg'ishlashardi. Ayniqsa, tog'aning erkatoyi Ajimurot bo'lsa rasmana go'dak bo'ldi-qoldi. Uchinchi sinfda o'qiyotganiga qaramay u qo'zichoqday erkalanardi. Tog'asining tulkiteri tumog'ini boshiga kiyib, qamchinini qo'lga olib o'zi esa xuddi otga minganday tog'asining yelkasiga chiqib oldi.

— Uyalmasanmi! Tush! — Sultonmurot uni bir-ikki turtkiladi, ammo bunga Nurg'ozini tog'aning o'zi indamasdi.

— Tegma unga, tegma, mayli, o'ynayversin.

Ana shunday quvnoq, sershovqin tong otdi. Ajimurot allaqachon maktabga borishi kerak bo'lsa ham hamon imillardi. Onasi baqirib-chaqirsa ham u tog'asining atrofida girdikapalak bo'lib ivirsirdi. Shundan so'ng tog'asi jiyanini qistay boshladi. Bazo'r uni kiyinishga ko'ndirishdi. Oxiri shunga borib yetdiki, Sultonmurot ukasining qo'llaridan tutib tashqariga sudrab chiqarib yubordi. U bo'lsa eshikka tiralib olib, tashqariga chiqarib yuborilganidan bo'kirib yig'lay boshladi. Shu ko'yi baqirib yig'lagancha maktabga ravona bo'ldi. Bolakayga hammaning rahmi kelib ketdi.

Nurg'ozini tog'aning hatto jahli ham chiqdi.

— Bu nima qilganing? — dedi u Sultonmurotni koyib.

— Yo'q, tog'ajon, men unga tegmadim.

— Nimaga yig'layapti bo'lmasa?

— Sultonmuroting unga tekkani yo'q, — bolishdan bosh ko'tarib gapga aralashdi onasi. —

Yo'q. Nurg'ozini aka, u otasini sog'inganidan shunday qilyapti. Shuning uchun ham bolalar sizga yopishgani-yopishgan. To'yib ketdik. Kutaverib ko'zimiz to'rt bo'ldi. Ikki enlikkina xat kelsa koshkiydi. Mana, ikki oy bo'ldiki, dom-darak yo'q...

Nurg'ozini tog'alari singlisini tinchita boshladi. Yig'lamasligini, bolalari uchun o'zini ehtiyot qilishini tayinlarkan, odamlarni o'ldi deb hisoblashib, yarim yildan keyin ulardan xat

olishganlari haqidagi har xil voqealarni gapirib berdi. Urush-urushligini qiladi-da...

Bu gal, Sultonmurot bemor onasi yonida o'tirib, hayotlari otasiz naqadar og'ir kechayotganini chuqur his etdi. Ajimurotga o'xshab kichikroq bo'lganidami, sog'inchidan bor ovozi bilan ho'ngrab yig'lab olardi. Shu ko'yi, yig'lab-siqtab, boshi oqqan tomonga jo'nagan bo'lardi. Uning salgina bo'lsa-da, umidvor bo'lgisi kelardi. Tez orada qaytmasa ham mayli, faqat otasi tirik bo'lsa bas, ana o'shanda erkin nafas olib, kutib, chidasa bo'ladi. Endi u o'z muallimasi Inkamol opaning ahvoriga tushundi.

Bir kuni opa otxonaga keldi. Rayonga ketayotgan yo'lovchi aravaga otlarni qo'shgunlaricha kutib turdi. U hamon o'sha dag'al jundan to'qilgan shol ro'molda, keksayib qolgan, yolg'iz, ko'zlari to'la g'am-anduh, qiyshayib qolgan darvoza oldida turardi. Lekin oradan bir kun o'tib qaytib kelganida esa uni tanib bo'lmas, keksa muallima o'zgarib qolganday, asliga qaytganday edi. Hatto peshanasidagi ajinlari ham tekis bo'lib ketgandi. Ochiq chehra bilan o'quvchilarining ishlari bilan qiziqdi. Sultonmurot uni hovlini aylantirib, desant otlarini ko'rsatdi.

— Mana, Inkamol opa, oxur oldida turgan bizning to'rttala otimiz!

— Yaxshi otlar, parvarish qilingani shundoqqina ko'rinib turibdi, — maqtab qo'ydi Inkamol opa.

— Ilgari ularni bir ko'rganingizdami, — so'zlay ketdi Sultonmurot. — Qoqsuyak, hammayog'i yag'ir va yag'rirlari yara-chaqa, yiring bosgan, oyoqlari esa oqsoq edi. Endi bo'lsa, o'zimiz ham taniyolmay qolganmiz. Inkamol opa, mana bu mening Chopdorim. Bir ko'ring qanaqaligini! Otamning oti. Mana bunisi esa Oqpaypoq, ana unisini Eltomon deb ataymiz...

So'ngra muallimaga ustaxonada otlarga urish uchun taxlab qo'yilgan egar-jabduqlarni ko'rsatdi. Keyin pluglarni ko'rishdi. Hamma narsa taxt, shu topning o'zidayoq otlarni qo'shib, haydayversa bo'ladigan...

Inkamol opa juda xursand bo'ldi. Xayrlashayotganda esa ularni o'qishdan qoldirganlarida tashvishlanib, norozi bo'lganini, biroq hozir bularni ko'rib ko'ngli joyiga tushganini tan oldi. Hozir, muhimi, g'alabayu odamlarning tezroq urushdan qaytishlari, qolgan narsalarning hissasini chiqarib olamiz, albatta chiqaramiz, dedi u.

Ma'lum bo'lishicha, Inkamol opa agar yaxshi xabar chiqsa hech nima, hech qanday pul olmaydigan, birovlarining quvonchini o'ziniki deb biladigan mashhur folbin huzurida bo'lgan ekan. Folbin shuning uchun ham doimo rostini gapirarkan. O'sha folbin opaga uch marta fol ochib, o'g'lini tirik, debdi. Asir ham, yarador ham emas. Faqat shunday topshiriqdaki, xat yozish man etilgan. Ruxsat olgach, mana ko'rarsiz, xat ustiga xat kelaveradi, debdi... Bu gaplarning qanchasi rost, qanchasi yolg'onligini hech kim bilmaydi-yu, ammo bu voqeani odamlarni rayonga olib borib kelgan aravakash otxonada so'zlab berdi.

Inkamol opaning folbinga borganini eshitgan Sultonmurot o'shanda daf'atan hayron bo'ldi-yu, uning qo'rquv aralash hasratlari boisini endi tushunib yetdi va bir oz yengil tortgach,

onasiga ham o'sha bashorat qiluvchi ayolga borib otasidan biror xabar topishni maslahat berishga qaror qildi.

Ha, bularning hammasi haqida o'ylashning o'zi og'ir va qo'rqinchli edi. Ammo buloq ko'zidan qaynab chiqib turgan tiniq suv oqimi kabi quyilib kelayotgan yorqin va quvonchli tuyg'ular ham bor edi. Bular uning haqida, Mirzagul haqidagi o'ylar edi. U aslida bu tuyg'ularni chorlashga urinmas, ammo ular yer ostidan nish urgan maysalar misol o'zidan-o'zi paydo bo'lardi. Ularning quvonchli, musaffoligi mana shunda edi, shuning uchun ham ulardan ayrilib qolishni istamas, bu haqda o'y-lashdan charchamasdi. U haqda o'ylar ekan, nimanidir bajarishi, harakat qilishi va bu yo'lda hech qanday falokatlardan, hech qanday qiyinchiliklardan cho'chish nimaligini bilmasdi. Lekin hammasidan ham bularning barchasini qizning bilishini istar edi.

O'z qalbidan kechayotgan tuyg'ularning barini nima deb atashni o'zi ham yaxshi bilmasdi. Ammo bu — o'zi odamlardan eshitgan, kitoblardan o'qigan sevgi ekanligini g'ira-shira tushunib yetgandi. Frontga ketayotgan yigitlar unga xatlarini biror qizga yoki yosh kelinchakka berib qo'yishini so'rab bir necha bor iltimos qilishgan. U bunday maxfiy topshiriqlarni g'urur bilan bajargan. Bu hakda hech qachon, hech kimga laqillab ham yurmagan. Bunaqa narsalar haqida laqillab yurish yigit kishining ishi emas-ku! Hatto uzoq bir qarindoshi shunday xat yozib berishini iltimos qilgan payt ham bo'lgan. Jamonqul hali yosh, savodsiz edi, tog'larda qo'ylar ketidan yurib, yoshligida o'qimagandi. Shunda birdan armiyaga chaqirilib qoldi. Yigitning suyukli qizi bilan xayrlashgisi kelgan, qog'ozda bo'lsa ham o'z tuyg'ularini unga aytmoqchi bo'lgan. Ovulda qiz bola to'ygacha yigit bilan uchrashishi mumkin bo'lmagach, nima qilsin. Shunda chalasavod Jamonqulning qarindosh boladan yordam so'rashiga to'g'ri keldi. Jamonqul aytib turdi, Sultonmurot esa uning so'zlarini qog'ozga tushirdi. O'shanda bu o'y ham, Jamonqulning so'z tanlab hayajonlanishi ham, xatni yozib tugatgunlaricha tomog'iga bir narsa turib qolganday bo'lgani ham Sultonmurotga kulgili bo'lib tuyulgan edi. O'shanda Sultonmurot avvaliga o'jarlik qilib yalintirgan, bir yil o'tmay o'zi ham bechora Jamonqulni hayajonga solib qo'ygan o'sha hissiyot o'zining ham boshiga tushishini xayoliga keltirmagan holda bechora oshikdan sovg'aga dastasi arxar shoxidan qilingan pichoq olgan edi. Jamonqulning tog'u toshda yolg'iz yurib to'qigan she'rini hozir Sultonmurot esladi va ichida o'zicha takrorladi:

*Oqsoy, Ko'ksoy, Sariqsoy — kezmagan yer qolmadi,
Ammo sening o'xshashing hech qaydan topilmadi...*

Nogahon miyasiga bir fikr keldi: u ham qizga xat yozsa bo'lmaydimi! Uyalib, qo'rqib o'tirmay hammasini to'kib solish, o'z his-tuyg'ularini unga yetkazish yo'li topilgach, unda hoziroq harakat qilish istagi, boshqalarga ham uning o'ziga yaxshi bo'lganiday, uning singari boshqalar ham o'zlarini baxtiyor hisoblashlari uchun allaqanday xayrli ishlarni bajarish istagi tug'ildi. Onasining tezroq sog'ayib ketishi, otasini o'ylab hadeb xavotirlanavermasligi uchun, tezroq yana fermada ishlashi, uylari sarishta va issiq bo'lishi uchun, o'g'li kimnidir sevib qolganini, uning ko'z o'ngida atrof allaqanday go'zallashib borayotganligini bir oz sezishi uchun hammadan oldin onasiga yordamlashishi kerak...

U uyda bo'lgan uch-to'rt kuni mobaynida shunchalik ko'p ish qildiki, yil davomida bunchalik ish qilib bo'lmasdi. Uy va xo'jalikka doir jamiki ishlarni tartibga solib, saranjom-sarishtaladi. Onasidan ham tez-tez hol-ahvol so'rab turdi:

— Yaxshimisan! Biron narsa kerakmasmi? Onasi unga javoban g'amgin kulib qo'yardi:

— Endi o'lim ham qo'rqinchli bo'lmay qoldi. Tashvish qilma, biron narsa kerak bo'lsa o'zim aytaman...

Xatni bo'lsa u tunda, hamma uxlagandan keyin yozdi. Hech kim va hech nima unga xalaqit bermasa-da, juda hayajonlandi. Avval nimadan boshlashni o'ylab oldi. Unday yozib ham ko'rdi, bunday ham, baribir bo'lmadi. Har gal boshqacharoq va bundan boshqacharoq boshlashi kerakday bo'lib tuyulaverardi. Fikrlari xuddi pala-partish otilayotgan toshdan hosil bo'lgan suv betidagi pufakchalarga o'xshab tarqab ketardi. Qalbida ardoqlab yurgan tuyg'ularini izhor qilgisi kelar, ammo ularni qog'ozga tushirishga kelganda gap qovushmay qolardi. Eng oldin unga, Mirzagulga, uning qanchalar go'zalligini, ovuldagilarning hammasidan go'zalligini va nafaqat ovulda, balki butun olamda tengi yo'q ekanligini aytgisi kelardi. O'zi uchun bir sinfda u bilan o'tirish, uning go'zalligini tomosha qilib termilish va dunyoda shu termilishdan yoqimliroq hech narsa yo'qligini aytgisi kelardi. Biroq hayot taqozosi bilan u o'z desanti tufayli endilikda maktabga borolmas, qachon ularning maktabga qaytishi noma'lum bo'lib qolgandi. Endi u qizni ahyon-ahyon uchratar, shuning uchunmi, juda-juda iztirob chekar va qattiq sog'inari edi. Shunday sog'inardiki, hatto ba'zida yig'lagisi kelardi. Buni u doim tan olgisi kelmasdi, erkak kishi doim erkaklarcha ish tutishi kerak, biroq ko'z yoshlari haqiqatan goho tomog'iga kelib qolardi. Tanaffus paytlari bekorga va dabdurustdan, sal-pal shilqimsifatlikni ep ko'rmay qizning oldiga borolmayotganligini va uning bekorga o'zini olib qochib yurganini xatda tushuntirishi kerak edi. Uning tuyg'ularida hech qanday yomon niyat bo'lmagan. Surbet Onatoy o'zining eng kuchli va dovyurak ekanligini, desantchilar ichida eng zo'ri ekanligini ko'rsatib qo'yishni ko'zlaganidagi o'sha kim o'zarga quvishishni ham unga tushuntirib berishni juda istardi. Ammo o'shanda, qiz o'zi ko'rganday, Onatoy hech narsa qilolmadi. Afsuski, Oqto'rig'i shikastlandi. Ammo hammasidan uning aytgisi kelgan muhim narsa — qanday qilib sinfdoshlari to'lasidan qizni tanib qolgani va uni uzoq paytdan beri qattiq sevishini darrov tushungani, yana qo'llarini yozib va nimalar deb qichqirib tepaliqdan tushib kelayotganida uning qanday go'zal ko'ringani edi. Qiz unga tomon xuddi musiqa ohangiday, sharsharaday, o't yolg'iniday yugurgan edi...

Deraza tokchasidagi lampalarni ikki marta tuzatib qo'yishga to'g'ri keldi. Piligi tugab borardi. Yaxshiyam onasi boshqa xonada yotar va uning oxirgi kerosinni yoqib tugatayotganini bilmas edi. Xat hamon nima deb yozishni bilmagani uchun emas, balki aksincha, hammasini to'kib solish istagi borligi uchun ham qovushmasdi.

O'tovdagi derazalarni allaqachon qorong'ilik qoplab, allaqachon itlar hurishni bas qilgandi. Manas qorli tizma tog'lari poyidagi vodiy aholisining barchasi allaqachon sukunatli fevral' tuni qo'ynida uyquga cho'ngandi. Deraza tashqarisida zim-ziyo tun. Go'yo unga butun olamda faqat ular — tun va uning o'zi Mirzagul haqidagi o'ylari bilan yakka qolganday

tuyuldi.

Nihoyat u yozishga qaror qildi. O‘z xatini «Oshiqlik maktubi» deb nomlab, uni go‘zallik yog‘dusi uydagi lampa yog‘dusi o‘rnini bosa oladigan, ovulda yashaydigan sohibjamol M.ga bag‘ishlanganini yozdi. Keyin, bozorda minglab kishilar uchrashsalarida, faqat bir-birovlariga qo‘l uzatishni lozim ko‘rganlarigina salomlashishini yozdi. Bularni hammasini u Jamonqulning xatidan yodlab olgandi. Keyin butun hayotini so‘nggi nafasigacha qizga bag‘ishlaganini va shunga o‘xshash narsalarni to‘kib soldi. Xat so‘ngida

Jamonqulning she‘rini esladi:

*Oqsoy, Ko‘ksoy, Sariqsoy — kezmagan yer qolmadi,
Ammo sening o‘xshashing hech qaydan topilmadi...*

OLTINCHI BOB

Ertasiga, Ajimurot maktabdan kelgach, akasi bilan dalaga, o‘tin olib kelishga jo‘nadi. Ajimurotga eshagi Qorayolni egarlashdi. Uning egariga arqon, o‘roq va qo‘lqoplarni bog‘lashdi. Itlari Oqtoshni ham o‘zlari bilan birga olishdi. It jon deb ularga ergashdi. Ajimurot, kichikligi uchun egarga mindi, akasi esa eshakni niqtalab yonida ketdi. Eshak pgunday bir jonivorki, niqtalamasang, yurmaydi. Yo‘l esa olis. Sultonmurot quruq shox-shabbaga boy bir joyni bilardi. U joy uzoqda. Tuyuqjar darasida edi. Bahor va yozda daraga har tomondan qor suvlari, ayniqsa, yomg‘ir suvlari oqib kelardi. Ayqirib oqayotgan sel oqimi, momaqaldiroqlar gumburlashidan dara dahshatga tushar, kuzga kelib esa poyasi qattiq o‘tlar changalzorda odam bo‘yicha o‘sib qolardi. U yerga odam kam borardi-yu, lekin quruq qaytmasdi.

Atrofdagi hamma ko‘ray terib olingandi. Endi Tuyuqjarga yo‘l olish kerak. Sultonmurot onasini Oqsoyga ketgunicha o‘tin-cho‘pni g‘amlab beraman, deb ishontirib qo‘ygandi.

Avvaliga Sultonmurot har xil fikrlar og‘ushida parishonxotir borar va ezma ukasining savollariga istar-istamas javob berib qo‘yardi. O‘ylayman desa o‘y ko‘p. Qo‘shchilarning Oqsoyga jo‘nash payti yaqin. Bunga sanoqli kunlar qoldi. Jo‘nashdan oldin doimo ko‘p narsa qilinmagani sezilib qoladi. Ayniqsa, mayda-chuyda ishlar. Oqsoyda, kerak bo‘lib qolganda, mixni ham topib bo‘lmaydi axir. Yaxshiyam, rais Tinaliyev ularnikiga kirib o‘tdi. Onasining sog‘ligi, desant komandirining ishlari qanday ekanligini ko‘rishga kelibdi. O‘zi ham ba‘zi narsalarni — shudgor payti joy masalasi, o‘tovlar o‘rnatilishi va oziq-ovqatni tashish qanday tashkil qilinishi, hammasi haqida gapirdi, ayniqsa, onasi bilan gaplashgani yaxshi bo‘ldi. Keyingi paytlarda kasallik va otasidan xat kelmayotgani tufayli onasining asabi buzilgan edi. Onasi rais bilan tortisha-tortisha: «Bu go‘daklarni qayoqqa jo‘natyapsizlar? Cho‘lda nobud bo‘lishadi-ku ular. O‘g‘limni jo‘natmayman, — dedi. — O‘zim kasalman. Qolgan bolalar hali yosh bo‘lsa. Erimdan xat-xabar yo‘q. Uyda esa pichan, o‘tin yo‘q». Rais esa ozroq pichan beramiz, boshqa iloj yo‘q, bahorgi shudgor yaqin, dedi. O‘tin haqida esa hech nima va‘da qilmadi. Hatto oqarib ketib, halqumidan bir narsa uni qisganday dedi: «Cho‘ldagi bolalarga kelsak, bekorga tashvishlanyapsiz. Yuragimdan his qilib turgan bo‘lsam ham so‘zlaringizga

e'tibor ham bermayman. Bu, axir, front topshirig'i-ku. Shunday ekan, xohlaysanmi yo'qmi, so'zsiz bajarish shart. Mana, masalan, erlaringiz hujum oldidan uyni eslab u yo'q-bu yo'q, uy isitilmagan, bolalarning qorinlari och, atakaga borib nima qilamiz, deb yig'lab qolishsa nima bo'lardi? Urush payti bunaqa narsani kim-kimga yo'l qo'yardi? Bizlar uchun esa Oqsoy — bu bizning hujumimiz. O'sha hujumga biz oxirgi kuchimiz — maktab yoshidagi bolalar bilan boryapmiz. Boshqa odamlar yo'q».

Mana shunday suhbat bo'ldi. Sultonmurot onasiga ham, rais Tinaliyevga ham achinadi. Uni ham tushunish kerak, bu ishni turmushning yaxshiligidan qilayotgani yo'q. U Sultonmurotning tezroq ishga chiqishini iltimos qildi. Vaqt juda g'animat, dedi. Onangning ahvoli sal yengillashgach, bir minut ham vaqtzni o'tkazmay tezroq ishga kirish...

Kechagi kundan boshlab onasi o'zini bir oz yaxshi his eta boshlab, uyda u-bu narsalarga urina boshladi. Endi uning otlarga, bolalar yoniga qaytishi mumkin edi. Biroq yer tagidan bo'lsa-da, o'tin topish kerak bo'lib qoldi. Oilani olovsiz, o'tinsiz qoldirib bo'lmaydi...

Erta bahor kuni edi. Iliq tush payti. Na qish, na bahorga o'xshaydi. Kuchlarning osuda kelishuvi. Atrof yaydoq, top-toza va jimjit. Har joy-har joyda qori erib ulgurmagan keng yalangliklar qorayib turibdi. Shaffof havoda qorli tog'lar salobati uzoq-uzoqlardan ko'zni qamashtirguday oqarib ko'rinadi. Atrofda bepoyon yer yastanib yotibdi. U inson parvarishiga muhtoj!

Sultonmurot to'xtadi. U yerdan, g'arbdan, adirlar qo'ynidan Ulug' Manas tog'i etagidagi Oqsoy darasini topishga urindi. Biroq o'sha Oqsoy deb atalmish joy-da u hech narsani ko'rolmadi. Faqat kenglik va yorug'lik... Ana shu tomonga bir necha kun yo'l yurib borishlari kerak. U yokda qanday bo'larkin? Ularni u yoqda nimalar kutayotibdi? A'zoyi-badanini xavotirli bir sovuqlik jimirlatib o'tdi.

Lekin kun ajoyib edi. Ajimurot esa quvonchdan, ozod kundan, akasi yonidaligi va vafodor itlari atroflarida yugurayotgani, butun bir dunyoda erkin ekanliklari, uylariga o'tin olib kelishga borayotganlaridan xursand bo'lib esini yo'qotayozdi. O'zi bo'lsa eshak ustida. Ingichka tovushi bilan har xil qo'shiqlarni, urushdan oldingilarini ham aytib borardi:

*Komanda ber, marshallar,
Bizlar jangga kiramiz.
Dushman qancha bo'lsayam,
Hammasini qiramiz.*

Eh, tentakvoy! Esi past go'dak... Ammo Ajimurotning hech narsa bilan ishi yo'q. U borliqni unutib kuylashda davom etardi:

*Bir, ikki, uch,
Bizlardadir kuch!..*

Sultonmurotning ham ko'ngli yorishdi. Eshakka minib olgan botirga qarash kulgili edi. O'tgan yilgi g'aram yonidan o'tishayotganlarida beixtiyor jim bo'lib qolishdi. Bu ovloq joyda, to'kilib-sochilib yotgan poxol g'aramlari og'ushida bahor nafasi ufurardi. Atrof jimjit. Burnog'i yili hosilni o'rib-yanchib olishlari bilan bu yerlarda hamma narsa jimib qolgan. U yerdan ho'l, chirik somonning, tugab bo'lgan yozning hidi anqiydi. Ariq ichida tegrasi yo'q g'ildirak yotardi. Yanchilgan bug'doy poyalaridan qilingan chayla hamon saqlanib qolgan. Xirmonchilar tushlikda shu chaylada dam olishardi. Oftobro'ya joyda, xirmonning o'rtasida, bug'doy chori uyilgan joyda qolib ketgan donlardan qalin maysalar ko'kara boshlabdi.

Oqtosh g'aram ichida nimanidir hidini olib u yoq-bu yoqqa yugurib yovvoyi kaparlarni cho'chitardi. Ular oqarib ketgan somonlar osilib qolgan jarliklar ostidan parr etib ko'tariladi. Kaparlarni bu yerlarda qish bo'yi donlab yurishardi. Ular dala tepasida zich holda gir aylanishib shiddatli va shodon parvoz qilishadi. Oqtosh ularning ortidan yugurib yuvosh hurganicha yana chopib ketar edi. Ajimurot ham baqirib-chaqirib kaparlarni qo'rqitdi-yu, tezda ularni unutdi. Sultonmurot esa qushlarni uzoq kuzata boshladi. Quyoshda sadaf bo'lib tovlanayotgan qanotlariga boqib, ularning yengil parvozini zavq bilan tomosha qildi va bir mahal galadan bir juft kapar ajralib chiqib yonma-yon uchib borayotganini ko'rib qolib, armiyaga ketgan yosh matematika o'qituvchisi yodiga tushdi:

*Oq kapar sen ko'kdagi,
Men tuyg'un qush to'pdagi.
Birga bo'lsak oh, qani,
Xohlamasman boshqani...*

Bo'zachinikidan chiqib ketishgach, o'qituvchining xiyol kayfi oshdi. U brichkada ovuldan chiqib ketayotib, o'zining moviy osmonda uchib borayotgan oshiq ko'k kabutar ekanligini, yorning esa yonma-yon uchib borayotgan moda kabutar ekanligini uzoq kuyladi... O'shanda bu qo'shiq Sultonmurotga qiziq, salobatli o'qituvchi esa birdan shunchalik kulgili bo'lib ko'ringan edi. Hozir esa uzoqlashib borayotgan bir juft yovvoyi kabutarlarni kuzatib qolarkan, badani junjikib qotib qoldi. Matematika o'qituvchisining bu qo'shig'i shu damda unga kuchli ta'sir etdi. Bolaga o'sha ko'kda uchib yurgan kabutar, o'zi yonma-yon uchayotgan, huv yonidagi esa Mirzagul bo'lib ko'rinib, hoziroq qiz yonida bo'lish istagi uni qamrab oldi-da, xuddi qish dalasi tepasida hosil qilib uchayotgan mana shu kabutarlarday parvoz qilgisi kelib ketdi. Unga yozgan maktubini eslarkan, kabutar haqidagi, «Oq kabutar» qo'shig'idagi so'zlarni ham xatga qo'shib yozishga qaror qildi... Hamma gap endi xatni unga qanday yetkazishda edi. Mirzagul bolalarning oldida hech qachon undan xat olmasligini biladi. Hatto, tanaffus paytlari ham undan o'zini olib qochib yuradi-ku. Endi bo'lsa Sultonmurot maktabga ham bormaydi. Qizning uyiga borib bo'lma-sa, ota-onasi qattiqqo'l... Borganida ham nima deydi, qanday tushuntiradi? Nega bir ovulda yashab turib xat berish kerak ekan, deyishmaydimi.

Biroq u qiz haqida o'ylagani sari uning o'ylayotganini qiz bilishini shuncha ko'p istar edi. Buni uning bilishi favqulodda juda ham muhim edi.

Yo‘l bo‘yi u hali qiz haqida, hali Oqsoyga jo‘nashlari, hali frontdagi otasi haqida o‘ylab bordi va qanday qilib Tuyuqjar darasiga yetib kelganlarini sezmay qoldi. Bu yerga ulardan oldin kimdir kelib, qalin ko‘rayning bir chekkasini o‘rib ketibdi. Biroq muzlab qolgan soy atrofidagi jarlikda va maymunjiydaning tikanli chakalagi ichidagi ko‘rayzorlar ham yetarli edi. Ko‘rayni qanday o‘rishni emas, balki qanday olib ketish g‘amini yeyishga to‘g‘ri keldi. Ko‘p o‘ylanib o‘tirmay ishga kirishishdi. Eshaklari Qorayolni qor ostidan quloq chiqargan o‘tgan yilgi maysalarni o‘tlashga qo‘yib yuborishdi. Oqtoshga qarovning keragi yo‘q, o‘z holicha darada, xudo biladi, kimni va nimalarni iskab yuribdi. Aka-uka g‘ayrat qilib ishlashdi. Shox-shabbani o‘roq bilan o‘rishib, keyin kesilgan novdalarning hammasini dastlab bog‘lash uchun bir joyga taxlashdi. Ular jimgina ishlashardi.

Tezda terlab ketishib, qo‘yteri po‘stinlarini yechib qo‘yishdi. Ko‘ray qalin, yo‘g‘on o‘sgan bo‘lsa, o‘roq bilan o‘rish xo‘p zavqli. Ovul atrofida bunaqasini topib bo‘lmaydi. U yokda nima qilsin? Bu yerda esa dasta-dasta qilib o‘rib olishning o‘zi maroqli. Ko‘ray chanog‘ida shiqirlab, qo‘zog‘idagi urug‘lari qorga to‘kiladi. Xuddi yozdagi, avgust oyidagi singari achchiq chang hidi dimoqqa uradi. Qadni rostlamoq mahol. Ammo bu yerning ko‘rayi juda zo‘r, qo‘ri rosa kuchli bo‘ladi. Onasi, singillari quvonadigan bo‘lishdi-da. Uyda pechka yaxshi yonsa, kayfiyat ham yaxshi bo‘ladi.

Ular ancha ish qilib qo‘yishgan, endi dam olamiz, deb turishganida Oqtosh birdan jon-jahdi bilan hurib qoldi. Sultonmurot boshini ko‘tarib o‘roqni silkitib baqirib yubordi: — Ajimurot, qara, tulki!

Daradan qish bo‘yi qotib qolgan yerda itdan qo‘rqib ketgan tulki oldinda goh to‘xtab, goh ortiga qaragancha chopib borardi. Tulki go‘yo qor ustida sirpanib ke-tayotganday bemalol, erkin chopib borardi. U anchagina katta, quloqlari dikkaygan, beli ko‘kimtir-qizil rangli va, shuningdek, uzun dumi ham ko‘kimtir-qizil tusda edi. Oqtosh uni jon-jahdi bilan ta‘qib etar, biroq o‘ljasiga qanchalik ko‘p intilmasin, shunchalik ko‘p qorga botib qolardi. — Ushla uni! Ushla! — baqirdi Ajimurot va ular o‘roqlarini silkitib tulkining yo‘lini kesib chiqishdi.

Qarshidan yugurib kelayotgan odamlarni ko‘rgan tulki birdan ortiga qayrilib, tikanli butalar orqasiga o‘tib ketdi va Oqtosh uning eski izidan chopib yonidan o‘tgach, tulki yana teskari tomonga qarab qochdi. Albatta, tulki o‘z kushandasini bemalol adashtirib qutulib ketishi mumkin edi, biroq hamma balo shunda ediki, u jar labiga kelib qolgan edi, xuddi qopga tushib qolganday, jar yoqasining bu yeri tik, o‘tib bo‘lmas devorday edi. Hech qayoqqa qochib qutulish mumkin emasday edi. Mana bu to‘polonchi, tinib-tinchimas it bo‘lmaganida tulki maymunjiyda orasiga yashirinib olardi, qani, uni qalin tikanzorlar ichidan biron topib ko‘rsinchi. Lekin it hali nodon, jaydari it bo‘lishiga qaramay chidamli va qafiyatli chiqib qoldi. Uning hurishi bir minut ham to‘xtamadi, tulkini dahshatga solgan ham ana shu itning hurishi bo‘ddi.

Aka-uka esa kutilmagan hodisaga berilib, terlab-pishib, qizishib, o‘z ovozlariidan va ta‘qib zavqidan quloqlari bitib engashganlaricha uning orqasidan yugurishardi. Tulki yo itning

qo‘liga tushishi, yoki jardan chiqib ketish uchun odamlarning yonidan o‘tishi kerak edi.

Tulki odamlardan qochish o‘rniga, o‘girilib qara-gancha, ular tomon yuzma-yuz yura boshladi. Kutilmagan hodisadan bolalar to‘xtab qolishdi. Tulki orqadan izma-iz ta‘qib qilib, qiyaliklardan tez-tez yiqilib, surinib, halloslab kelayotgan Oqtoshning holini ko‘rib jar pastidagi qor uyumi tomon deyarli shoshilmay borardi. Bechora Oqtosh akillab chopaverishdan gangib qolgan edi. Tulki qalin qor bo‘ylab gir aylantirib uni rosa ahmoq qilayotganini it sezmas edi.

Ha, aka-ukalar ham unchalik sezgir emasdi. Ikkovi ham yugurib kelayotgan mo‘jizani ko‘rib qotib qolishdi. Chopayotganida tulki shunchalik chiroyli edi-ki, xuddi oqim bo‘ylab suzayotgan qayiqqa o‘xshardi.

Tulki ularning o‘rtasidan o‘tishga, hech kimning ranjimasligi uchun qoq o‘rtadan yo‘l solishga shaylandi. Biroq u shundan keyin sal chaprokdan, Sultonmurotdan bir-ikki qadam naridan o‘tib ketdi. Mana shu qisqa daqiqalarda u tulkini boshdan oyoq, xuddi tushdagi kabi o‘z ko‘zlariga ishonib-ishonmay tomosha qildi. Shiddat bilan boshini tik tutib, tulki uning yonidan o‘tib borarkan, qop-qora porlab turgan ko‘zlari bilan unga bokdi. Sultonmurot bu akdli hayvon nigohidan hayratlanishga ulgurdi. Tulki uning xayolida mana shu taxlitda boshini va xuddi shuningdek, momiq dumini ko‘targancha oqish qorni, qora ildam panjalari va aqlli, hamma narsani sezuvchi nigohi bilan qolgan edi... U Sultonmurot o‘ziga tegmasligini bilgan edi.

Ajimurot o‘rog‘ini tulkiga otib qichqirganidagina u o‘ziga keldi:
— Ur uni! Ur!

Sultonmurot uni urishga ulgurmay tulki ko‘ray orqasiga o‘tib ketdi. Ortidan Oqtosh quvib ketdi va ular ham jar bo‘ylab pastga qarab chopishdi.
— Yopiray! — deya oldi Sultonmurot. Aka-ukalar yugurishdi-yugurishdida, keyin to‘xtab qolishdi.

Tulki izsiz yo‘qolgan edi. Faqat goh u yer, goh bu yerda Oqtosh hurardi.
— Eh, seni qara-yu, — dedi keyin Ajimurot. — Shunday tulkini qo‘ldan chiqarding-a. Hatto qo‘lingni qimirlatmay qaqqayib turibsan-a.

Sultonmurot nima deyishini ham bilmasdi. Ukasi haq edi.
— Nima qilasan uni? — ming‘irlab qo‘ydi u.
— Nima qilasan? — ukasi aytmoqchi bo‘lgan gapini tushuntirib o‘tirmay qo‘l siltadi.

Keyin ular o‘rilgan shox-shabballarni jimgina bir joyga yig‘a boshlashdi. Bog‘lamlarni kattaroq qilish uchun yana biroz o‘rishlari kerak edi. Shu paytdagina Ajimurot xafa bo‘lib dedi:
— Nima qilasan, nima qilasan, deysan! Otamga Nurg‘ozi tog‘amnikiga o‘xshagan tulki tumoq tikar edik, sen bo‘lsang qaqqayib turibsan!

Sultonmurot esankirab qoldi: mana, demak, ukasi tulkini quvganda nimaning g'amini yegan ekan. Endi esa otasini Nurg'ozini tog'aniki kabi momiq tumoqda tasavvur qilib ko'rib, haqiqatan ham mana shunday chiroyli tulkini tutolmaganiga achindi. Otasiga shunaqa telpak juda yarashar edi-da. Sultonmurotning o'ylarini Ajimurotning piqillab yig'lagan ovozi bo'ldi. Ukasi shox-shabba bog'lamlari ustiga o'tirib olgancha astoydil yig'lardi.

— Nima bo'ldi? Senga nima bo'ldi? — unga yaqinlashdi Sultonmurot.

— Hech narsa, — dedi u yig'lamsirab. Sultonmurot qayta surishtirib o'tirmadi. Yaqinda

Nurg'ozini tog'asi kelganida Ajimurotning yig'laganini eslab, darrov tushundi. Bolakay otasini sog'inib yig'layapti. Tulki va tulki tumoq bunga bir turtki bo'ldi, xolos...

Sultonmurot ukasiga qanday yordam berishni bilmasdi. Uning o'zi ham ma'yus tortib qoldi. Ukasiga mehr-shafqat hamda izzat bilan yaqinlasharkan, u qalbidagi noyob tuyg'ularini unga aytishga qaror qildi.

— Yig'lama, Ajike, — dedi uning yoniga o'tirarkan. — Yig'lamagin. Bilasanmi, otam qaytib kelgach, men uylanmoqchiman.

Ajimurot yig'idan to'xtab unga hayratlanib tiki-lib qoldi:

— Uylanaman?

— Ha, agar sen bir ishda menga yordam bersang.

— Qanaqa ish? — darrov qiziqsindi Ajimurot.

— Faqat birovga churq etib og'iz ochmaysan!

— Hech kimga! Hech kimga aytmayman!

Endi Sultonmurot ikkilana boshladi. Aytsinmi yo aytmasinmi?.. U o'zini yo'qotib, o'ylanib qoldi. Ajimurot esa tiqilinch qila boshladi:

— Qani aytchi, qanaqa ish? Ayta qol, — Sulton. Chin so'zim, hech kimga og'iz ochma ko'rmayman.

Sultonmurot terga botgancha ukasining yuziga qaramay, qiynalib shunday dedi:

— Maktabga, xatni bir qizga eltib berish kerak.

— Xat qani, qanaqa xat o'zi? — Ajimurot darhol akasiga yaqin surildi.

— Keyin ko'rsataman. Xat bu yerda emas.

— Qayerda?

— Qayerda bo'lsa o'sha yerda. Keyin ko'rasan.

— Kimga, qaysi qizga?

— Uni bilasan. Keyin aytaman.

— Hozir ayta qol!

— Yo'q, keyin.

Ajimurot tiqilinch qilib turib oldi. Uni tinchitib bo'lmasdi. Sultonmurot og'ir xo'rsinib duduqlangancha aytishga majbur bo'ldi:

— Bu... bu... xatni Mirzagulga oborib berasan.

— Qaysi Mirzagulga? O'zlaringning sinflaringdagi qizgami?

- Ha.
- Ur-ey! — quvonganidanmi yo shoʻxligi tutibmi, baqirib yubordi ukasi. — Men uni taniyman, u oʻzini juda goʻzal hisoblab yuradi! Oʻzidan past sinfdagilar bilan gaplashgisi kelmaydi!
- Nega baqirasan? — achchiqlandi Sultonmurot.
- Xoʻp, xoʻp! Baqirmayman! Sen uni yaxshi koʻlasanmi? Xuddi Oychurek va Semetey misanlar, shunaqami?
- Jim boʻl! — baqirdi Sultonmurot.
- Nima qipti? Gapirib boʻlmaydimi? — uning jigʻiga tegardi Ajimurot.
- Bor, bor, baqiraver, huv togʻlarga chiqib olgin-u, butun dunyoga jar sol!
- Chiqib jar solaman! Sen oʻsha Mirzagulni sevasan! Bilaman! Bilaman! Sevasan...

Ukasining surbetligi akasining jahlini chiqarib yubordi. Sultonmurot uning orqasiga yaxshigina tushirib qoldi. Ukasi darrov bukchayib olgancha butun darani boshiga koʻtarib yigʻlay boshladi:

- Otam frontdaligida meni uryapsanmi? Shoshmay tur! Shoshmay tur! Hali javobini berasan!
- U bor ovozi bilan baqirib yigʻlay boshladi.

Endi uni yupatish kerak edi. Dardisar-ey! Ular yarashib olishgach, Ajimurot hamon entikib, xoʻrsinib, mushti bilan yuzidagi yoshlarini arta-arti dedi:

- Qoʻrqma, hech kimga, hatto onamga ham aytmayman. Oʻzing-ku, darrov urishga tushding... Xatni oborib beraman. Endi aytmoqchi boʻlib turuvdim-u urib qoldingda... Bir chetga chaqirib, tanaffusda beraman. Sen esa buning evaziga otam frontdan qaytib stansiyaga kelganida, hamma uni kutib olishga shoshilganida, meni ham birga olib borasan. Ikkalamiz Chopdorga minib, uni yeldirgancha hammadan oldin yetib boramiz. Sen-u men. Chopdor axir seniki-ku endi. Sen oldinda, men orqangga mingashib choptirib ketamiz. Chopdorni darrov otamizga berib, oʻzimiz yonma-yon yuguramiz, onam, boshqa hamma odamlar esa bizni kutgani peshvoz chiqishadi...

Uning shu taxlit ezilib, maʼyus, yolvorib gapirishi Sultonmurotni shunday ezib yubordiki, oʻziniyam yigʻlab yuborishiga sal qoldi. Qiziqqonlik qilgan ekan, endi esa bolakayni urganiga rosa afsuslandi.

- Xoʻp, Ajike, yigʻlama endi... Ikkovimiz Chopdorda chopib boramiz, faqat otamiz omon qaytsa boʻlgani...

Oʻrilgan hamma koʻrayni toʻplab bogʻlaganlarida uchta kattagina bogʻlam boʻldi. Sultonmurot oʻtinni bogʻlashga usta edi. Avvaliga uyumlar ularning koʻziga xuddi togʻday salobatli koʻrinib, hatto olib ketolmaymiz, deb ham qoʻrqishgandi. Keyin esa arqon ustalik bilan ishga solingach, uyum avvalgisidan uch marta kichraydi. Yaxshi tortilgan bogʻlam yelkada mahkam va tekis turadi, olib ketish ham qulay. Bunisini ular ikkita bogʻlam qilishdi. Axir Qorayolni mana shuning uchun ham olib kelishganda. Bitta qoʻshimcha bogʻlamni Sultonmurot oʻzi koʻtarib ketmoqchi boʻldi. Yoʻl uzoq edi, ammo uyga bir yoʻla koʻproq oʻtin olib borgan yaxshi. Shunday koʻrayni qoldirib ketib ham boʻlmaydi. Tuyuqjar darasidan antiqa shox-shabba yigʻishdida, oʻzlariyam.

Qorayolning ustiga o'tinni shunday ortishdiki, qulog'iyam, dumi ham ko'rinmay qoldi. Ajimurot tizgindan tutib yetakladi. Uning ortidan Sultonmurot o'tin bog'laming og'irligidan egilib izma-iz jo'nadi. Bog'lam yelkaga alohida usulda: arqon chap qo'ltikdan tushirilib ko'kragi orqali o'ng yelkaga tortib o'tkazilgan, gardanning o'ng tomonidan arqonga ilmoq solinib bog'langan bo'lishi va yuk tashuvchi ilmoqning uchidan ushlab olishi kerak edi. Bunday holda o'tinni ko'tarib borayotgan odam bog'lam tugunining bo'shab qolgan joyini yo'l-yo'lakay tortib olishi mumkin.

Ular shunday, oldinda Qorayolning tizginidan tutib olgan Ajimurot, orqada yelkasida yuki bilan Sultonmurot, ularning ortidan esa holdan toyib sudralgancha Oqtosh kelardi.

Ko'ray olib ketayotganda uzoq vaqt dam olmay yurish kerak. Birinchi dovondan o'tgach, bosib o'tiladigan yo'llarning oralig'i qisqaradi, ikkinchi dovon birinchisining yarmiga, uchinchi ikkinchisining yarmiga kamayib boraveradi. Sultonmurot buni yaxshi bilardi, shuning uchun ham kuchini tejab bir maromda, oyoqlarini keng yoyib qadam bosardi. Endi u atrofdagi hech nimani ko'rmas, faqat oldinga, oyoqlari ostiga qarab borardi. Bog'lamni ko'tarib ketayotganida uzoq vaqt charchab qolmaslik va tez-tez dam olmaslik uchun, yaxshisi, biror narsa haqida o'ylash kerak.

U ertaga ertalabdan otxonaga qanday borishi va yana desant komandiri vazifalarini bajarishga kirishishi haqida o'ylab borardi. Shoshilish kerak. Oqsoyga jo'nash uchun sanoqli kunlar qoldi. Yaxshilab parvarishlangan otlar qadrlarini ancha tutib olishdi. Pluglar ham, uning zapas qismlari ham egar-u jabduqlar shay qilib qo'yildi-yu, ammo baribir, dalaga chiqish bilanoq nimadir yetishmasligi aniqlanadi, miri kam dunyo deganlar. Bu brigadir Chekishning so'zlari edi. U shundoq degandi: ko'z — qo'rqqoq, qo'l — botir, dalaga qo'rqmay chiqish kerak, ish davomida qolganlari aniqlanaveradi, hammasi birdan bo'lmaydi-ku axir.

Sultonmurot qanday qilib onasining mehnatini yengillatishni o'ylardi. Onasining judayam tinka-madori quridi. Fermada sigir sog'adi, mollarga qaraydi, yana uyda tinim yo'q. Hammasiga balogardon o'zi. Pishir-kuydir, kir yuv... Qizlari bo'lsa hali yosh, Ajimurotning ham hali qo'lidan bir ish kelmaydi. O'zi bo'lsa oilaga begonaday bo'lib qolgan, bugun-erta Oqsoyga jo'naydi, kim bilsin, shu bilan qachon qaytadi. Qancha yerni haydab shudgor qilish, boronalash kerak... Unda esa bor-yo'g'i beshta ulov bor. Qolgan ot-ulov va pluglarning hammasi eski yerlarda ishlatiladi. U yerlarda ish yana ham ko'proq. Biroq bu yerlar harholda ovulga yaqin. Biror nima bo'lsa, xotinlar chopiqqa tushishadi. Erkaklar qiladigan ish ayollar zimmasiga tushgan. Endi ular bel baravar ariqlar qazishyapti, dalalarga suv tarashyapti, to'g'onlar qurishyapti...

Nima qilib, qanday qilib onasining yumushini yengillatsa ekan-a? O'ylab o'yming oxiriga yetolmasdi...

Ammo hammadan ko'ra u ertaga xatni berishi haqida, faqat «Oq kabutar» qo'shig'i so'zlarini qo'shib qo'yishi kerakligi to'g'risida o'ylardi. Mirzagul uning xatini o'qiyotgani, o'qib

nimalarni o'ylayotganini tasavvur qilishga urindi. Eh, sevgi haqida xat yozish shunday qiyin ekanki! Nimani izhor etishni istagan bo'lsang tamom aksi bo'lib chiqar ekan. Hech qanday qog'oz yurakdagi tuyg'ularni o'ziga singdirolmas ekan. Qiziq, nima der ekan u? U ham javob xati yozishi kerak. Boshqa nima ham qilardi? Qiz uning sevgisiga qanday qararkin? Uning rozi yoki norozi ekanligini Sultonmurot qayoqdan bilsaykin? Hamma gap shunda. Agar qiz uning sevgisini rad etsa nima bo'ladi?.. Unda nima qiladi?..

Tuyuqjar allaqachon ortda qolib ketdi. Botayotgan quyosh endi uning faqat bir tomonidagina nur sochib turardi. Zamin hamon o'sha qish sukunati va salobati-ni saqlab yotardi. Odatda bo'ron oldidan bor narsani qo'porib parchalab tashlash uchun shunday sokinlik, osoyishtalik hukm suradi. Bunaqa paytlarda yovuz kuchlarni qaytarish uchun «Yaxshilikka ko'rinsin!» deb qo'yish kerak. Bu ba'zida yordam beradi. «Yaxshilikka ko'rinsin!» — deb qo'ydi ichida Sultonmurot oldingi birinchi manzil uchun qulay joyni ko'zdan kechirarkan.

Shunday joy tanlash kerakki, so'ngra qiynalmay oyoqqa turish kerak bo'lsin. Ko'ray olib ketayotgan odam avval bog'lamga yelkasini qo'yib tebrangancha turishga chog'lanadi, chog'langanda ham bog'lam bilan birgalikda tebranib sekin orqalab oladi. Agar ortiqcha kuch bilan turmoqchi bo'lsa, bog'lam boshi ustiga surilib ketib baqaday yalpayib qolishi mumkin: tebrana turib tizzalash kerak, keyin oyoqqa turib olgach, «Yo pirim!» deb, iloji boricha qad rostlab olinadi. Avval yaxshilab nafas olish kerak bo'ladi.

Sultonmurot bog'lam ustida chalqancha yotib, bir daqiqa ko'zlarini yumdi. Eh, arqonni ko'krakka tashlab yotish qanday yaxshi-ya! U keyingi manzil qayerda bo'lishini chamalagancha og'ir yo'l azobidan keyin maza qilib chalqanchasiga cho'zilgan edi. Shunday holda qanday qilib faqat qizni o'ylolyapti-ya?

— Faqat javobni kechiktirmay yozgin, eshityapsanmi? — unsiz pichirladi o'z-o'zicha jilmaygancha. So'ng atrofga quloq tutdi.

G'ira-shira qorong'ilik cho'kayotgan bu oqshomda atrof ulug'vor va ajib bir sukunat qo'ynida edi.

YETTINCHI BOB

Shunday kunlar yaqinlashmoqda edi...

Mast uyquga ketgunga qadar uzzukun to'lqinlanib, orziqib Mirzagulning javob xatini kutish hissi uni tark etmadi... U nima bilan mashg'ul bo'lmasin, nima ishga tutinmasin, shu hakda tinimsiz o'ylardi. U jon-jahdi bilan ishlar, desantiga topshiriqlar berar, xayolida esa Ajimurotning maktabda otxona tomon yelib uchishini orziqib kutilgan javob maktubini olib kelishini kutardi. Hatto Ajimurot ikkovi kelishib olgan ham edilar. Agar Mirzagul javob bergan bo'lsa, Ajimurot sakrab-sakrab yugurishi, qo'llarini silkitib hakkalashi, agar javob bermasa, qo'llari shimi cho'ntaklarida, yugurmay, asta qadam tashlab kelishi kerak edi.

Sultonmurot hadeb yo'lga qarayverardi. Biroq ukasi har kuni qo'llarini cho'ntaklariga

solintirgancha kelardi. Sultonmurot tushunolmay, iztirob cheka boshladi. Uning toqati toq bo'lgandi. Dastlab uchrashganda qiz ukasiga nima deganini, qizning yoniga qanday yaqinlashgani va ular nimani gaplashganliklarini bilish uchun u Ajimurotdan ijikilab qayta-qayta so'rab-surishtiraverardi. Uyga ukasi allaqachon uxlab qolgan paytda kelardi. Uning yana nimalarnidir so'ragisi kelardi. Biroq surishtirishning hojati ham qolmagan edi. Ajimurotning aytishicha, bu badfe'l Mirzagul bekach tanaffus paytlari umuman u bilan gaplashmas, o'zini hech narsa bilmaganday tutarkan. Go'yoki hech qanaqa xat olmaganga o'xsharkan. Tanaffus paytlari dugonalari bilan jo'rttaga gaplashib turar, Ajimurotni esa o'zi so'rab, qo'llaridan tortmaguncha payqamas ham ekan.

Bularning sababini Sultonmurot hech tushunib yetolmasdi. Mirzagul, agar u bilan hech qanday munosabatda bo'lish istagi bo'lmasa, nega javob bermaydi, nega buni ochiq aytmaydi? Nega indamaydi, nahotki javob kutish qanchalik azob va og'ir ekanligiga aqli yetmasa?

U shunday o'ylar bilan uxlab qolar, ertalab esa yana shu hakda o'ylay boshlardi. Vaqt ham tugab borardi. Mana, muzlar erib, yer erkin nafas oladigan, dalada birinchi jo'yak tortiladigan paytlar kelib qoldi, sen bo'lsang hammasiga ulgurishing kerak.

Bir kuni Sultonmurot ukasiga dedi:

— Meni yaqinda Oqsoyga, uzoq vaqtga ketadi, deb ayt.

Javob qisqa bo'libdi...

«Bilaman», — debdi, xolos.

O'ylayverib uning boshi qotib qoldi. Goho maktabga chopib borgisi, tanaffus bo'lishini kutib turib, uni tutib olib barini o'zi so'rab bilgisi kelar edi-yu, biroq ikkilanardi. Ilgari juda oddiy bo'lib tuyulgan narsalar endi mashaqqatli edi. Qo'rquv, jur'atsizlik, uyat va ikkilanishdan xuddi tog'-u toshdagi o'zgaruvchan havo kabi uning yuragini larzaga keltirar edi...

Ishni ham tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ish degani tiqilib ketdi. Desant komandiri bo'lish oson emas ekan. Erta tongdan kechgacha, qo'li bo'shamaydi. Oqsoyga ketish muddati yaqinlashgan sari battar tashvishlar ko'payaverdi.

Kirib kelayotgan bahor tashvishlarni ko'paytiribgina qolmay, ularning turmushlarini yashnatib yubordi. Soy bo'yi bahor yanglig' kengayib, xushnud bo'lib ketdi. Muz go'yo tutun kabi g'oyib bo'ldi. Muzlardan xalos bo'lgan soydagi suv yanada jonlanib shovullagancha toshlar ustidan chopa ketdi. Tez oqayotgan zangori suv ostidagi har bir mayda toshlar nur va soyada jilvalanardi. Otlar endi tuyoqlaridan qatra-qatra suv tomchilarini sachratib pishqirganlaricha soy o'rtasigacha yo'rg'alashib borishardi. Bolalar ham otlariga minishib, to'daga qo'shilishardi. Kulgilar, muzday suvning sachrashidan qiychuv, to'polon avjiga chiqardi.

Xuddi shu paytda Sultonmurot suv bo'yida turarkan, qizga ko'zi tushib qoldi. Soyning kechuvida uni ko'rdi-yu, joyida qotdi. Nega o'zini yo'qotib qo'yganday bo'ddi-ya? Mirzagul yolg'iz emasdi. Ular, qizlar to'rtta edilar. Ular maktabdan qaytishmoqda edilar. Ularni ko'rmay qolishi ham mumkin edi... Ozmuncha odam kechuvdan o'tmaydi deysizmi. Bir omadi kelib qoldi! Dafatan ko'rdi-yu, joyida qotdi. Ko'rgan zahoti qizni tanidi-yu, Chopdorning tizginidan tutganicha qotib qoddi. Soyning sayoz joyidan qulochini yozib muvozanat saqlab o'tar ekan, qiz ham Sultonmurotni ko'rdi, qirg'oqqa chiqib to'xtab, u tomonga nigoh tashladi. Dugonalari bilan ketayotib ham bir necha bor orqasiga qarab qo'ydi. Har gal Mirzagul u tomonga o'girilib qaraganda Sultonmurot o'z baxtiga peshvoz yugurgisi, bir yo'la, ochiq-oydin, talmovsiramay uni qanchalik sevishini aytishga tayyor edi. Usiz yashay olmasligini aytgisi kelardi. Ammo qiz har o'girilganda jur'ati yetmay, joyida qotib turaverardi. Mirzagul dugonalari bilan Orolko'cha boshida g'oyib bo'lgan bo'lsa ham u hamon Chopdorni kechuvda tutib turar, boshqa otlar esa allaqachon suv ichib bo'lishib qirg'oqqa chiqishgan edi. Bolalar otixonaga jo'nash uchun otlarni bir joyga to'plashdi, u bo'lsa hamon go'yo Chopdorni sug'orayotganday joyidan qo'zg'almasdi...

Keyinroq esa bu hakda o'ylab ajablendi, ilgariroq uni shu yerda, maktabdan kelayotganida kutib turish mumkin ekanligiga aqli yetmaganligi uchun o'zini koyidi. Ha, o'sha yerda soyning kechuvida ittifoqo uni uchratib qolishi mumkin ediku axir. Nega avvalroq bu fikr kallasiga kelmadiykin? Albatta, endi o'zi harakat qilmog'i, qizni uchratib, maktubi xususida qanday fikrda ekanligini bilmog'i kerak.

Agar u desant otlarini sug'orishga odatdagidan biroz kechroq haydasa, shunday uchrashuv xudoning bergan kuni takrorlanishini u keyin bildi. Har safar ular otlarni kechuvdan haydab ketishlari bilanoq shu yerda Mirzagulning paydo bo'lishi, o'zining esa mana shu oddiy narsani payqamaganligini his qilishi Sultonmurotga juda ham alam qildi. Hammasi shundoq jo'ngina ekan-u, u bo'lsa izzitirob chekib, qiynalib yuribdi.

Endi u qizni kutib turishga qat'iy qaror qildi. Ertasiga Sultonmurot kechuvda ataylab ushlanib, bolalarga tezda qaytishini, Chopdorni yaxshilab choptirajagini aytib, bolalardan otlarni sug'orib qaytgach, uning ham otlarini joyiga bog'lab, yem solib qo'yishlarini iltimos qildi.

Yana Onatoy oraga suqildi.

— Kimni kutayotganingni bilaman, — dedi u surbetlarcha.

Odam ham shunday bo'ladimi?

Sultonmurot ham tezlik qildi. «Bilsang bilibsan-da, nima bo'пти?»— deb jimgina tinchitib qo'yish o'rniga Onatoyga o'shqirdi:

— Sen fashist josusisan!

— Kim josus? Men-a?

— Ha, sen!

— Qani isbotla! Agar men josus bo'lsam, mayli, tribunal otib tashlasin! Yolg'on bo'lsami,

tumshug'ungga tushiraman.

Ular bir-birlariga o'dag'aylashib, otlarini chu-chulab niqtashib, bir-birlarini surishgancha soy o'rtasida gir aylana boshlashdi. Bir-birlariga baqirishib, g'azab bilan hezlanib, bir-birini ot ustidan itarmoqchi bo'lishardi. Qirg'oqda bolalar kulishar, ularni masxara qilib, gij-gijlardilar, ular esa hamon ikkita xo'rozday chinakamiga cho'qishardi. Atrofga suv sachrab, otlar soyda taqalarini g'ijirlatgancha toshga qoqila boshladilar. Shunda Erkinbek baqirdi: — Hey, otlarni mayib qilasanlar!

Ular tezda o'zlariga kelishdi, hatto bahona topilganiga suyunishib, indamay bir-birlaridan nari ketdilar.

Biroq baribir kayfiyati buzilgandi. Bolalar otlarni otxonaga haydab ketganlaridan so'ng ham Sultonmurot zo'rg'a harsillab nafas olardi. O'zini biroz ovutish uchun yo'ldan ko'zini uzmay soy bo'ylab otini yo'rttirib ketdi. Uncha olislab ketmasdan orqasiga o'girilib qaradi-yu, qizni ko'rib qoldi. Mirzagul xuddi kechagiday dugonalari bilan kelmokda edi. Ular o'zlari bilan o'zlari ovora, kimdir ulardan birini deb mushtlashishiga sal qolgani, iztirob chekayotgani, g'am-g'ussaga botib yurgani bilan ishlari yo'q edi. Yaqinda Sultonmurotning onasi o'g'liga qarab qo'rqib ketdi: «Senga nima bo'ldi? Kasalmasmisan? Rangingni qara-ya!» Onasini yupatib, qo'liga ko'zgu olib qaradi. Oynaga qaramaganiga ancha bo'ldi, hech vaqti bo'lmaydi, haqiqatan ham keyingi kunlarda juda o'zgarib ketibdi. Ko'zlari xuddi kasallarnikiday kirtayib ketibdi, yuzi tirishib, bo'yni ingichka tortib cho'zilib qopti. Qoshlari orasiga xuddi ajinday ikkita chiziq tushib, lablari ustida esa qop-qora tuklar paydo bo'libdi. Agar chiroq yorug'uda razm solinmasa, shundoq ko'rinmaydi. Qarang-a! Butunlay boshqacha bo'lib ketibdi, tanib bo'lmaydi... Otasi frontdan qaytsa, darrov taniy olmasa ham kerak...

Sultonmurot otda to'g'ri qizga tomon yaqinlasha bordi. Shu payt Mirzagulning bir-ikki marta kechuv tomonga qarab qo'rganini ko'rib qoldi. Qizning ham ko'zi unga tushib, cho'chib ketdi va joyida to'xtab qoldi, keyin tezda o'zini o'ngladi-da, dugonalari bilan birga yurib ketdi. Ular go'yo hech nima bo'lmaganday toshdan toshga sakrab soydan o'tishdi-yu, uy-uyilariga tarqab ketishdi. U esa qizlarning yonidan quvib o'tib, xuddi qayoqqadir ish bilan shoshib borayotganday, ekinzorlarni oralab qizga to'qnash kelish umidida ko'chaga chikdi. U qizni ko'chaning u boshida ko'rdi. Sultonmurot bu yerdan sekin yura boshladi. Ular bir-birlariga yaqinlashganlari sayin uni vahima bosa boshladi. Sultonmurotga hamma derazalardan, eshiklardan kuzatib turganday hamda ularni qanday uchrashishlarini va uning qizga nima deyishini kutib turishganday tuyulardi.

Mirzagul unchalik shoshilmay kelardi. Sultonmurot nima sodir bo'layotganini, nega hayajonlanayotganini tushunmas edi. Ular axir bir sinfda o'qishadi-ku, uning biron narsasini tortib olish, bir paytlar hatto xafa qilish ham hech gap emas edi. Hozir bo'lsa qizga hadiksirab, titrab-qaltirab yaqinlashmoqda edi. Endi uning bu uchrashuvdan qochib, bosh tortib ketgisi kelardi-yu, ammo kech edi. Ehtimol, Mirzagul uning holatini sezgandir. To'qnashishlariga ozgina qolganida qiz birdan shoshilib uylariga yetmasdanoq qo'shni hovliga o'zini urdi. Sultonmurot xursand bo'lib yengil nafas ola boshladi. Qizdan judayam

minnatdor bo'ldi. Yakkama-yakka uchrashish shunchalik ham qiyin bo'ladimi.

Keyinroq esa jur'atsizlik qilgani uchun o'zini o'zi koyiy boshladi. Tunda uyqusi qochdi, ertalab o'rnidan turgach, qiz haqida o'ylab, bugun qanday bo'lmasin, yoniga borib, to'ppa-to'g'ri aytishga va jiddiy turib xatiga javob yozadimi-yo'qmi, qachon yozadi, shularni so'rashga ahd qildi. Agar javob bermasa xafa bo'lib o'tirmaydi, erta-indin Oqsoyga jo'nab ketadi, o'tgan gaplar orada qolsin. Xuddi shunday deydi.

Shunday qat'iy qaror bilan kunni boshladi, mana shu maqsadda ishladi, shu maqsadda otlarni sug'orib kelgach, yana soy tomonga jo'nadi. Chopdorni minib bordi. Qirg'oq bo'ylab otda u yoq-bu yoqqa yura boshladi. Shu asnoda yurarkan, beixtiyor ovuldagi tomlarda ham, uylarning soya tushib turadigan tomonlarida ham umuman qor qolmaganligiga ko'zi tutddi, qish bo'yi tepaliklarda xiylagina to'planib qolgan qorlar esa to'q sariq tusga kirib turar edi. Xuddi ular qachonlardir zoologiya darsida daftarlarga rasmi chizilgan amyobalarni eslatardi.

Kecha otxonada rais Tinaliyev bilan Chekish brigadir Oqsoy desantini sinovdan o'tkazishdi. Hamma pluglar nomerlab qo'yilib, qo'shchilarga birkitildi. Sultonmurotga birinchi nomerli plug tegdi. Keyin har birlari o'z otlariga jabduq urdilar. Bu ishni qanchalik uddalay olishlarini ko'rsatishdi, otlarni qanday plugga qo'shishlarini namoyish qilishdi. Beshta ulovning hammasini bir qatorga tizdilar. Umuman, bularning hammasi chetdan qaraganda ajoyib, salobatli ko'rinardi! Xuddi tachankalarga o'xshardi-yu, faqat ularning o'rnida pluglar bor edi, xolos. Otlar baquvvat, jabduqlar sozlab tortilgan, pluglar esa moyday yaltiramoqda edi. Rais Tinaliyev xuddi armiya qo'mondoni singari salobat bilan desant oldida yuribdi. Har bir bolaning qarshisiga kelib:

— Tayyorgarliging haqida axborot ber! — deydi.

— Axborot beraman. Qo'l ostimda to'rtta taqalangan ot, to'rtta yaxshi bo'yinturuq, to'rtta abzal, sakkizta qayish, bitta egar, bitta qamchi, uch juft zapas tishlari bilan bitta ikki tishli plug bor.

Xuddi armiyadagiday. Faqat Chekish brigadirning qovog'i soliq. Albatta, u keksa odam, bularni qayerdan tushunsin!

Tekshiruv yaxshi o'tdi. Biroq ikkita so'roqda desantchilar baribir noqulay ahvolga tushib qolishdi. Rais Tinaliyev hammalarini Ergashning plug qo'shilgan otlari yoniga chaqirdi.

— Qani, jabduqdagi kamchilikni topinglar-chi, — deb qoldi u.

Hamayog'ini qarab chiqishdi, paypaslab ko'rishdi hamki, biroq hech nima topisha olishmadi. Shunda buni rais Tinaliyevning o'zi ko'rsatdi:

— Bu nima? Nahotki to'riq otning ayili yonboshida buralib qolganini ko'rmayotgan bo'lsalaring? Mana qaranglar! Buralib qolgan ayil otning yonboshini shilib yuboradiku. Ot boyaqish buni qanday aytadi. Tortaveradi, ertasiga esa yonboshi shishib ketadi, keyin otni qo'shga qo'shib bo'lmaydi. Men zapas otlarni qayerdan topaman sizlarga? Zapas otlar yo'q menda! Demak, abzalga befarq qarash natijasida plug to'xtab qoladi! Qani, o'ylab ko'ringlarchi, bizning shunday ishga yo'l qo'yishga haqimiz bormikin? Biz qish bo'yi nimaga

tayyorlandik axir?..

Hammalari uyalib ketishdi. Bundoq qaraganda jo'ngina narsa-ku...

— Sultonmurot, desant komandiri sifatida sen doim ish boshlashdan avval otlarni kim qanday qo'shganligini tekshirishga majbursan. Tushunarlimi! — deb tayinladi rais Tinaliyev.
— Tushunarli, o'rtoq rais!

Desantchilarni dog'da qoldirgan ikkinchi masala yanada mushkul edi. Endi bu gal desant komandirining o'zi noqulay ahvolda qoldi. Rais Tinaliyev ularni savolga tutardi:

— Qani aytinglar-chi, abzallarni kechqurun, ish tugaganidan so'ng qayerda qoldirasizlar?

Ular o'ylanib qolishib, bunga har xil javob qaytarishdi. So'ngra abzalni dalada, pluglar yonida qoldirishga kelishishdi.

— Komandir, sening fikring qanday?

— Men ham shu fikrdaman. Abzallarni ham otlarni qo'shdan chiqargan joyimizda, pluglar yonida qoldiramiz. Ko'tarib yurmaymiz-ku, axir!

— Yo'q, bu noto'g'ri. Abzallarni kechasi dalada qoldirib bo'lmaydi. Birov olib ketmasligi uchun emas.

Oqsoyda o'g'irlab ketadigan hech kim ham yo'q. Kechasi yomg'ir yo qor yog'ib qolishi mumkinligi uchun ham qoldirib bo'lmaydi. Abzallar ivib ketadi. Abzallar xom teriku axir. Dalada uni tulki yoki bo'lmasa sug'ur g'ajib ketishi mumkin. Gap nima haqida borayotgani tushunarlimi? Demak, nima qilish kerak? Pluglar dalada qoladi. Qo'shdan chiqarilgan otlarni abzallari bilan shiyponga olib kelasizlar. Sizlarga o'tov beriladi, o'shanda yashaysizlar. O'tov bitta, xolos. Menda boshqa o'tov yo'q. Har bir kishi jabduqni o'tovga olib kelib, o'zi yotadigan joyga yaxshilab taxlab qo'yadi. Tushunarlimi? Jabduqlarni boshingizga qo'yib yotasiz! Qonun shunday! Bu sizlarning qurolingiz! Har bir soldat esa eng avval qurolini asraydi!

O'sha kuni Oqsoy otryadi to'liq jangovar tayyorgarlikni namoyish etish uchun saflanganda rais Tinaliyev shunday degandi.

Bu kunlar yaqinlashmokda edi... Hamma narsa shunga qaratilgan edi...

Xuddi shunday...

Ha, uch-to'rt kundan keyin, agar havo aynib qolmasa, ular Oqsoyga jo'nashlari aniq edi. Bu holda Mirzagul bilan yozgacha ko'rishmasligi turgan gap. Sultonmurot shuni o'ylab qo'rqib ketdi. Uzoqdan bo'lsa ham uni shuncha vaqtgacha ko'rib turishdan mahrum bo'lishni tasavvur qilish qiyin, hecham mumkin emas edi! U yana qizdan bugun anig'ini bilib olishga qaror qildi. Agar yo'q desa, bu unchalik katta falokat emas, kutishga ham vaqti yo'q, bundan Oqsoydagi ishlar muhimroq...

Sultonmurot qirg'oq bo'ylab borarkan, hech ko'zini yo'ldan uzolmadi. U xavotirlana

boshladi. Vaqt esa o'tmoqda edi. Biroq, mana, qizlar ham kelishyapti! Ular orasida Mirzagul yo'q edi. Dugonalari kelishar, u bo'lsa yo'q edi. Sultonmurot ranjidi. Shunday bo'lgach, nima ham qilsin. Ko'ngli buzilib otxonaga qaytdi. Ammo balki qiz kasaldir yoki boshqa biror hodisa sodir bo'lgandir, deya yo'l-yo'lakay xavotirlanib ketdi. Bu xavotir borgan sari kuchaya borgani tufayli, buni bilmaguncha tinchlanmasligini his etdi. U qizlardan so'rashga ahd qildi. Chopdorning boshini ular tomonga burdi. Shunda birdan uning ko'zi qizga tushib qoldi. Mirzagul yolg'iz o'zi kelardi. U soydan o'tadigan joyga yaqinlashib qolgan edi. Sultonmurot qiz bilan kechuvda uchrashish uchun Chopdorning jilovini bo'shatdi. U shunday hayajonlangan ediki, oxirgi daqiqalarda beixtiyor o'z-o'zidan «Jonginam!» — deb yuborganini ham sezmay qoldi.

Sultonmurot qizni kechuvda qarshi oldi. U otdan irg'ib tushib jilovidan tutgancha qizning qirg'oqqa chiqishini kutib turdi.

Mirzagul unga qarab jilmaygancha kelardi.

— Yiqilib ketma yana! — u qizga shunday keng chim yotqizilgan soyning kechuvidan yiqilish xavfi bo'lmasada, qichqirdi. Qizning chimlar ustidan yurib kelayotgani qanday yaxshi! Mana bu o'jar soyga har qanday ko'prik va ko'prikchalarning bardosh berolmagani qanday yaxshi!

U qo'lini uzatgancha qizni kutib turar, Mirzagul esa hamon undan ko'zini uzmay, jilmayib peshvoz kelardi.

— Yiqilib ketma yana! — dedi u qayta.

Qiz hech nima deb javob qaytarmadi. U faqat jilmayib turardi. Qizning nigohidanoq Sultonmurot hamma savollariga javob oldi. Rosa tentak ekanda o'ziyam, xat yozib, javob kutib bekorga azoblanib yurganini-chi...

Mirzagulning uzatgan qo'lini kaftiga oldi. Shuncha yil bir sinfda o'qib yurib uning shunchalik mehribon, ziyrak qo'llarini bilmas ekan. «Mana men keldim! — derdi qizning qo'li. — Shunday shodmanki! Nahotki xursand ekanligimni sezmayotgan bo'lsang?» Sultonmurot Mirzagulning yuziga bokdi. Qarab hayratga tushdi — u qizda o'zini ko'rdi! Xuddi u kabi Mirzagul ham vaqt o'tishi bilan tamom boshqacha bo'lib qolgan, bo'yi cho'zilib, ulg'ayib, xuddi kasaldan turgan kishinikiday ko'zlari ma'yus, o'zi parishon bo'lib qolgan edi. Mirzagul ham doim uni o'ylab kechalari uxlamay chiqqani, sevgani uchun ham ana shu muhabbat qizni Sultonmurotga o'xshatib qo'ygandi. Mana shuning uchun ham Mirzagul yanayam go'zalroq, qadrdonroq bo'lib ko'rinardi. Qiz o'zining shu turishi bilan go'yo baxt va'da qilib turardi. Sultonmurot bularning hammasini bir daqiqaning o'zidayoq tushunib, his etdi. — Men seni kasal bo'lib qoldimi deb o'ylagandim, — dedi u titroq tovushda.

Mirzagul bu so'zlarga hech nima deb javob qaytarmay, dedi:

— Mana, — u Sultonmurotga atalgan ro'molchani uzatdi. — Bu senga! — dedi-yu, yurib ketdi.

Keyinchalik u bu shohi ro'molchani necha martalab qayta-qayta tomosha qildi. U

ro‘molchani cho‘ntagidan olib, solib qo‘yar va yana olardi. Bir varaq daftar qog‘ozi hajmida keladigan ro‘molcha chetlari chiroyli gul va yaproqlar shakli bilan bezab tikilgan, bir chekkasiga, bezaklar orasiga ikkita katta va bitta kichkina harflar bilan qizil ipda: «S. j. M» deb tikilgan, buning ma‘nosi «Sultonmurot jana Mirzagul», ya‘ni Sultonmurot bilan Mirzagul degani edi. Ular maktabda qirg‘iz alfaviti reforma qilinmasdan oldin o‘rgangan mana shu lotincha harflar Sultonmurotning uzundan uzoq maktublari va she‘rlariga javrb edi.

Sultonmurot otxonaga shodligini bazo‘r bosganicha qaytib keldi. U buni birovlar bilan baham ko‘radigan baxt emasligini, bu faqat uning o‘zigagina atalganligini va boshqa hech kim o‘ziday baxtiyor bo‘lolmasligini his qilardi.

Biroq bugungi uchrashuv haqida bolalarga judayam aytgisi, o‘ziga sovg‘a qilingan ro‘molchani ularga ko‘z-ko‘z qilgisi kelardi...

Ishi yurishib ketdi. Bolalar otlarini sug‘orib, taglarini tozalashdi, chelaklarda sulini olib kelib, oxurlarga xashak solishdi. U birpasda ishga kirishib ketdi. Qashlog‘ich bilan otlarining tarang, baquvvat yag‘rin va yonboshlarini tez-tez qashlab, xashak olib kelgani yugurdi. Yugurarkan, hamisha soldatcha gimnastyorkasining ko‘krak cho‘ntagiga tikib qo‘yilgan ro‘molchasini tuyardi. Go‘yo ko‘kragida ko‘zga ko‘rinmas cho‘g‘ yonib turganday edi. Shu tufayli ham u xursand, hayajonda edi. Baxtiyorligi — Mirzagul uning muhabbatini qabul etganligidan, hayajonlanishi sababi esa allaqanday anglashilmas tuyg‘ularning paydo bo‘layotganidan edi...

U beda keltirish uchun otxona ortidagi beda g‘arami tomon yugurdi. Bu yer jimjit va yoruqqina bo‘lib, qurigan o‘tlarning hidi anqib turardi. Uning yana ro‘molchaga judayam qaragisi kelib ketdi. Cho‘ntagidan ro‘molchani olib, o‘tlarning ishlari orasidan uning o‘ziga xos hidini ajratib, tomosha qila boshladi. Ro‘molchadan xushbo‘y atirsovun hidiga o‘xshash hid kelardi. U bir kuni maktabda Mirzagulning sochlaridan shunday bir hidni tuygandi. Hozir yodiga tushdi, bu o‘sha hid edi. U ro‘molchani qo‘llarida tutib turarkan, kimdir birdan ro‘molchaga chang soldi. Burilib qarasa, Onatoy!
— Iya, hali sen undan ro‘molcha olib turaman degin?

Sultonmurot lavlagiday qizarib ketdi:

— Bu yoqqa cho‘z!
— Shoshma. Bir ko‘ray-chi.
— Senga aytyapman, bu yoqqa ber.
— Baqiraverma, beraman. Boshimga uramanmi buni!
— Berasanmi, bermaysanmi?
— Qattiqroq baqir, qattiqroq! Sovg‘aga berilgan ro‘molchamni tortib oldi, deb baqirmaysanmi! — de-di-da, ro‘molchani cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

Keyin nima bo‘lganini Sultonmurot bilmay qoldi. Faqat ko‘z oldida Onatoyning g‘azabdan va qo‘rquvdan rangi quv o‘chib ketgan yuzi lip-lip qildi-yu, so‘ngra u bor kuchi bilan raqibini bir tushirdi va birdan qorniga qattiq tepki tushib o‘zi bir chekkaga uchib ketdi. Engashib

yiqlayozdi-da, arang oyoqlarida turib oldi va g'aram yonida yanada g'azabga minib, jon-jahdi bilan Onatoyga tashlandi. Bolalar yugurib kelishdi. Ular yoqalashib ketishdi. Uch kishilashib ularni ajrata boshlashdi. Bolalar, qo'yinglar endi, deya yolvorib, ularning qo'llariga osilib olishar, Sultonmurot bilan Onatoy qonlari qaynab bir-birlarini ayamay mushtlashar va tinmay bir-biriga tashlanishardi. Oqibat nima bilan tugashini — yo o'lish, yoki ro'molchani qaytarib olish ekanligini his etgan Sultonmurot faqatgina: «Ber! Ber deyman!» so'zlarini takrorlardi. Onatoy baquvvat bo'lib, sovuqqonlik bilan harakat qilardi. Ammo adolat va haqiqat Sultonmurot tomonida edi. U tez-tez yiqilsa ham orqa-oldiga qaramay hujum qilardi. So'nggi marta u g'aram yonida yotgan panshaxaga yiqildi. Qo'llari shu onda o'z-o'zidan panshaxaga yopishdi. U panshaxani o'qtalgancha o'rnidan sakrab turdi. Bolalar har tarafga qochganlaricha baqirib yuborishdi:

— Qo'y!

— To'xta!

— Esingni yig'!

Onatoy uning ro'parasida, qayoqqa qochsam ekan, deya alanglab, og'ir nafas olgancha, qo'llari, oyoqlarini yoyib turar, biroq hech qayoqqa qochib ketolmasdi. Bir tomonda g'aram, ikkinchi tarafda otxona devori g'ov bo'lib turardi. Xuddi shu daqiqada Sultonmurot o'zini qo'lga ololdi. Bu oxirgisi ekanini, bundan boshqa chorasi ham yo'qligini u tushunib turardi.

— Bu yoqqa ber, — dedi u Onatoyga, — bo'lmasam yomon bo'ladi!

— Ma, ol! Ma! — hazilga aylantirishga urinib shoshib qoldi Onatoy. — Seni qara-yu!

Hazillashib ham bo'lmaydimi! Tentak! — dedi unga ro'molchani irg'itar ekan.

Sultonmurot ro'molchani ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. Qo'rquvlari o'tib ketdi. Bolalar yengil nafas olishib, g'ala-g'ovur boshlangandan so'nggina Sultonmurot boshi aylanayotgani, oyoq va qo'llari qaltirayotganini sezdi. Yorilgan labidan qonni tuflab, xuddi mast odamday gandiraklab g'aram ortiga o'tdida, o'zini pichan ustiga tashladi, chalgancha yotganicha nafasini rostlab, o'ziga keldi...

SAKKIZINCHI BOB

Kechga borib u Onatoy bilan yarashmagan bo'lsada, biroq oradagi umumiy ishlar ularni bir-biriga murojaat etishga majbur qildi. Baribir ko'ngilda dog' qoldi, voqeaning bunaqa ahmoqona sodir bo'lgani uyat edi. Ammo Sultonmurot bitta muhim sinovdan o'tganini tushunar, agar salgina yuraksizlik qilganida edi, o'zini o'zi hurmat qilmay qo'yishini bilardi. Bunday odam esa desant komandiri bo'lishi mumkin emas edi.

Bunga u o'sha kuniyoq, kechga yaqin otxonaga rais Tinaliyev bilan Chekish brigadir kelganlarida amin bo'ldi. Ularning otlari uzoq yo'l yurib charchagan, loyga botgandi. Tinaliyev bilan Chekish chol tongda Oqsoy tomon chiqib ketishib endigina qaytib kelishgandi. U yoqdan mamnun qaytishdi. Endi uch-to'rt kundan keyin Oqsoyga jo'nashsa bo'laverarkan. Dasht yerlari larsillab yotganmish. Ekishga qulay yerlar ko'p bo'lib, kuching yetguncha haydayverishing mumkin ekan. Qo'ralarga joy belgilashibdi. Dasht uyg'onibdi. Shiypon uchun joy tanlashibdi. U yerga joylashib olish va qish bo'yi tayyorgarlik ko'rgan

narsalarini boshlash qolgan edi, xo-los.

— Xo'sh, ishlar qalay, bolalar? — ularga yuzlandi Tinaliyev. — Kayfiyatlar qalay? Qanday taklif va mulohazalar bor? Keyin tipirchilab qolmaslik uchun ovuldan uzoqlashib ketmasdanoq gapirib qolinglar.

Bolalar jim edilar. Go'yo favqulodda hal qilinishi lozim bo'lgan narsa yo'qday edi. Baribir, hech kim so'nggi so'zni aytishga jur'at qilolmasdi.

— Komandirimiz bor, — dedi Ergash. — U hammasini biladi, o'zi ayta qolsin.

Shunda Sultonmurot hozircha hech qanday kamchilik va muhtojlik yo'kdigini, hammasi rejalab qo'yilganligi, poyabzallar bus-butun qilinganini hamda ust-boshlar yamab-yasqalganligini, yopinishga esa po'stinlar olishligini, qisqasi, o'zlari, ularning pluglari va otlari yer yetilishi bilan istagan vaqtda ishga kirishishlari mumkinligini aytdi.

Keyin har xil mayda-chuyda ishlarni — qozon-tovoq, o'tin, o'tovlarni muhokama qilishib, umumiy xulosaga kelishdi: agar havo aynib, qor yog'ib qolmasa, ikki-uch kun ichida dalaga chiqishadigan bo'lishdi.

Havo durust edi, ko'k yuzini bulut qoplagan bo'lsa-da, quyosh goh chiqib, goh berkinar, yerning hovuri ko'tarilib, qordan xalos bo'layotgan yerdan nam hid anqirdi...

Shunday kunlar yaqinlashmokda edi... Hammaning fikr-xayoli shunga qaratilgan edi...

Qanchalik tayyorlanishmasin, baribir, jo'nash oldidan yana anchagina ishlar qilinmaganligi ayon bo'lib qoldi. Ikkita otning yopig'i yetishmas ekan, borlari esa juda eskirib, uvadasi chiqib ketgan, ularni Oqsoyga olib borishning hojati yo'q edi. Ilk bahor tunlari sovuq, deyarli qish tunini eslatadi, ayniqsa, shudgorlashning birinchi kunlarida... Chekishning aytishicha, avvallari yerni omoch bilan haydashgan vaqtlarida, birinchi kunlar goho tushgacha kechasi sovuq muzlatgan yerning erishini kutisharkan... Tuni bilan yopig'i yopilmay sovuq yeb chiqqan ot esa ulov bo'lishga yaramay qoladi.

Sultonmurotning yana ikkita yaxshi yopiq sotib olishgunlaricha hali idoraga, hali raisga, hali brigadirga, ovulga, kolxozga chopishiga to'g'ri keldi...

Mana shu yugur-yugur va tashvishlar ichida u hammadan ko'proq otlarni sug'orish vaqtini kutardi. Jo'nash oldidan xuddi o'shandagiday soydan o'tiladigan joyda Mirzagulni ko'rgisi kelardi... Har gal umid qilardi-yu, ammo qizni uchratolmasdi. Sultonmurot shoshilar, kutishga sira vaqti yo'q edi. Shuning uchun ham Mirzagul bilan uning orasida doimo aytilmagan qandaydir gap borligini, ayniqsa, jo'nash oldidan ular uchrashmasligi ham mumkinligi tufayli o'zini qandaydir gunohkorday his etardi. Sultonmurot Mirzagulning ham o'zi haqida o'ylashini bilar va bunga u qizning o'shandagi ilk nigoh tashlaganidayoq, Mirzagulda o'z aksini ko'rgan paytdayoq amin bo'lgan edi. Biroq Mirzagulning o'zi uchrashishga intiladi, deb xayoliga ham keltirmasdi. Qizlik g'ururi, nomusi bunga yo'l qo'ymasdi. Qiz unga to'qilgan ro'molcha takdim etib, nima demoqchiligini izhor qildi,

qolgani esa uning ishi, erkaklarcha...

Albatta, u jo'nash oldidan qiz bilan uchrashishi mumkin edi. Mana, yana bir ko'ngilsizlik ro'y bermaganida u shunday qilmoqchi edi. Oqsoyga jo'nash arafasida, desantchilar o'z otlarini oxirgi marta sug'organi olib borishga hozirlanisharkan, Sultonmurot oxirida qolib Mirzagulni kutmoqchi bo'lgandi. Shunda ular suvloqqa tomon yo'l olib endi darvozadan chiqqan edilar hamki, Chekish brigadir kelib qoldi. Uning qovog'i soliq va tund edi. Malla soqoli titrar, tumog'ini ko'zlarigacha bostirib kiyib olgandi.

— Qayoqqa ketyapsizlar?

— Otlarni sug'orishga.

— To'xtanglar. Gap bunday, Onatoy, sen uyingga bor. Onang kasal bo'lib qolibdi. Otdan tush. Sizlar esa, bolalar, tezda suvloqqa borib otlarni tez sug'orib orqanglarga qaytinglar. Men sizlarni shu yerda kutib turaman!

Soy tomon otlarni yo'rttirib borisharkan, Sultonmurot borishda ham, kelishda ham yo'ldan ko'zini uzmay keldi-yu, ammo Mirzagulni ko'rmadi. Hali maktabdan qaytish vaqti bo'lmagan edi. Nega Chekish chol ularni bunchalik shoshirdi ekan-a? Nima bo'ldiykin? Agar shunday bo'lib qolmaganida edi, Mirzagulni albatta bugun kutib olgan bo'lardi! Soyning kechuvida uni yana shunday ko'rgisi kelardiki...

Ular otxonaga qaytishib otlarni joylariga bog'lashgach, Chekish chol to'rtovlarini bir chetga chaqirdi.

— Gap bor, — deb ming'illadi u.

So'ngra o'tiringlar, dedi. Hammalari yelkalarini devorga tiraganlaricha cho'nqayishdi. Rais Tinaliyev tik turib gaplashishni yaxshi ko'rar, boshqalar ham tikka turgani uchun o'zi ham tik turardi. Chekish brigadir esa, aksincha, shoshilmasdan, bamaylixotir o'tirib gaplashishni yoqtirardi. Qariya-da, Chekish chol o'ychanlik bilan hurpaygan malla soqolini silarkan, gap boshladi:

— Yigitlar, sizlar endi yosh bola emasliklaringizni aytib qo'ymoqchiman. Hayotning achchiq-chuchugini tatish erta boshlaringga tushdi. Jazirama tuproqda yurib, muzday yerda yotish... Demak, takdir shunday ekan. Mana, bugun biringizning boshingizga katta kulfat tushdi — Onatoyning otasi, Sattorqul frontda halok bo'libdi. Sizlar endi yosh bola emassizlar, agar biringizning boshingizga kulfat tushsa, ikkinchingiz unga suyanchiq bo'lmog'ingiz lozim. Tayyorlanib turinglar. Odamlarni qarshilab turasizlar. Otlarni bog'lab turasiz. Hozir rahmatli Sattorqulnikida odamlar to'planishadi, sizlar ham o'sha yerda bo'lishlaring kerak. Yosh bolalarga o'xshab Onatoyning yonida hiqillamanglar, hamonki yig'lar ekansizlar, chinakamiga qattiq ovoz chiqarib erkakchasiga yig'langlarki, bundan Onatoyning sodiq do'stlari yig'layotgani aniq bilinib tursin. Men bilan hozir birga borasizlar, shuning uchun ham sizlarni shoshirgan edim...

Ular so'qmoq bo'ylab oldinma-ketin ko'cha oxirida joylashgan Onatoylarning uyi tomon ketishdi. Odamlar shunday sukut saqlaganlaricha otlq va piyoda, turli tomondan to'p-to'p bo'lib oqib kelishardi.

Havo aynib turardi. Goh quyosh chiqib, goh yana ko'k bulut bilan qoplanar, goh birdan yer quchib boldirlarni achishtiruvchi shimol shamoli esib qolardi. Sultonmurot Onatoylar xonadoniga qo'rquvdan, nadomatdan og'ir iztirobga tushib bormoqda edi. Yana bir-ikki minutdan so'ng ovul uzra xuddi uyga o't tushgani kabi dahshatli yig'i-sig'i sadolari ko'tariladi, mana shu bobokalonlari tug'ilib o'sgan tog'larda yana bir odamning azasi boshlanadi, endi u odam urushdan qaytmaydi, hech qachon, hech kim uni ko'rmaydi, bu, albatta, qo'rqinchli edi. «Ko'pdan beri xat-xabar yo'q, otamga nima bo'ldi ekan-a? Omonmikin? Onam bo'lsa vahimaga tushib aqldan ozayozdi. Ishqilib, bunday bo'lmasin, hech bunday bo'lmasin!»

Ular hovliga yaqinlashib qolganlarida Onatoylarning uyidan dahshatli faryod ko'tarildi va bu o'kirik kuchayib, odamlar to'planib turgan hovli va ko'cha bo'ylab yoyildi...

Desantchilar Chekishning orqasidan borarkanlar, bor ovozlari bilan o'kirishar, chol o'rgatganday bir ohangda:

— O'v, Sattorqul otajon, topilmas Sagtorqul otajonimiz, endi seni qaydan topamiz-a, aziz boshing qaysi tuprokda qoldi? — deb rasmana ho'ngrab yig'lashardi.

Shu daqiqada, bu qayg'u umumning qayg'usiga aylangan shu daqiqada, Onatoyning otasi Sattorqul haqiqatan ham ularning o'z otasiday, shuhrati ketgan eng yaqin kishisiday tuyulib ketdi, chunki har bir kishining ulug'ligi uning yaqinlari tomonidan faqat undan judo bo'lganlaridagina bilinadi... Hamma vaqt shunday bo'lgan va doimo shunday bo'lib qolaveradi.

— O'v, Sattorqul otajon, topilmas Sattorqul otajonimiz, endi seni qayerdan topamiz, aziz boshingni qaysi tuproqqa qo'yding?

Desantchilar yig'lab, Chekish bilan odamlar orasidan o'tib hovliga kirishlari bilan eshik oldida turgan Onatoyni ko'rishdi. G'am odamni cho'ktirib qo'yadi. Ularning orasida eng kattasi, kuchli va barvastarog'i Onatoy ham yosh boladay bo'lib qolgandi. U boshiga tushgan bu og'ir kulfatdan ezilib, yosh boladay nola bilan xuddi yomg'irda qolgan toychoq singari mung'ayib devorga suyanib yig'lardi. Yuzlari yig'idan shishib ketibdi. Yonida o'zidan kichik uka va singillari o'kirishardi.

Onatoyning do'stlari uning oldiga borishdi. Onatoy do'stlarini ko'rib boshiga tushgan qayg'udan zorlanib, boshiga tushgan kulfatini ularga to'kib-solib yanada qattiqroq yig'lay boshladi. Bu bilan u go'yo madad so'rab, yordam kutayotganday edi. Onatoyning bu yordamga muhtoj holati hammadan ko'proq Sultonmurotga qattiq ta'sir qildi. Bolalar o'zlarini yo'qotishib, uning atrofida aylanishar, nima qilishni, qanday qilib uni ovutishni bilishmasdi. Hech kim unga yordam berolmaydi. Bu payt hech kim Sultonmurotning qo'liga avtomat olib hovlidan otilib chiqib ketganini va avtomati bilan to'ppa-to'g'ri o'sha yoqqa — urush ketayotgan tomonga yugurib ketganini xayoliga ham keltirmas edi. Uning bir nafas to'xtamay to'g'ri frontga borganini va u yerda qahr-g'azab bilan na'ra tortib, qichqirib, fashistlarni qiyratayotganini, avtomatdan tinimsiz o't sochib, do'sti Onatoyning o'ldirilgan

otasi, ovulga keltirilgan qayg‘u va kulfatlar uchun o‘ch olayotganini bilishmas edi...

Esiz, avtomati yo‘q-da!

Desant komandiri emasmi, Sultonmurot Onatoyga shunday dedi:

— Yig‘lama, Onatoy. Nima qilardik. Mana, Erkinbek va Qubbatqulning otalari ham frontda halok bo‘lishdi. O‘zing bilasan, mening otamdan ham anchadan buyon xat yo‘q. Urush. Tushunasan-ku. Sen faqat bir og‘iz aytasang bas, biz senga yordam beramiz. Sen faqat o‘zingga bir oz yengil bo‘lishi uchun nima qilishimiz kerakligini aytgin...

Ammo Onatoy devorga suyanib, yelkalarini silkitganicha entikib-entikib yig‘lar va hech narsa deyolmasdi. Bu so‘zlar uni ovutish o‘rniga, aksincha, yarasiga tuz sepganday bo‘ldi va u duvillab oqayotgan ko‘z yoshlardan bo‘g‘ilib, nafasi qisilib, ko‘karib ketdi. Sultonmurot chopib borib unga cho‘michda suv keltirdi.

Shu daqiqadan boshlab u o‘zini bu yerda sodir bo‘layotgan voqeaga javobgarday his eta boshladi. Odamlarga qandaydir yordam qilish zarurligini tushundi. To‘rtalovi soydan paqirlarda suv tashishdi, o‘tin yorishib, samovarlarga o‘t qo‘yishdi, to‘plangan qo‘ni-qo‘shnilarni kutishdi, otliq chollarni ulovga mingizib yuborishdi.

Odamlarning oyog‘i uzilmasdi. Birovlar marhum oilasiga ta‘ziyaga kelishar, boshqalari esa ta‘ziyadan o‘z burchlarini o‘tab qaytishardi. Desantchilar kun bo‘yi Onatoylarnikida bo‘lishdi.

Sultonmurot muallima Inkamol opa yettinchi sinf qizlari, ularning orasida Mirzagul bilan kelib qolishganlarida juda og‘ir daqiqalarni boshidan kechirdi. Inkamol opa Onatoyni quchoqlab olganicha shunchalik bo‘zlab yig‘ladiki, unga ko‘z yoshisiz qarab bo‘lmas edi. Mashhur folbinning muallimaning o‘g‘li haqidagi karomati to‘g‘ri chiqmadi, zotan unga opaning o‘ziyam ishonmagan edi. Dilidagi xavotirlikni, g‘amni tarqatish, qayg‘u-hasratga to‘lib ketgan yuragini bo‘shatish uchun u ko‘z yoshlariga erk berib yubordi. Qizlar ham muallimalari yonida yig‘lab turishardi. Mirzagulning boshi egik, unsiz ko‘z yosh to‘kar, balki shu payt u otasi va akasini eslab ezilayotgandir. U Sultonmurot tomonga biron marta ham qayrilib qaramadi. Mana shu holatda ham, iztirob va kulfat og‘ushida ham u hammadan go‘zal edi. Sultonmurotda eng oliy hamdardlik faxr hissini uyg‘otdi. U qizning yoniga borgisi, uni quchoqlab yig‘lagisi, qayg‘usiga sherik bo‘lgisi kelardi...

*...Eh, Mirzagul, Mirzagul bekach,
Oq kaptar sen ko‘kdagi,
Men tuyg‘un qush to‘pdagi...*

Shundan so‘ng hovlida qur‘on o‘qilgach, hamma hozir bo‘lganlar o‘zlari bilan o‘zlari yolg‘iz qolishib, jimgina kaftlarini ochib, xuddi taqdir kitobiga qaraganday unga termilganlaricha bundan ming yillar muqaddam yiroq Arabistondan kelib qolgan, tug‘ilganda va o‘lganda dunyo mangu deb e‘lon qilgan Qur‘onning tantanavor va qiroatli ohangini tinglab turishardi.

Bu gal qur'on Onatoyning otasi — urushda shahid bo'lgan Sattorqulga bag'ishlanib o'qilmoqda edi. Sultonmurot o'sha ibodat mahalida ham kaftlari ustidan ko'zini ochib qizga qaradi. Hamma qatori diqqat bilan razm solib turgan yosh Mirzagul g'oyat go'zal edi. Qizning yuzida chuqur o'ychanlik mavjud. U Sultonmurot tomonga qaramadi.

Shunday, qiz loaqal bir so'z qotmay ketdi. Faqat u ketayotib Sultonmurotga qayg'uli nigoh tashlarkan, boshini tebratib qo'ydi. Eh, Mirzagul, eh, Mirzagul bekach...

Marhum Sattorqul uyidagi faryod bir oz pasaydi. Atrofga judolikka ko'nikishga da'vat qiluvchi dahshatli sukunat cho'kdi. Yig'i — bu norozilik, g'alayon, tug'yonning belgisidir, yaqindagina bo'lib o'tgan voqeani qaytarib bo'lmasligiga tushunib yetish esa eng dahshatlisi. Shunday daqiqalarda odamni eng qayg'uli fikrlar chulg'aydi.

Onatoy devor tagida boshini xam qilib o'tirardi. Sultonmurot unga qarashga yuragi betlamasdi. Qo'pol, kuchli, badjahl Onatoyni kulfat bukib qo'ygandi. Bundan ko'ra uning baqirib yig'lagani, ust-boshini yirtib, o'zini har yoqqa urgani yaxshiroq edi.

Sultonmurot qanday qilib uni bu qayg'uli, nochor ahvoldan qutqarishni bilmasdi. Ammo u Onatoyga yordam qilishi kerak edi, qanday yo'l bilan bo'lmasin, uning yolg'iz emasligini, yonida odamlar, uning uchun jonlarini fido etishga tayyor odamlar borligini bildirishi kerak edi.

— Onatoy, yur, senga bir gapim bor, — dedi unga Sultonmurot.

Onatoy o'rnidan turdi va ular bir chekkaga o'tishdi.

— Xayolingga boshqa narsa kelmasin tag'in, Onatoy, — deb so'z boshladi Sultonmurot juda hayajonlanganidan zo'rg'a so'zlab. — Axir men, o'sha... Xohlasang o'sha ro'molchani senga butunlay beraman.

Onatoy ma'yus jilmaydi.

— Nimalar deyapsan, Sulton! Kerak emas, — dedi u. — Ro'molcha seniki, uni hech kimga berma. Men bo'lsam... Sen meni kechir, kechir meni, unut hammasini. Men endi hech qachon bunday qilmayman, Sulton. Endi menga hech narsaning keragi yo'q... Mening otam, u shunday ediki... Biz uni shunday kutayotgandik-ki...— Onatoyning o'pkasi to'lib yana ho'ngrab yig'lab yubordi.

Endi ular ikkovlashib o'zlari tug'ilgan va yashayotgan shu davrlari bilan xoli qolib yig'lashardi...

TO'QQIZINCHI BOB

Oqsoy yerlarida pluglar ishlayotganiga uch kun bo'ldi. Uch kundirki, qo'shchilar o'z otlarini to'xtovsiz chuchulashib haydashardi. Yerda Oqsoy desantchilarining ilk mehnatlari mahsuli bo'lgan qoramtir jo'yak hosil bo'ldi. Jo'yak soz olingan, ko'rib ko'z quvonardi. Endi hamma ish ob-havoga qarab ketaveradi.

Ulug' Manas cho'qqilari poyidagi bu bepoyon tog' etagida qadim-qadimdan hech kim buzolmagan osudalik hokim edi. Chimkent va Toshkentning suvsiz yerlariga qarab cho'zilgan Oqsoy dashti shu yerdan boshlanardi. Cho'lning bu oyoq tegmagan bosh qismida plug qo'shilgan ulovlar orqalaridan uzun iz qoldirib, tepalik tomon o'rmalab ketayotgan mayda qo'ng'izlarni eslatardi.

Hozircha uchta plug ishlamoqda edi. Ergash va Qubbatqulni ovulda, kuzgi ekinlarni boronalab, ildizdagi namni yo'qotishga yordamlashishlari uchun bir necha kunga olib qolishdi. Bu ishning kechiktirib bo'lmasligi anig'u, biroq Oqsoyda ham vaqt kutib turmaydi-da: ularning mo'ljalicha, yerni haydashga ulgurish uchun hamma desant pluglari ertalabdan kechgacha ishlashi kerak, bo'lmasa ulgurisholmay, butun mehnatlari chippakka chiqadi. Sultonmurot qolgan ikki ulovning shu kunlarda kelib qolishini kutib bezovta bo'lmokda edi. Va'da berishganlari tufayli ham u Chekish brigadir bilan qattiq aytishib qoldi. — Borib ayting, oqsoqol, — dedi u, — rais Tinaliyevning o'zi kelib, hal qilib ketsin. Uchta plug bilan bu yerda hech nima qilib bo'lmaydi. Topshiriqni bajara olmaymiz...

Cekish chol nima ham derdi? Uning ham qo'li qisqa. Sultonmurot aqlli, tadbirkor brigadirga kolxozda ishlash qanchalik qiyin ekanligini tushunadi. Uning ham hammasini o'z vaqtida, tartib bilan saranjom-sarishta qilgisi keladi-yu, ammo xuddi tagingdan chiqqan olovday tashvish oyog'ingdan oladi, buning ustiga, bahorgacha uni-buni qilib olishni ko'zlaydi-yu, odam yo'q, ishchi kuchi yo'q, oziq-ovqat yo'q. Unisini qilsang, bunisi qolib ketadi. Kecha u o'tirib bosh qotirdi. Ovulda qahatchilik. Zapaslari tugay deb qolibdi, yangi hosilgacha esa hali qayda. Hayvonlar qoqsuyak bo'lib qolgan, yemish bo'lmasa ochdan o'lishi turgan gap, ularni so'yishdan esa naf yo'q. Kasal uchun bir kilo go'sht sotib olgani ot-ulov qilib bozorga borishadi. Bir kilo go'shtning narxi ilgarigi butun bir molning narxidan qimmat. Biroq baribir kerak-da, borishyapti. Hatto ot-ulovdagina emas, piyoda bir parcha et deb o'ttiz-qirq kilometrlab yo'l bosib borishyapti. Salt otlar oyoklarini arang ko'tarib bosadi. Yo'lga chiqsang, oraliqda qolib ketasan. Qo'sh qo'shiladigan otlarni esa zo'rg'a ekish mavsumigagina tayyorlashga ulgurishdi. Ulovlar parvarish qilinganu, ammo ular ham ko'p yuk ko'tarishga uzoq dosh berolmaydi.

Agar bularning hammasini o'ylasang vahima bosib ketadi. Ammo hammasidan ham yomoni urush bo'lib, uning nihoyasi ko'rinay demasdi.

Birgina tasalli, birgina umid baxsh etadigan narsa — nemislarning mag'lub etila boshlagani, ularning hamma joydan siqib chiqarilayotgani edi...

Bugun ertalabdan havo jo'nashib ketganday bo'lgandi. Havo bulutli bo'lib, tog' tepasida goho quyosh ko'rinib qolardi, goh osmon boshing ustida sayr eta boshlardi-yu, birdan havo aynib, ko'kka yana bulut chiqib qolardi. Tushga yaqin birdan havo sovib, atrof qorong'ilashib ketdi. Qormi, yomg'irni yog'ishi aniq edi... Atrofga butunlay qorong'i cho'kdi. Tushdan keyin plugchilar boshlarini qor yo yomg'irdan berkitish uchun dalaga qoplarni olib ketishga majbur bo'ldilar.

Avvalgi haydab qo'yilgan joydan boshlashib jo'yakni ichkari tomonga ag'darib borishardi. Birinchi bo'lib Sultonmurot, undan ikki yuz qadamlar orqada Onatoy, yarim chaqirimcha narida esa Erkinbek borardi. Butun plugchilar dalada yolg'iz edilar. Uch plugchi-yu oldinda salobatli cho'qqilar. Uch plugchi-yu ortda bepoyon dasht. Rais Tinaliyev bu yerda ish boshlangan kunlarigina bo'ldi. Ishi ko'p emasmi, u Chekish brigadirni shudgorga ko'z-quloq qilib qo'yib, o'zi tezda qaytib ketdi. Bugun Chekishning o'zi ham ovudda qolgan Ergash va Qubbatqulni ulovlari bilan bu yerga olib kelish uchun jo'nab ketdi. Shunday qilib, uchinchi kundir-ki, plugchilar o'z hollaricha — pluglar, otlar, hosilini yig'ib-terib olib, odamlarni to'ydirish uchun qayta-qayta haydayverish lozim bo'lgan yer bilan ro'baro' qolishdi...

Maydon dala shiyponidan uzoqda edi. O'zlari yashayotgan o'tovdan, beda g'aramlaridan, qoplardagi yemlardan, endi ularning uylarida nimalar bo'lsa, hammasidan yiroqda edilar. Dala shiyponida faqat kekxa oshpaz kampir qolardi. Vaqtida ovqatni tayyorlash o'rniga doim o'tin ho'l, u yo'q-bu yo'q deb zorlanib yurardi. Daladagilarga bir burda non bilan issiq atala bo'lsa yetadi-yu, kampir bo'lsa vaysagani-vaysagan, go'yo birov undan bir nima deb gina qilayotganday hayotdan noliyveradi. Ovulda kampirni uncha bilishmasdi. Qayerlardandir kelib qolgan ayol zdi u. Boshqalar uyini, bolalari, ro'zg'or ishlarini tashlab kelolmadi, u bo'lsa plugchilar yonida kun ko'rishni ko'zlab Oqsoyga kelishga rozilik berdi. Mayli, yeganicha yesin-u faqat ovqatni o'z vaqtida tayyorlasa bo'lgani. Kampir hamisha behudaga yelib-yuguradi-yu, hech narsaga ulgurolmaydi. Unga yordam qilishga esa plugchilarning vaqti bormidi. Ot, bu o't oldirib qo'ysang o'zi ketaveradigan mashina ham emas, bakini to'ldirib minib ketaveradigan traktor ham emas. Ishchining o'zi dalada xuddi otday ishlagach, keyin plugda-gi otlarning qornini to'ydiradi, sug'orib parvarish qiladi-da, so'ng o'tovga bazo'r yetib borib, o'zini tappa yerga tashlaydi... Tong sahardan yana ishga... hammadan qiyini erta saharda uyqudan turish...

Plugning yurib turishi, otlar vaznini yo'qotmay, quvvati bahorning oxirigacha yetishi plugchining katta vazifasidir. Bu muhim. Judayam muhim. Birinchi kunlari, shudgorlashni boshlaganlarida, otlar har o'n-o'n besh qadamda to'xtab dam olardi, hansirab qolishardi. Shunda tishni sal ko'tarishga, yerni sayozroq haydashga to'g'ri kelardi. Biroq bu vaqtincha, otlar bo'yinturuqqa o'rgangunlaricha qo'llanildi.

Bugun ish sezilarli darajada yaxshi ketdi. Otlar endi ko'nikib qolishganlaridan plugni baravar tortishardi, to'rtalovi bir-birlariga yaqin turib olib yerga enkayishib, xuddi darslikdagi burlaklarga o'xshab jon-jahdlari bilan oldinga intilib borishardi. Qadam-baqadam, qadam-baqadam yer bag'rini yorib borayotgan plugni itarib borishardi.

Biroq ob-havo pand beryapti-da. Mana, qor hidi kelib, uchqunlar paydo bo'la boshladi... Demak, qish hali hunarini ko'rsatib ulgurmay ketish oldidan yana bir bor o'zini eslatib qo'yimoqchiga o'xshaydi. Bekorga bunday qilyapti. Ayniqsa, bu qo'shchilar uchun juda yomon bo'ldi...

Sultonmurot boshiga qop yopinib oldi, biroq baribir qordan saqlana olmadi. Yerni ag'darib

borayotgan otga minib olib, boshi uzra qamchi o'ynatib borarkan, shamol uning yonlarini ochib yuborardi. Qalin yog'ayotgan ho'l qor tezda erib ketar, atrof jivir-jivir qilardi. Tog'lar qor pardasiga chulg'angan edi. Faqat bu sukunatda yog'ingarchilik domida qolib qiy-chuv ko'tarayotgan qushlar qiyqirig'ini eslatuvchi plugchilarning otlarni qichab baqirib-chaqirayotganliklari quloqqa chalinardi. Pluglar tinmay ishlardi. Qop-qora pluglar xuddi to'lqin ustida javlon urgandek goh tepaliklar uzra paydo bo'lib qolar, goh pastliklarga sho'ng'ib g'oyib bo'lardi.

Unga qo'shilgan otlar engashib, xuddi tuproq ostidan chiqayotganday, chuqur-chuqur nafas olib, o'rimalab borishardi. Qor ularning issiq, taranglashgan yelkalaridan bir onda ikkala yoniga oqib tushardi. Yer bo'kib ketgan, tuyoqlar osti sirpanchiq, jabduqlar ho'lligidan zilday og'ir plug tishlariga yerning yopishqoq qatlami botib qolganidan otlarga judayam qiyin edi. Biroq pluglarni to'xtatib bo'larmidi. Haydashni davom ettiraverish kerak. Ertaga quyosh chiqqach bu jo'yaklarga shabada tegib, shudgor tayyor bo'ladi. Vaqtni boy bermaslik zarur.

Plug yerga tiqilib qola boshladi. Sultonmurot tez-tez egardan tushib qamchi dastasi bilan tishlarni loy parchalaridan tozalar, orqada kelayotgan Onatoy va Erkinbeklarni chaqirar, ulardan javob ovozi kelgach, yana ho'l jabduqli va butun badanlari shalabbo bo'lgan otlar orasidan jo'yak tortayotgan otga yaqinlashib, egarga tirmashib chiqar va yana olg'a intilardi.

Qor esa hamon yog'ishdan to'xtamasdi. Qop-qora plug qo'shilgan otlar xuddi oppoq tumanda suzib borayotgan kemani eslatardi. Barcha tovushlarni yutib yuborayotgan qor sukunatida dala bo'ylab birgina plugchilarning hayqirig'i yangrardi.

— Ona-to-oy!

— Erkin-be-bek!

— Sultonmuro-o-ot!

Yuzlardan suv oqar, bu erigan qormi, termi, bilib bo'lmas, yugan tutgan qo'llar shishib, sovukdan muzdek qor tomaverib ko'karib ketgan. Bir-biriga suykanishib ketayotgan otlar orasidagi oyoqlar ikki tomondan qisilib og'rir, ularni qayoqqadir siljitging keladi-yu, ammo joy yo'q. Buning ustiga, Sultonmurot ortidan Onatoy va Erkinbek kelayotganini, ular uchalasi — oltita plug tishi ekanligini, kuppa-kunduz kuni Oqsoy yerlarini haydayotgan bu tishlarni to'xtatib qo'yishga haqqi yo'q ekanligini tushunardi. Faqat otlar chidab bersa, holdan toyib qolmasa bo'lgani. Shuning uchun ham u xayolan otlarga murojaat qilar, o'git berardi:

«Sabr qiling, Qambar otadan tarqagan zotlar, ahillik bilan baravar tortinglar. Axir har doim pgunday qiynalmaysizlar-ku. Bugun qor yoqqan bo'lsa, ertaga erib ketadi. Olg'a, ha, olg'a, chu, jonivorlar! Sabr qiling, Cho'lpon ota nasllari, huv, ana, oldinda paykal oxirlayapti. Hozir o'sha yerdan burilib orqaga qaytamiz. Sabr qilinglar, qadamlarni bo'shashtirmanglar. Sizlarni plugdan chiqarishga mening haqim yo'q. Biz shuning uchun ham sizlarni qish bo'yi parvarish qildik. Boshqa yo'l yo'q. Men sizlarni yumshoqq qattiq yerni haydashga undayapman, bilaman, sizlarga og'ir, biroq shunday qilmasak nonsiz qolamizda. Chekish chol shunday degan va umrbod shunday bo'lib qolaveradi, deydi. Non, uning har bir burdasi peshona teriga yo'g'riladi-yu, faqat buni hamma ham bilavermaydi va hamma ham non tishlaganda bu

haqda o'ylab o'tirmaydi. Bizga esa non juda kerak. Judayam kerak. Mana shuning uchun ham biz sizlar bilan Oqsoyda yuribmiz.

Chopdor, sen mening inimsan, sen mening qo'shchi otimsan. Sen ham plutni tortasan, ham meni ustingda olib yurasan. Senga qamchi urayotganim uchun meni kechir. Shu kerak bo'lib qoldi. Xafa bo'lma, Chopdor.

Chontor, sen chap tomonda, haydalgan yerdan yurasan, hammasidan ham senga qiyinroq, biroq sen Chopdordan keyingi eng kuchli otsan. Chontor, seni otam Bekboy doim maqtar edi. Yodingdami? Biz hammamiz shaharga borganimiz ham esingdami? Otamdan hanuz xat-xabar yo'q, bundan juda qo'rqaman, siz otlar buni tushunmaysizlar. Urushdagi odamlar uzoq vaqt xat yozishmasa bu juda yomon. Onam sog'inib, xavotirlanaverganidan judayam ozib ketgan. Onatoy otasining azasida hammadan ko'p yig'lagan, qayg'urgan Inkamol opa bilan onam bo'ldi. Ular bir nimani bilishadi, qandaydir ko'ngilsizlikni sezishadi-yu, ammo aytishmaydi. Ular bir nimadan xabardor... Chu, chu, Chontor, sening bo'shashishingga yo'l qo'ymayman. Olg'a, Chontor! Bo'sh kelma!

Sen ham, Oqquyruq, sen ham mening inimsan. Sen mening o'ng tomonimda, otlarning o'rtasida borasan. Sen jon-jahding bilan plutni tortishing kerak, chunki Chopdor bilan ikkovingiz kuchli otlarsiz. Sen ajoyib, oq dumli chiroyli otsan. Biroq bo'sh kelma, ruhing cho'kmasin, sening charchashingga yo'l qo'ymayman. Chu, chu, Oqquyruq! Meni uyatga qo'yma!

Qorato'riq tulporim, sen oddiygina yaxshi otsan. Men seni qo'shga tanlayotganimda senga juda ishonganman. Sen mehnatkash va yuvosh otsan. Men seni juda ham hurmat qilaman. Sen eng chekkada yurganingdan doim ko'zga tashlanib turasan. Senga qarab ishimiz qanday ketayotganini aniqlash mumkin, Qorato'riq. Men seni ham xafa qilmayman, faqat bo'shashmay tortaver. Men senga so'z beraman: Oqsoyda shudgorlash, ekishni tugallaganimizdan keyin, ovulga qaytayotganimizda hamma seni ko'rishi uchun xuddi hozirgiday eng chekkada borasan. Biz Mirzagulning uyi yonidan o'tayotganimizda u ko'chaga chopib chiqib eng avvalo seni ko'radi, Qorato'riq. Shuncha harakat qilmay, jo'nash oldidan u bilan ko'risholmadim. Uning ro'molchasi yonimda, shundoq bag'rimda turibdi. Unga qor va yomg'ir tegmaydi. Men Mirzagul haqida hamisha o'ylayman. Uni o'ylamay turolmayman. Agar uni o'ylamay qo'ysam hammayoq huvillab qoladi va menga hayotning qizig'i qolmaydi.

Chu, chu, Qambar otadan tarqagan zotlar! Ahillik bilan tortinglar, qani olg'a, olg'a! Chu! Chu!.. Qor hamon yog'yapti-ya. Qanday namxush qor. Hammamiz boshdan-oyoq shiltayi shalabbo bo'ldik. Shamol ham qo'ymayapti. Agar oshpaz kampirimiz xashakni jullar bilan yopib qo'ysa yaxshi bo'lardi-ya. Ammo bunga aqli yetmasa, xashak ivib isrof bo'ladi-da. Biz — o'n ikki bosh otni nima bilan boqamiz axir! Ishga jo'nash oldidan unga aytib qo'yish kerak edi-yu, esimdan chiqibdi, qor yog'ishi xayolimga kelmabdi.

U g'alatiroq kampir, ko'zi suq. Otlarimizni maqtangani maqtagan, boqib to'ymaydi. Qanday semiz otlar, yaxshi boqilgan, deydi. Yonboshlaridagi yog' ikki enlidir, deydi. Eski vaqtlarda

bunaqa otlar katta ma'arakalarda so'yilar emish. Aytishicha, o'sha paytlarda go'shtni to'yguncha yeyishar ekan. Ot go'shtini qirq chelakli qozonlarda pishirishganlarida uning yuziga yig'ilgan yog'-sardagini (topgan gapini-chi!) suzib, olib hammasini cho'mich bilan kasal odamlarga suzib berilardi, deydi. O'sha yog' betob odamga ichirilsa darrov oyoqqa turib ketardi, deydi. Mechkay, faqat yog'ni o'ylaydi, xolos. Otlarga ko'zi tegmasa edi ishqilib. O'rgildim undan! Maktabda ko'z tegish yolg'onligini aytishgan-ku. Nima desa deyaversin. Faqat ovqatni o'z vaqtida tayyorlab tursa bo'lgani. Kecha yovvoyi echkini pishirib bizni rosa hayratga soldi. Vaholanki, echki juda oriq edi. O'tib ketayotgan qandaydir ikki ovchi o'tov tomonda olov ko'rib shu yoqqa kelishib, o'ljasining bir qismini tashlab ketishdi, deydi. Rahmat o'sha ovchilarga, urf-u odatni bilishar ekan. Birinchi uchratgan kishisiga tegishli o'lja qoldiribdimi, demak, keyingi safar ham ovlari yurishishini niyat qilishgan. Agar ular tog'dan tushgan bo'lishsa, biz birinchi uchragan kishilarimiz, albatta. Atrofda esa boshqa hech kim yo'q. Toqqa chopsang, dashtga ot qo'ysang ham hech jonzotni topolmaysan. Qor haliyam yog'yapti. Rosa yog'di-da... Tinkalar ham qurib ketdi...»

Otlar jiqqa ho'l bo'lib to'xtab qolishdi... Sultonmurot egardan tushdi-da, shishib ezilib ketgan oyoklarida bazo'r turib xuddi mast odamday gandraklab otlarning orasidan o'tdi. Qora terga botib, qaltirayotgan, quloqlaridan tuyog'igacha ho'l bo'lib, sillasi qurib zo'rg'a nafas olayotgan otlarni ko'rib shunday ichi achishib ketdiki, beixtiyor ingrab yubordi.

Qor esa hamon yog'ar, otlarning hovur ko'tarilib turgan yag'rinlariga tushib erib ketmoqda edi. Sultonmurot ho'l bo'lib og'irlashib ketg'an qopni boshidan olib tashladi. O'ziga itoat qilmayotgan, muzlab qolgan barmokdari bilan abzallarni yecha boshlarkan, beixtiyor o'zini tutolmay Chopdorning yag'rinini quchoqlab turib ho'ngrab yig'lab yubordi. Yig'i orasida lablari otning terisidagi issiq taxir ta'mni tuyib: «Kechiringlar, kechiringlar meni!» — deb pichirlardi.

— Ha, Sultonmurot! Nima gap? — egat bo'ylab yaqinlashib kelayotgan Onatoyning tovushi eshitildi.

— Otlarni bo'shat! — baqirdi unga javoban Sul-tonmurot.

O'NINCHI BOB

Biroq ertasiga kun ochiq, beg'ubor bo'ldi. Kechagi yog'ingarchilikdan asar ham yo'q edi. Faqat namgarchilik, faqat odamning ruhini tetiklashtiruvchi muzdek shabada esmokda va faqatgina yer bir oz qizg'ish rangga kirgan va faqat cho'qqilar ustida yengillanib qolgan oppoq qorlar bor edi, xolos. Tog'lar ortidan o'zligini olamga ko'z-ko'z qilib, ko'kning yarmini nurga burkab bahor quyoshi ko'tarila boshladi. Butun bepoyon Oqsoy o'zining barcha o'tloqlari, yalangliklari, adirlari-yu past-balandliklari bilan uzoq-uzoqlargacha ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Biroq ular o'zlari yon-bag'rida tug'ilib o'sgan Ulug' Manas tog'lari, zotan bu g'ayritabiiy bir hol bo'lsa-da, go'yo tunda ularga yaqinroq kelib qolganday, pgu oqshom tog'lar Oqsoyga qarab ular tomon siljiganday, qo'shchilar tongda turib tog'ning ulug'ligi, go'zalligi va qudratini ko'rib hayratlanishlari uchun siljiganday tuyulardi.

Yaqin-yiroqda, yonginalarida, ufqning qo'l yetmaydigan joylarida tog' tizmalari jilvalanardi...

Ha, Oqsoyda o'sha kuni ajoyib tong otdi. Yer shabadada singisin deb ular shudgorlashga shoshilmay chiqishdi.

Bu vaqt ichida otlarga qaratttdi, abzallarni tuzatishib, ho'l bo'lib ketgan pichanni yoyishdi. Kun tezda isib ketdi. Ular shundan so'ng pluglari tomon jo'nashdi. Pluglar kechagi egatlarga botib qolgan edi. Plugning har birini uch kishilashib tortib chiqarishdi, tishlarini tozalashib, g'ildiraklarini yog'lashdi. Keyin otlarni qo'shishib, bugun kechgacha bu paykalning shudgorini tugallashni, ertaga esa boshqa uchastkaga jo'nashni o'yladilar. Ish qizigandan qizib ketdi. Tuni bilan dam olgan otlar saharlab parvarish qilinganligi uchun ildam ishlardi. Otlar og'ir pluglarni tortib borishardi. Ammo kechagi qorda qilingan shudgor o'zini oqlagan — tuproq shabadada selgib qolgandi, qor aralash ag'darilgan qatlamlar quyosh nurlari ostida xamirday ko'pchib yotardi. Demak, tuproq «buzilmagan», bezdek bo'lib qolmagan. Demak, shudgor ko'ngildagiday bo'libdi.

O'sha kuni ajoyib o'tdi. Shunday kunlar bo'ladi, agar ishing yurishib ketsa, hayot shunday maroqli, ko'ngilli, ajoyib va ayni vaqtda oddiy bo'lib tuyuladi. Bekorga qish bo'yi tayyorlanishmagan, mehnat qilishmagan va buning uchun maktabni tashlashga majbur bo'lishmagan ekan; mana endi Oqsoy otryadi harakatda, pluglar esa ishlamokda, yana bugun Ergash va Qubbatqullar kelishlari kerak. O'shanda ularda beshta plug bo'ladi, bu esa o'nta tish degani. Ana kuch. Ana o'shanda haqiqiy desant desa bo'ladi! Undan so'ng urug' sepib, maydonlarni boronalashadi, ana o'shanda hosilni kutaver! Bahorgi bug'doy ajoyib bo'ladi. Chekish brigadir bahorgi hosil unumdor bo'lmasa ham, ammo nonlar ichida eng shirini bo'ladi, deydi. Ishimiz o'ngidan keladi. Yomg'ir yog'adi. Shuncha mehnat qilingandan keyin yomg'ir tixirlik qilishi mumkin emas. Yomg'ir yog'adi, faqat u yoqda, frontda bardosh qilsalar, hujumga o'tsalar bo'lgani baxtimizga bu hosil tomog'imizda turib qolmasa bo'lgani...

Ular paykal uzra ana shunday borishardi. Oldinda Sultonmurot, ortda, ikki yuz qadamcha narida Onatoy va yarim chaqirim narida Erkinbek borishardi...

Quyosh qizigandan qizirdi. Tepaliklardagi yamyashil maysalar tovlanardi. Xuddi ertakdagiday u yoqqa o'tsang ham, bu yoqqa o'tsang ham, qarshing ham ko'm-ko'k. Tuproq yangilanib yengil nafas olardi. Pluglar esa Oqsoydan ortida xuddi uzun kokilga o'xshash yangigina olingan izlarni qoldirib borardi...

Oyoq ostidan «pirr» etib to'rg'ay uchdi. Qush sayray-sayray yaqinginaga qo'ndi va yana qayerdadir boshqasi sayray ketdi, ularga allaqayoqda yana bir to'rg'ay jo'r bo'ldi. Sultonmurot jilmayib qo'ydi. Qushlar quvonganlarida sayrayverishadi, uylari ham yo'q, boshlari ustida yaproq, novda ham yo'q, kimsasiz cho'l qo'ynida o'z bilganlaricha yashayverishadi. Tag'in xursand ham. Bahordan minnatdor, quyoshdan minnatdor! Kecha qushlar qayerda edilar-a, yog'ingarchilikning o'tishini qanday kutib turdilar ekan? Ha, endi bularning hammasi ortda qoldi.

Bahor o'z haqini endi oladi. Endi ish ham ko'payadi, bu esa faqat boshlanishi. Nima qipti! Butun Ergash, Qubbatqullar kelishadi, shunda butun desant birgalikda kirishishsa, ishlari jo'nashib ketadi...

Otini «chu»lar ekan, to'satdan Sultonmurotning ko'zi narigi tomonda bir otliqni ko'rib qoldi. Otliq shudgor yaqinidan chetlab o'tib, ularga qaragancha tog' tarafga ketmoqda edi. Yelkasida miltiq. Boshida qishki tumoq. Tagida baquvvat, sovitilgan saman. Bolalar ham uni ko'rishdi-da, qichqira boshlashdi:
— Ey, ovchi, biz tomonga otingni bur!

Biroq ovchi indamadi. Ovchi ularga yaqinlashmasdan o'girilib qiyos tashlab ketmokda edi. Sultonmurot uni ko'rib suyunib ketdi, otni to'xtatib, oyoqlarini uzangiga tirab baqirdi:
— Ey, ovchi, shiralg'a berganing uchun rahmat! Eshityapsanmi, rahmat! Tegish uchun rahmat!

Ammo ovchi indamay, xuddi hech nimani eshitmaganday, tushunmaganday ketaverdi. U tezda tepaliklar ortiga o'tib ketdi. Demak, vaqti yo'q, ishiga shoshilyapti shekilli.

Taxminan yarim soatlardan so'ng yana bir ovchi ko'rindi. U ham toqqa tomon borar, uning ham yelkasida miltiq bor edi. Ammo u boshqa yoqdan, qo'tonning boshqa chekkasidan o'tib borardi. Bu ovchi ham uzokdan so'rashmay, ularga qaragancha jim borardi. O'zi odat bo'yicha otliq otini burib, qo'shchilarga salomatlik, xirmoniga baraka tilashi kerak edi. Chekish chol hozir odamlar aynib ketdi, deydi. Ehtimol shundaydir. Chekish chol donishmand, uning gapi to'g'ri chiqadi.

Ovchilar o'tib ketgandan so'ng juda hayajonli bir voqea sodir bo'ldi.

Buni birinchi bo'lib Onatoy eshitib qoldi. Yashavor! Ovozining boricha qichqirgan ham Onatoy bo'ldi:
— Turnalar! Turnalar uchyapti!

Sultonmurot yuqoriga qaradi — musaffo, moviy, cheksiz osmon kengligida ohista aylanib, parvoz qila turib saflanib, qurqurlashgancha ovoz chiqarib turnalar uchib borishardi. Katta gala turnalar yuksak parvoz qilishmokda. Ammo samo undan ham yuksak. Bepoyon osmon kengligi va bu kenglikda xuddi barhayot orol singari suzib borayotgan qushlar to'dasi. Sultonmurot boshini ko'tarib qaragancha birdan ovozining boricha qichqirib yubordi:
— Ura! Turnalar!

Uchalovi ham qushlarning turnalar ekanligini yaxshi ko'rib turgan bo'lsalar-da, kutilmaganda, bu katta bir yangilikday bir-birlariga baqirishardi:
— Turnalar! Turnalar! Turnalar! Sultonmurot turnalarning erta kelishi yaxshi belgi ekanligini eslab qoldi.
— Turnalarning erta kelishi yaxshilik alomati! — baqirdi u ot ustida Onatoyga qayrilib qararkan. — Hosil mo'l bo'ladi!

— Nima, nima? — eshitmadi Onatoy.
— Hosil, hosil mo‘l bo‘ladi!

So‘ng Onatoy egar ustida Erkinbek tomonga qayrilib unga qichqirdi:

— Hosil! Hosil mo‘l bo‘ladi! Erkinbek esa javoban qichqirdi:
— Eshitdim, eshitdim! Hosil mo‘l bo‘ladi! Turnalar esa hamon uchib bormokda edilar. Ular samoning moviy og‘ushida cho‘milib, shoshilmay suzar, bir maromda qanot qoqishib, aylanishib, goh vazmin, goh ko‘p ovozla, goh birvarakayiga jo‘r bo‘lishib, bir-birovlarini chaqirishar va yana jimib qolardilar. Shaffof kun og‘ushida ularning silliq bo‘yinlari, ingichka tumshuqlari va ba‘zilarining bag‘riga yarim kirgizib olgan, ba‘zilarining esa mahkam siqib olingan oyoqchalari yaqqol ko‘zga tashlanib turardi. Goho qanotlari chetlaridagi oppoq patlarining uchlari ko‘zga chalinib qolardi. Ana shunda qushlarni tomosha qila turib, qo‘shchilar galaning sekin-asta pastlayotganini sezib qolishdi. Turnalar borgan sari pasayib yerga yaqinlab borar, go‘yo ularni qandaydir oqim o‘sha tomonga, uzoq tepaliklarga haydab borayotganday edi. Sultonmurot umri bino bo‘lib turnalarni bunday yaqindan ko‘rmagan edi. Turnalar hamisha sharpa singari, xuddi tushdagiday bosh uzra suzib o‘tishardi.
— Qara, qo‘nishyapti, qo‘nishyapti! — qichqirdi

Sultonmurot va uchovlari ham egarlardan sakrab tushishib, ulovlarini qoldirganlaricha turnalar qo‘nayotgan yerga qarab chopishib ketishdi.

Ular oyoklarini qo‘llariga olib, jonlari boricha yugura ketishdi! Ular turnalarni yaqindan ko‘rgilari kelardi: qanaqa ekan-a? Zo‘r bo‘ldi-da!

Eh, Sultonmurot shunday tez yelardiki! Yer oyog‘i ostida poyandoz, o‘zi unga peshvoz edi. Yer bilan birga qorli tog‘lar ham uning istiqboliga yugurar, ko‘z uzmay kelayotgan turnalar galasi ham ko‘kda charx urib, unga peshvoz uchib kelishmokda edi. Yugurib, quvonib, nafasi bo‘g‘ilar, yuragi suyunchga to‘lib, turnalarni quvarkan, agar qushlar patini tushirib qoldirguday bo‘lishsa, saqlab Mirzagulga sovg‘a qilishni va qizga bu voqeani ipidan ignasigacha hikoya qilib berishni xayol qilardi. Faqat yetib olsa, turnalarni ko‘rsa bo‘lgani edi. U Mirzagulga nisbatan qalbida quyilib kelayotgan mehrni tuygancha chopib borardi. Agar iloji bo‘lsa edi, u hozirning o‘zida turna pati bilan to‘ppa-to‘g‘ri Mirzagulning oldiga yelib borardi... Turna pati bilan to‘ppa-to‘g‘ri qizning oldiga...

O‘N BIRINCHI BOB

Ular yugurib borishar, shafqatsiz bir nigoh esa miltiqning mo‘ljall nuqtasidan mushkani ularning biridan ikkinchisi, uchinchisiga to‘g‘rilab ta‘qib etardi. Bu nigoh miltiqning nishoni bo‘ylab turnalar tomon yelib borayotgan bolalarni mo‘ljalga olar edi. Pritseldan tashqaridagi yer bepoyon, ular esa chayqalib turgan mushka qarshisida shunday zarralar edilar-ki... Ularning tepasidagi osmon pritselda naqadar katta, bolalar esa mushka uchida shunchalik kichkina ko‘rinardiki... Tepkini bossang, vassalom, ular yo‘q bo‘ladi... Bularning hammasi bir daqiqada yo‘q bo‘lishi mumkin va ular pritselda milt-milt etmay qo‘yardi, faqat buning uchun tepkini bosilsa bo‘ldi edi.

— Eh, hozir ularni yer tishlatib, birvarakayiga tutday to‘kib qo‘yardim, hatto ovozi chiqarishga ham ulgurolmay qolishardi, — nafasini ichiga yutib, g‘o‘ldiradi mo‘ljol olib turgan odam.

— Bas qil, tentak! O‘q bilan o‘ynashib bo‘ladimi, bekorga mo‘ljalga olma, — dedi unga o‘sib to‘qay bo‘lib ketgan, xuddi bo‘rining inini eslatuvchi tepalik ostidagi ko‘raylar ichida otlarni jilovidan tutib turgan ikkinchi ovchi.

Mo‘ljalga oluvchi kishi hamon miltiqni mo‘ljaldan olmay, lunjini shishirgancha jimib qoldi.

— Haddingdan oshma, deya pman senga, — buyruq berdi unga otlarni ushlab turgani. — Chopishib-chopishib qaytib ketishadi. Senga nima?

U quloq solmadi. Dag‘al soqolli dahanini miltiq qo‘ndog‘iga qo‘yib, pritsel orasidan turnalarning qichqiriqlaridan mast bo‘lib yugurayotgan beaql bolalarni ta‘qib etishdan maza qilardi. Uning jahli chiqa boshladi. Bolalarning chopishib kulishini-chi! Suyunishlarini ko‘r. Uchta o‘q bilan qiyratib tashlasa, qimir etmay qolishardi. Chopishadi — kulishadi! Biron sababi bormi desang. Chopishadi — kulishadi...

Plugchilar halloslab adirga yaqinlashganlarida turnalarning yana tepaga ko‘tarilashayotganini ko‘rib qolishdi... Demak, niyatlari o‘zgaribdi. Balki ularga turnalar qo‘nayotganday tuyulgandir?

Bolalar nafaslarini rostlab to‘xtab qolishdi. Ularning hafsalalari pir bo‘ldi. Sultonmurot esa yana ancha yergacha chopib bordi va turnalar galasini ko‘zlari yoshlanib kuzatgancha to‘xtab qoldi...

So‘ngra ular ortlariga qaytishib, yana Oqsoy yerlarini shudgor qila boshlashdi. Bugun kun juda yaxshi bo‘ldi. Tushga yaqin otlarga xashak olib kolxoz aravasi kelib qoldi. Aravakash ularga kartoshka, go‘sh, un, o‘tin olib kelibdi. U Chekish brigadirning o‘zi ertaga Ergash, Qubbatqullarni ulovi bilan olib kelishligini aytdi. Chekish brigadir, bolalarga ayt, jahllari chiqmasin, hammasi hal bo‘lgan, ertaga desant to‘liq sostavda bo‘ladi, debdi. Albatta bo‘ladi, deb yana va‘da beribdi. Bir-ikki kundan keyin ularning oldiga, Oqsoyga rais Tinaliyev ham kelarkan. Aravakash mana shunday xabarlar olib keldi. Tushda hammalari birga ovqatlanishdi, so‘ng yana shudgorlashga jo‘nayotganlarida oshpaz kampir Sultonmurotga ovulga bormoqchi ekanligini, ertaga Chekish brigadir bilan birga qaytib kelishini aytib qoldi. Ovudda uning qandaydir zarur ishi bor emish va yana kir yuvish uchun sovun olib kelishi kerak emish. Bolalarning och qolmasligi uchun kun bo‘yi yetadigan non yopib va yana go‘ja pishirib qo‘yganmish, uni isitib ichishlari ham mumkinmish. Sultonmurot kampirning ketishini hech xohlamasa ham chor-nochor rozi bo‘ldi, keksa odamning yo‘lini to‘sib, tortishib o‘tirarmidi.

Shundan so‘ng qo‘shchilar yana o‘z pluglari tomon jo‘nashib, kun botguncha ishlashdi. Kech bo‘lganda shudgorni tamomlashdi. Endi bemalol tomosha qilsa arziydi — katta bir maydonni shudgordan chiqarib qo‘ydilar. Bu endigina birinchi maydon, e-he, yana hali qanchasi bor. Boshlamasi tayyor. Demak, oxiri ham bo‘ladi.

Oxirgi paykalni g'ira-shira qorong'ida haydab bitirishdi, qayrilishlarda qolib ketgan yerlarni shudgorlashib uzoq ivirsimay, ertasiga sahardan yangi maydonda ish boshlash uchun pluglarni u yerga olib borib qo'yishdi.

Otlarni chiqarib, shiyponga kelgunlaricha qosh qorayib qoldi. Shiypon huvillab yotibdi. Kampir allaqachon ketgan. Ha, mayli, ertaga keladi-ku.

Kun bo'yi rosa charchashdi. Shoshilmay bo'yinturuqlarni bo'shatib, ularni otlarning bo'ynidan olishib, jabduqlarni yechishdi-da, har kim o'z joyiga o'tovga olib kirishdi. O'n ikki bosh otlarning barini ham o'z joylariga, shiyponga, oxur vazifasini o'tash uchun keltirilgan g'ildiraklari yo'q eski aravaga bog'lashdi. Ha, har bir otni joy-joyiga arava ichidagi xashakka to'g'rilab bog'lab qo'yishdi. Ertalab otlarning qotib qolgan terlarini tozalash uchun barvaqtroq turishga qaror qilishdi. Qorong'ida yuvinishib, keyin o'tovda gulxan yoqishdi-da, uning yorug'ida go'jani isitishga erinib sovuqligicha ichishdi.

Uxlashga yotishdi. Sultonmurot hammadan keyin uxladi. Uyqu oldidan u yana bir bor otlarni ko'zdan kechirgani o'tovdan chikdi. Otlar tumshuqlari xashakda, quruq bedani qurt-qurt chaynab, pishqirganlaricha jimgina turishardi. Ha, boshma-bosh, oltitadan ot aravaning har tarafida jimgina turishardi.

Havo ochiq bo'ladiganga o'xshardi. Oy borgan sari kichrayib bormoqda edi...

Sultonmurot negadir bir nimadan cho'chib, ozgina aylandi. Kimsasiz sokinlik, cheksiz zim-ziyo kecha.

Ish bilan, tashvishlar bilan bo'lib, kimsasiz cho'l bag'ri shunchalik qo'rqinchli ekanligini sezmagani ekan. U o'tovga qaytishga shoshildi. Joyiga yotib uzoq paytgacha uxlayolmadi. Birdan uyini sog'inib, yuragi g'ash bo'lib qoldi. Usiz onasining uyoqda holi qanday kecha-yotgan ekan? Otasidan hanuzgacha hech qanday darak yo'q. Agar biror xabar bo'lganida bugun aravakash unga yetkazib suyunchi so'ragan bo'larmidi. Nimani so'rasa, berardi. Biroq nimani berardi. Bu yerda hech vaqosi yo'q. Yarim qop bug'doy va'da qilardi, axir kuzda kolxoz ularga bug'doy beradi-ku, ana shuni berardida unga. Shularni o'ylab u og'ir xo'rsindi. Ajimurot undan: agar otam urushdan qaytsa, ikkalamiz Chopdorga minib uni kutib olgani stansiyaga chopamiz, Sultonmurot kattaligi uchun oldinda, Ajimurot esa orqasiga min-gashib borishi haqida undan va'da olganini esladi. Otasini kutib olgach, unga Chopdorni berib, o'zlari esa otasi bilan yonma-yon yugurishlarini, onasi va boshqa uzoq-yaqin kishilar ularga peshvoz chiqishini tasavvur qildi... Eh, qani edi shunday baxtga muyassar bo'lganida edi, u Chopdorni plugdan chiqarib choptirib ketardi... Keyin evaziga yuz hissa ko'proq ishlab berardi.

Sultonmurot asta yig'lay boshladi, chunki bunday baxt, ehtimol, hech qachon ro'y berishi mumkin emasligini g'ira-shira anglardi...

Soʻngra u Mirzagul bilan soy boʻyida uchrashganini eslab qorongʻida jilmaydi. Hatto hozir ham qizning qoʻllari taftini, goʻyo oʻsha qoʻllarning unga: «Men xursandman! Men juda baxtiyorman! Mening qanchalik baxtiyor ekanligimni nahot sezmayotgan boʻlsang!» — deganini esladi. Qizga tikilarkan, uning qiyofasida oʻzini koʻrganligini ham va Mirzagul oʻzi ekanligini sezib qolib hayratlanganini ham yodga oddi. Mirzagul hozir uxlayotgan boʻlsa kerak. Ehtimol, mana shu daqiqalarda Mirzagul ham u haqda oʻylayotgandir. Axir Mirzagul bu — Sultonmurotku. Sultonmurot gimnastyorkasi choʻntagidagi Mirzagulning roʻmolchasini paypaslab, silab qoʻydi...

Shunday oʻylar bilan uni mudroq bosib uyquga ketdi. Qattiq uxlab qoldi. Soʻng toʻsatdan uni qandaydir yomon tush chulgʻab oldi. Kimdir uni boʻgʻganicha qoʻlini qayirardi. U shunda uygʻonib ketdi, qoʻrqqanidan baqirishga ham ulgur olmadi. Kimningdir achchiq maxorka hidi anqib turgan katta — qattiq kafti uning ogʻzini berkitdi.

— Joningdan umiding boʻlsa jim boʻl! — dedi xirillab uning qulogʻi ostida maxorka hidini anqitib, pishillagancha qoʻpol bir odam. U odam temirday panjalari bilan Sultonmurotning jagʻini sindirguday pastga bosib, ogʻziga latta tiqdi. Sultonmurot oʻziga kelganda qoʻllari arqon bilan orqasiga bogʻlab qoʻyilgan edi. Uni sovuq ter bosib oʻzidan oʻzi titray boshladi. Oʻtovdagi bu ikki odam kim, nega uni bogʻlab qoʻyishdi?

— Bunisi tayyor, — shivirladi biri ikkinchisiga. — Narigilariga ketdik.

Ular Onatoy yotgan tomonda qorongʻilikda paypaslanishdi. Onatoy qichqirib tipirchiladi-yu, ammo uni ham chandib tashladilar.

Erkinbekning esa boshiga tushirishdi shekilli, u bir ingrab jimib qoldi.

Sultonmurot hamon nima boʻlayotganini tushunmasdi. Latta ogʻzini berkitib qoʻyganidan u boʻgʻilar, qoʻllari arqonda qisilib ogʻrirdi. Oʻtov zulmat ogʻushida edi. Biroq bu odamlar kimlar, nega ular bu yerga qelishdi. Ular nima uchun bunday qilishyapti, niyatlari nima, balki ularni oʻldirishmoqchidirlar? Nega?

Sultonmurot qutulmoqchi boʻlib tipirchilardi. Shunda bu odamlardan biri uni tizzasi bilan bosib, temirday barmoqlari bilan kallasiga niqtaganicha sekin dona-dona qilib dedi:

— Koʻpam shattalayverma. Eshityapsanmi? Sen bu yerdagilarning kattasiga oʻxshaysan. Biz javobga tortilmasligingiz uchun sizlarni bogʻlab tashladik, sizlarning bu yerda daxlingiz yoʻq. Uqdingmi? — dedi u hamon temirday barmoqlari bilan uning kallasiga chertib. — Aql ishlatsalaringiz hammasi joyida boʻladi. Sizlarni bu yerdan topishganda voqea qanday yuz bergan boʻlsa, hammasini shunday aytib berasizlar. Sizlarni qanday qilib soʻroq qilishlari mumkin? Ammo kimki hozirdan hammadan burun biror harakat qilib tipirchilaydigan boʻlsa, itday savalab tashlayman. Oʻldiraman! Jim yotinglar. Oʻlib qolmaysizlar.

Ular qattiq hansirashib, soʻkinishib, tupurishgan-cha oʻtovdan chiqib ketishdi. Sultonmurot ularning otlar bogʻlogʻliq turgan joyda nimadir qilishib, paypaslanayotganlarini, otlarning qoʻrquvda tipirchilayotganlarini eshitdi. Bir ozdan soʻng koʻplab tuyoklarning taqillashi, qamchi ovozlari aralash yana qandaydir soʻkinishlar eshitildi-yu, tuyoqlarning ovozi

uzoqlashib, tez orada butunlay eshitilmay qoldi.

Faqat shundagina Sultonmurot sodir bo'lgan voqeaning dahshatini tushunib yetdi. O'g'rilar ularning qo'shchi otlarini haydab ketishgandi! Alam va g'azab yuragini o'rtab yubordi. U qo'llarini bo'shatishga urindi-yu, ammo hech narsa qilolmadi. Nafasi qisilib, boshini u yoq-bu yoqqa burib, tili bilan og'zidagi lattani itara boshladi. Og'ziga xuddi o't solib qo'yilganday alanga olib, nafasi qaytib, qon oqa boshladi. Nihoyat og'zidagi la'nati lattani tupurib tashlashga muvaffaq bo'ldi. Go'yoki ozodlikka chiqqanday bo'ldi. O'pkasini to'ldirgan havodan boshi aylanib ketdi.

— Bolalar, bu menman! — qichqirdi u kallasini ko'tarib. — Menman! Men gapiryapman!

Biroq hech kim unga javob qaytarmadi. U Onatoy, Erkinbek joylarida qimirlab qo'rganlarini eshitdi.

— Bolalar, — dedi u shunda, — qo'rqmanglar. Men hozir. Hozir biron narsa o'ylab topaman. Faqat menga quloq solinglar. Onatoy, qimirlagin, qayerdasan?

Onatoy inqillab, tipirchilab o'rnidan tura boshladi.

— Shoshma, Onatoy! Joyingda tur! — Sultonmurot kiyimlar va jabduqlar ustidan u tomonga otili. — Endi orqang bilan menga suyan, qo'llaringni qo'y. Eshityapsanmi, qo'llaringni qo'y...

Ular orqama-orqa yotishdi. Sultonmurot do'stining qo'lidagi arqonni paypaslab topdi. Onatoyga qanday yotish, o'girilishni aytib, o'zi arqonning tutunlarini topishga tutindi. Onatoyni og'riqqa chidashga undab, o'zi oxiri qandaydir tugunni topib, uni tortib yuborgan edi, arqon bo'shadi. Endi Onatoy qo'llarini o'zi bo'shatib oldi...

O'N IKKINCHI BOB

Ot o'g'rilari shoshilmay ketishardi. Ular otlarni goh yo'rttirib, goh yo'rg'alatib borishardi. Qorong'ida otlarni choptirib bo'lmaydi, keyin buning hojati ham yo'q edi. Ish silliq ko'chdi. Kimdan qochishsin — go'dak bolalardanmi? Yuz chaqirim atrofda esa tirik jonning o'zi yo'q. Bolalar esa tupkaning tagida bog'log'liq yotishibdi. Haliyam ishni bunday ko'chganidan taqdirdan minnatdor bo'lishsin...

Ular to'rtta otni olib ketishmoqda edilar. Har qaysilariga bir juftan bo'ladi. Boshqa olib bo'lmasdi. Xudo ko'rsatmasin, pgu yog'ini ham hazm qilib olishsa bo'lgani edi... Kimsasiz joylardan uzoq yurishlari kerak. Toshkent atroflariga borishning o'zi uch kunlik yo'l. Yana u yog'iga qancha yo'l yurish kerak. Yetib olishsa bo'lgani. U yog'iga ish oson ko'chadi. Toshkentdagi Oloy bozorida go'shtni kilolab emas, misqollab sotishadi. U yerdagi odamlar savdoning tilini bilishadi, uquvli. Birovga oshirib yuborishadi. Endi buyog'i ularning ishi. Ammo hozir go'shti tillaga baravar bo'lib turgan to'rtta semiz otning pulini olib ketishning o'zi bo'larmikin? Hazildan tashqari, bu jumboq! Shuncha pulni nima qilishadi! Rosayam o'marishdi-da! Tezroq bo'la qolishsa edi. Endi topib bo'lishibdi. Pul bo'lsa juftakni rostlash qiyin emas. Ketishlari, qo'lga tushmasdan burun allaqachon bu yerdan juftakni rostlashlari

kerak edi. Ushlasa — tamom! Tribunal! Endi tutib bo‘lishibdi! Pul bo‘lsa, changalda sho‘rva. Toshkentning naryog‘ida, ehe, yana qancha shaharlar, yerlar bor-u...

Taqdir deb bekorga aytishmaydi. O‘ziyam bo‘laricha bo‘lgandilar. Qani qorbo‘ron, qahratonda tog‘da kezib ko‘rchi, ana u arxarni qo‘lga tushirib ko‘rchi, qo‘lga tushirganingda-chi, go‘шти bu paytga kelib nimaga yarardi, ori, quruq chandirning o‘zi. Tishing o‘tmaydi. Buning ustiga, patronlar ham tugab bo‘lgan edi. Uzoqqa borisholmasdi. Shunday paytda xuddi osmondan tushganday bu bolalarning pluglari bilan paydo bo‘lishi kimning xayoliga kelibdi. Xudoning ularga yuborgan in‘omi! Ollo bor, u tepamizda muqarrar, — har kimning rizq-nasibasini bo‘lib qo‘ygan.

Bir chekkadan tanlamay olaverishdi, otlarning bari terib olinganday, barining qovurg‘alarida ikki enli yog‘, bunaqasini olamni aylanib chiqsang ham topolmaysan. Hil-hil go‘شت bo‘ladi, yeb to‘ymaysan. Xudo bor, u tepamizda muqarrar! U rizq, o‘lja yubordi, omad yubordi!..

Ular shoshilmay borishardi. Otlarning vaznini yo‘qotishga zarurat yo‘q edi. Bunaqa otlar Oloy bozoridagi qassoblarning tushlariga ham kirmagan. Pulni ber-u, olaver, ochofatlar!

Mana, samanlar oldindan tayyorlab qo‘yilgan jilovlarda to‘rtovlari yo‘rtib, pishqirishib borishyapti, qani endi o‘zlarini qayoqqa olib ketishayotganini bilishsa edi. O‘g‘irlab olib ketish ham oldindan o‘ylab qo‘yilgan. Yilqilarni to‘dasi bilan haydab bo‘lmaydi, tarqab ketishadi. Biri o‘rtada jilovni qo‘lida tutganicha egarda o‘tirib olgan, uzun jilovlardagi otlar esa ikkitasi chap tomonida, ikkitasi o‘ngda borardi. O‘rtada malla ot minib olgan sherigi esa qamchi bilan tezlab haydab, to‘xtashga yo‘i qo‘ymasdi. Faqat bir maromda, sekin ham emas, tez ham yurishmay ketishardi. Aql bilan, faqat aql bilangina ish yuritish talab qilinardi...

O‘N UCHINCHI BOB

Chopdor joyida turardi, Sultonmurot o‘tovdan chiqa solib, Chopdorga mindi-da, atrofga alanglab qichqirdi:

— Onatoy, ovulga chop! Imillamay yugur! Odamlarimizni chaqir! Men ularni alahsitib turaman! Ularga yetib olaman! Faqat sen tezroq bo‘l. Sen, Erkinbek, shu yerdan bir qadam ham siljima. Ukdingmi! Chop, Onatoy, chop!..

O‘zi esa Chopdorda uzoqlashib borayotgan otlarning tuyoq tovushlarini tusmollab o‘g‘rilar tomon yelib ketdi.

Tezroq, tezroq, Chopdor, og‘ajonim, olg‘a, ularni quvib yet! Men yiqilib tushmayman, mayib ham bo‘lmayman! Men uchun xavotirlanma. Olg‘a, Chopdor! Agar o‘lsak birga o‘lamiz, faqat tezroq chop, tezroq, tun qorong‘i, tushunaman. Qo‘rqinchli, senga ham qo‘rqinchli. Baribir olg‘a boraver. Tezroq, tezroq! Qani ular? Oldinda yiltirab ko‘rinayotgan narsa nima? U yoqda nimadir qimirlayapti, qo‘ldan chiqarib yubormasak bo‘lgani. Olg‘a, Chopdor, olg‘a... yiqilib qolmagin-a, Chopdor, yiqilma...

O‘N TO‘RTINCHI BOB

— Quvishyapti! — qo‘rquv aralash qichqirdi yaqin-lashib kelayotgan ot dupurini eshitgan o‘g‘rilaridan biri.

So‘ng ular jilovni bo‘sh qo‘yishib, avvaliga otlarni yo‘rg‘alatib, keyin choptirib ketishdi. Endi salqinlashga vaqt yo‘q. Tavakkal, bo‘lganicha bo‘lar. Endi qochish kerak, orqa-oldga qaramay qochish kerak.

Oldindagisi olib ketayotgan otlarning yuganini o‘ziga tortib egarga engashdi. Orqadagi sherigi esa kuchining boricha qamchilab otlarni shoshirardi. Chopib borayotgan otlar tuyoqlari dukuridan yer larzaga keldi. Quloqlar ostida shamol hushtak chalardi. Tun cheksiz, qop-qora pishqirib oqayotgan to‘lqinli daryo singari shitob bilan ularga peshvoz yelardi. — To‘xta! Qochib qutulolmaysanlar, to‘xta! — deya qichqirardi Sultonmurot ularga borgan sari yaqinlashib borarkan. Lekin uning tovushi quturib chopib borayotgan otlar shovqin-suronidan uzuq-yuluq eshitilardi, xolos.

Chopdor! Otlarning asili Chopdor! Otasining Chopdori! Qanday yeldi u! Xudli quvib yetmasligi mumkin emasligini aniq sezganday, Oqsoydagi bu tungi poygada yiqilishiga haqi yo‘qligini tushunganday edi.

Sultonmurot ot o‘g‘rilariga tezda yon tomondan yetib oldi, otlarni jilovidan ushlab borayotganliklari uchun qochib qutulish ularga unchalik oson emasdi.

— Otlarimizni qaytarib beringlar! Beringlar! Biz ular bilan yer haydaymiz! — baqirardi Sultonmurot.

O‘g‘rilarning biri chopib borayotib otni chetga burdi, otdan ag‘darmoqchi bo‘lib yirtqichday unga tashlandi. Ammo Chopdor chap berib qoldi. Barakalla, Chopdor, barakalla! O‘zini ta‘qib qilayotgan ot o‘g‘risidan qochib Sultonmurot oldinga o‘tib oldi, yonboshidan borib, oldingisini qisib, otni qayirishga intila boshladi:

— Qayt orqaga! — baqirdi u.

— Qoch, o‘ldiraman! — qichqirdi unisi otini burib, ammo Sultonmurot yana o‘g‘rining oldini kesib chiqar va uni qisib borib, to‘g‘ri ketishga xalaqit berardi.

Ular shu zaylda borishardi. Sherigi har gal uni quvib yuborar, Sultonmurot esa goh u, goh bu tomondan o‘tib yo‘lni kesganicha ularning qochishiga xalaqit berardi.

Shundan so‘ng birdan o‘q ovozi eshitildi. Sultonmurot uni eshitmadi, faqat yarq etgan o‘tni va bir daqiqa yorishib ketgan bepoyon Oqsoy bo‘shliqlarini, yonidan vahshiylarcha chopib o‘tayotgan qop-qora otlarni va odamlarni ko‘rib hayratlanishga ulgurdi, xolos.

O‘zi esa bir chekkaga otilib ketdi va toshday yerga urilib umbaloq oshib tushdi, so‘ng oyoqqa turib, shu zahotiyoq tagidagi oti qoqilib ketmaganligini tushundi. Ot kallasi bilan yerga urilib yonboshlagan xirillar, go‘yo hamon chopishga intilayotganday jon-holatda tuyoqlarini

ko'tarishga urinardi...

Sultonmurot og'riq va g'azabdan joni boricha baqirib, nima qilayotganini o'zi ham bilmay ot o'g'rilar izidan chopdi:

— To'xta! Qochib qutulolmaysanlar! Yetib olaman! Sizlar Chopdorni o'ldirdinglar! Otamning oti Chopdorni nimaga o'ldirasanlar!

U o'zini bilmay g'azab va jon-jahdi bilan yugurar, ularning ortidan xuddi yetib oladiganday, to'xtatib orqaga qaytarib qola oladiganday quvib borar edi. O'g'rilar qochmoqda, ot tuyoqlari qorong'ida taqillab, borgan sayin uzoqlashmoqda, u bo'lsa jahl ustida murosa qilishni hohlamay, hamon quvib bormoqda edi. U yeldek uchib borar, butun vujudi qizishib, badanlari achishib, ayniqsa qip-qizil qonga botgan qo'llari lovillab quvib borayotganday tuyulardi. U shuncha tez, shuncha ko'p yugurgani sayin yuzi va qo'llari shunchalik yonar edi...

Oxiri u yiqilib tushdi, bo'g'ilib entikkanicha yumalab keta boshladi. Chidab bo'lmas darajada og'riyotgan yuzi, qo'llarini qo'ygani. joy topolmasdi. Uning g'azabi qaynab, bu tunni la'natlar, ko'zlarida cheksiz alamli alanga bilan ingrab, fig'on chekardi.

U otlarning tuyoq tovushlari asta-sekin uzoqlashib borayotganini eshitib turardi. Yer borgan sayin uzokdagi tuyoq tovushini yutganicha zaiflik bilan sekin titrardi. Tez orada atrofdagi hamma narsa tinchib, jimib qoldi...

Shunda u o'rnidan turib, orqaga tisarilganicha, alam bilan ho'ng'rab yig'lab yubordi. Endi o'zini hech nima va hech qanday yo'l bilan ovutolmas, kimsasiz tungi Oqsoyda esa uni yupatadigan hech zog' yo'q edi. U yig'i aralash Ajimurotni o'zi bilan otasi urushdan qaytganda kutib olgani birga chiqamiz, deb va'da berganini esladi. Yo'q, endi hech qachon Ajimurot bilan otasi frontdan qaytganida Chopdorga minib, otni choptirib uni stansiyada kutib olisholmaydi. Ular endi Oqsoy yerlariga mo'ljaldagi donni eka olishmaydi. Endi ular tishlari oynaday yaltiragan pluglarni sudrab Oqsoy dalalaridan qaytganlarida tantanali, quvonchli kun bo'lmaydi. Mirzagul ham shodu xurram bo'lib ko'chaga chiqmaydi, uning ovulga kirib borishini ko'rmaydi ham, hayratlanmaydi ham. Umidlari chil-chil bo'ldi. U shuning uchun yig'lamokda edi...

O'N BESHINCHI BOB

Shamolda issiq qon hidini tobora aniqroq iskab borayotgan bo'ri borgan sari ishtahasini karnay qilib yuborgan o'sha is anqiyotgan joy tomonga dumini qisganicha chopib borardi... Qish bo'yi ozib qolganiga qaramay bu kekxa yirtqich hamon bahaybat edi. Oqsoydan sayg'oqlar ketgunlaricha qishni bir amallab o'tkazardi. Endi esa sayg'oqlar urchigani Oqsoydan katta qumloqqa ketishgan. Yosh bo'ri galalari bo'lsa tog'larda holsizlanib qolgan arxarlarni so'qmoqlarda tutib yurishibdi. Qari bo'ri eng og'ir damlarni boshidan kechirardi. U qishki uyqudan keyin sug'urlarning paydo bo'lishini kutardi. Kunlab, soatlab kutardi. Sug'urlar yaqin kunlar ichida oftobga chiqishlari kerak edi. Bu o'limdan qutulish demak edi.

Sug'urlar yer ostida, o'zlarining chuqur, tubsiz inlarida shunchalik uzoq yotgandiki! Bu kunlarda Oqsoyda bo'ri qanchalik ochlik va zerikish bilan yashamadi!

Bo'ri o'ljani begona bo'lishidan cho'chigandek qonning o'ziga tortuvchi hidi tomon yelib borardi. Bu yo katta o'lja, yo otning jasi edi. Ter va go'sht hidi uning boshini aylantirib, mast qilib qo'ygandi! Bu bo'ri umr bo'yi to'dasi bilan uch yoki to'rt martagina otlarni quvishga muvaffaq bo'lgandi, xolos.

Bo'ri yarim ochiq og'zidan so'lagini oqizib, bo'm-bo'sh oshqozonida qattiq og'riq sezganicha chopib borardi. Bo'ri bulutli tong g'ira-shirasida chopib borayotgan oqish soyaga o'xshab yelardi.

Bo'ri shundoq chopib borishda o'ljasi ustiga tashlanmoqni qanchalik xohlamasin, ko'nikma ko'nikmaligini qildi — o'zini tutib, uzokdan o'ljasi atrofini bir aylanib oldi. Aylandi-yu, dovdirab qoldi — o'lik ot yonida odam bor edi. Odam qo'rqib o'rnidan turdi.
— Ey! — baqirdi Sultonmurot yerni tepib.

Bo'ri tislaniib, dumini oyoqlari orasiga qattiq qisib, xohlamaygina, bir chetga qochdi. Ketish kerak edi. Odam turibdi. Odam o'ljani olib ketishga xalal beradi. Bo'ri sal nariroq qochib borib birdan to'xtadi-da, past ovozda ulib odamga yuzlandi. Bo'rining ko'kish, besaranjom ko'zlari qahr bilan yonardi. Kallasini egib, tishlarini g'ijirlatib, g'azab bilan sekin-asta yaqinlasha boshladi.

Sultonmurot bo'rini xatarga soluvchi qichqiriq bilan to'xtatdi va Chopdorning boshidan yuganini yechib olishga ulgurdi. U tezda yugan bilan og'ir temir suvliqni o'rab dastak qilib oldi. Endi suvliq uning quroli bo'lib qoldi.

Bo'ri yana ham yaqinroq kelib yerga yotib oldi, junlarini hurpaytirib, sakrash oldidan xuddi qisilgan prujinaday qotib qoldi.

Sultonmurot umrida birinchi marta o'z yuragining urishini yaqqol eshitdi — u ko'ksida qattiq qisilib turgan yumaloq narsaga o'xshab tepardi...

Sultonmurot yuganni qulochkashlagancha, xiyol engashib, kurashga shay bo'lib turdi...